O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

# “BYUDJET HISOBI VA G`AZNACHILIK ISHI” KAFEDRASI

# “G`AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORAT”

**fanidan**

# O’QUV–USLUBIY MAJMUA



**TOSHKENT-2019**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“BYUDJET HISOBI VA G`AZNACHILIK ISHI” kafedrasi**

# “G`AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORAT”

## fanidan

# O’QUV-USLUBIY MAJMUA

**Oliy ta’limning**

Bilim sohasi: 200 000-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta’lim sohasi: 230 000-Iqtisod

Ta’lim yo’nalishi: 5232000-Davlat byudjetining g`azna ijrosi

**Toshkent-2019**

**G.A.Kasimova, A.Z.Norquchqorov “G`aznachilikda moliyaviy nazorat” fanidan O’quv-uslubiy majmua.—T.: TMI, 2019. ______ bet.**

Ushbu O’quv-uslubiy majmua “**G`aznachilikda moliyaviy nazorat**” fanining O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil “__” ___dagi “__”-sonli buyrug’ining ___ ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** Kasimova.G. – TMI, “Byudjet hisobi va g`aznachilik ishi” kafedrasi dotsenti
Norquchqorov A.Z. – TMI, “hisobi va g`aznachilik ishi” kafedrasi o`qituvchisi

**Taqrizchilar:** Xotamov K.R. – BMA, “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori;
Ostonakulov A.A. – TMI “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti PhD;

O’quv-uslubiy majmuasi “Byudjet hisobi va g`aznachilik ishi” kafedrasining 2019 yil “__” ___dagi “__”-sonli majlisida muhokama qilingan va “Byudjet hisobi va davlat jamg`armalari” fakulteti Kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **A.Tuychiyev**

Fanning O`quv-uslubiy Majmuasi “Byudjet hisobi va g`aznachilik” fakultetining Kengashi muhokamasidan o`tkazilgan va Institut O`quv-uslubiy Kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2019 yil “__” ___dagi “__”-sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani** **U.Ortiqov**

Fanning O`quv-uslubiy Majmuasi institut o`quv-uslubiy Kengashining 2019 yil “__” ___dagi “__”-sonli yig`ilishida ko`rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

**Kengash raisi** **I. Qo`ziyev**

**O`quv-uslubiy bo`lim boshlig`i** **T.Baymuratov**

Fanning O`quv Uslubiy Majmuasi institut Kengashining 2019 yil “__” ___dagi “__”-sonli majlisi bayoni bilan ma`qullangan.

## MUNDARIJA


**KIRISH**…………………….………………………………………………...

**1. MA’RUZA MATNLARI**…….…………………………………...

**1-MODUL** G’AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKILETISH ASOSLARI........................................................................

1-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazorat faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti va usullari

2-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazoratning mazmuni va mohiyati

3-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslari

4-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil etish shakllari

5-DARS G’aznachilik tizimida narxlarni to’g’ri shakllantirilganligi ustidan nazorat

6-DARS G’aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishi

7-DARS Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etish

8-DARS G’aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro’yxatdan o’tkazilishi va hisobga olinishi ustidan nazorat

9-DARS G’aznachilikda qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatdano’tkazilishi va hisobga olinishi hamda xarajatlar to’lovining nazorati

10-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazoratni amalga oshirishda axborot tizimlari

11-DARS G’aznachilikda moliyaviy nazoratning xorij tajribalari

**2. MUSTAQIL TA`LIMNI BAJARISH BO`YICHA USLUBIY KO’RSATMA**………………………………………………………………

**3. GLOSSARIYLAR**…………………………………………………

**4. TARQATMA MATERIALLAR**…………………………………....

**5.** Testlar…………………………………………………….……………...

**6.** Amaliy mashg’ulot uchun topshiriqlar……………………………….

**7.** Taqdimot (elektron shaklda)……………………………………………

**8. ILOVALAR**………………………………………………….……..

Fan dasturi…………………………….…………………………………..

Ishchi fan dasturi……………………………………………………….…

# KIRISH

Ushbu o`quv-uslubiy majmuada G’aznachilikda moliyaviy nazorat faniga kirish. Fanning mazmuni, predmeti va usullari, G’aznachilikda moliyaviy nazoratning mazmuni va mohiyati, G’aznachilikda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslari, G’aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil etish shakllari, G’aznachilik tizimida narxlarni to’g’ri shakllantirilganligi ustidan nazorat G’aznachilikda davlat xaridini tashkil etilishi, Davlat xaridini tender savdolari orqali tashkil etish, G’aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro’yxatdan o’tkazilishi va hisobga olinishi ustidan nazorat, G’aznachilikda qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatdano’tkazilishi va hisobga olinishi hamda xarajatlar to’lovining nazorati, G’aznachilikda moliyaviy nazoratni amalga oshirishda axborot tizimlari, G’aznachilikda moliyaviy nazoratning xorij tajribalari nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o’z aksini topgan. “G’aznachilikning moliyaviy nazorati” fanini chuqur o’rganish Davlat budjetining g’azna ijrosi muammolarini hal qilishda muhim rol o’ynaydi.

Shu nuqtai nazardan fan “Davlat budjetining g’azna ijrosi” yo’nalishida ta’lim oluvchi talaba yoshlarga g’aznachilikning (DMBAT) dasturiy kompleksi, g’aznachilikning (O’RMV) AT axborot tizimi, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishda “UzASBO” dasturiy majmuasidan G`aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil etishda foydalanishning mohiyati va ahamiyati, bugungi kunda budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg’armalari byudjeti ijrosida moliyaviy nazoratni tashkil etish tartibi bo`yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar, zamonaviy sharoitda g`aznachilik tomonidan dastlabki va joriya nazoratni amalga oshirish yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni hosil qilishga mo’ljallangan.

“G’aznachilikda moliyaviy nazorat” fanidan tayyorlangan mazkur O’quv-Uslubiy Majmua “Davlat budjetining g’azna ijrosi” ta’lim yo’nalishida o’qitiladigan fanlar bo’yicha yaratilgan Davlat Ta’lim Standartlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan bo’lib, “G’aznachilikda moliyaviy nazorat” fanidan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar olib boruvchi professor-o’qituvchilar va oliy ta’limning bakalavriyat bosqichida ta’lim oluvchi talabalar uchun mo’ljallangan. O’UM tarkibiga kirgan fan dasturi, fan bo’yicha tasdiqlangan ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan hamda “Davlat budjetining g’azna ijrosi” ta’lim yo’nalishi o’quv jarayoni grafigiga to’liq mos keladi.

Fan yuzasidan ishlab chiqilgan mustaqil ishlar mavzulari fan dasturiga kirgan nazariy mavzular bilan birgalikda, dasturiy ta’minot, dasturiy komleks bilan bevosita bog’liq

bo'lgan, talabalarni ilmiy izlanishga undovchi mavzular bilan boyitilgan hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlat budjeti sohasidagi islohotlarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan mavzular hisobiga kengaytirilgan.

# 1.MA’RUZA MATNLARI

# 1.MA’RUZA MATNLARI

## 1-MAVZU. “G’AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORAT” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

### REJA:

1. “G’aznachilikda moliyaviy nazorat” fanining predmeti va metodi
2. Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishda G’aznachilikda moliyaviy nazoratning o’rni va ahamiyati
3. Davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari hamda nazorat organlarining vakolatlari
4. G’aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil qilishning maqsadi va vazifalari
5. G’aznachilikda moliyaviy nazoratning sub’ektlari va ob’ektlari
6. G’aznachilikda moliyaviy nazorat faoliyatini rejalashtirish va ularni o’tkazishning hususiyatlari

### 1. “G’aznachilikda moliyaviy nazorat” fanining predmeti va metodi

Hozirgi kunda bizning mamlakatda moliyaviy nazorat, mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil maxsus iqtisodiy fanning alohida segmentlari hisoblanadi. Bularning har biri o’z predmeti, izlanish usullari va amaliy qo’llanish jabhalariga ega. Shu bilan birga ularning bog’liqlik jihatlari va oldidagi maqsadning umumiy jabhalari mavjud, ya’ni to’g’ri boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun aniq ma’lumotlar berish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo’llarini aniqlash shular jumlasidandir.

***Nazorat*** - bu keng tushuncha bo’lib maxsus kuzatish tizimidan iborat boshqaruv funksiyalarining biridir. Uning asosiy maqsadi malumotni taqqoslash, o’zgarishlarni aniqlash va baholashdan iborat.

***Nazorat sub’ektlari*** – nazorat funksiyalarini bajaruvchi maxsus tashkilotlardir.

***Nazorat ob’ektlari*** – moliyaviy-xo’jalik-tijorat tashkilotlari, birlashmalaridir.

Nazoratning uch turi mavjud: dastlabki nazorat, joriy nazorat va keyingi nazorat.

Dastlabki nazorat – bunda reja, dastur va smetalarning tuzilishi nazoratdan o’tkaziladi.

Joriy nazorat – maxsus organlar tomonidan tezkor amalga oshirib turiladi. Masalan buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri nazorat bo’lib, ko’p jihatdan buxgalteriya hisobi tuzilmasini to’g’ri tashkil qilinishiga bog’liq.

Keyingi nazorat – bu o’tgan davrdagi faoliyatni tekshirishdir, masalan xo’jalik faoliyatini kompleks taftish yoki moliyaviy audit.

Moliyaning qiymat xarakteriga ega bo’lishi moliyaviy nazoratni taqazo etadi. Bu moliyaning nazorat funksiyasidan kelib chiqadi va doimiy davlat boshqaruvini talab qiladi. Moliyaviy nazorat davlat boshqaruvining maxsus

tizimidir. Uning usullari, ko'rinishlari va o'tkazish tartibi doimo takomillashib boradi.

***Moliyaviy nazorat* –** bu davlat tomonidan tashkil etilgan kuzatish tizimi bo'lib unga davlat, mustaqil va jamoa tuzilmalari kiradi. Ular davlat hokimiyati organlari, korxona va tashkilotlar faoliyati samaradorligini, salohiyati zaxiralarini, davlat budjeti xarajatlarini, qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilishadi.

Moliyaviy nazorat tizimiga: Davlat nazorati, idoraviy nazorat va mustaqil audit kiradi.

***Davlat nazorati* -** tuzilmasi bir muncha murakkab bo'lib, Davlat nazoratining sub'ektlari moliyaviy nazorat o'tkazish huquqiga ega Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Markaziy bank va boshqalar kiradi. Nazorat ob'ektlari bo'lib mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxona va tashkilotlar hisoblanadi.

***Idoraviy nazorat*** – barcha vazirlik va qo'mitalar boshqaruv tuzilmasiga kiruvchi nazorat va taftish bo'limlari yoki ichki audit boshqarmalari hisoblanadi. Bu nazorat bo'g'inining ob'ektlariga barcha davlat korxona va tashkilotlari yoki 50 foizdan ortiq aksiyalari davlatga tegishshli aksiyadorlik jamiyatlari kiradi.

***Mustaqil audit*** – mustaqil auditorlik firmalari va nodavlat sektori korxonalari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratni turlari, ko'rinishlari, shakllari va o'tkazish usullariga ko'ra quyidagicha sinflashtirish mumkin.

***Moliyaviy nazorat tizimi bloklari* –**uch turga bo'linadi ya'ni, moliyaviy-budjet nazorati, ichki moliyaviy–xo'jalik nazorati va mustaqil audit.

1.Moliyaviy-budjet nazorati – davlat budjeti smetalarining daromad va xarajatlarini tekshiradi. Buni Moliya vazirligining nazorat va taftish bosh boshqarmasi amalga oshiradi.

2.Moliyaviy-xo'jalik nazorati, ichki nazorat – korxona, tashkilot va birlashmalarning xo'jalik yuritish faoliyati va moliyaviy hisobotlarining xaqqoniyligini tekshirish. Buni yuqori tashkilotlarning nazorat va taftish boshqarmalari yoki bo'limlari yoxud ichki audit tizimi amalga oshiradi.

3.Mustaqil audit – Moliyaviy hisobotlarining xaqqoniyligini aniqlash. Buni maxsus litsenziyaga ega mustaqil auditorlik firmalari bajaradi.

***Moliyaviy nazorat iqtisodiy sub'ektlari bo'yicha ko'rinishlari-***

1. Davlat nazorati.
2. Idoraviy nazorat.
3. Ichki xo'jalik nazorat.
4. Jamoaviy nazorat.
5. Mustaqil nazorat.

***Manbaalariga binoan –***

1.Hujjatli.

2. Xaqiqiy.

3. Avtomatlashgan.

***Xajmiga binoan –***

1. To'la yoki qisman
2. Kompleks yoki aniq mavzu bo'yicha.
3. Tanlov asosida yoki barcha jabhalar bo'yicha.

***O'tkazish usullariga binoan –***

***Umumuslubiy:***

1.Taftish.

2.Audit.

3. Tahlil.

***Xujatli tekshirish usullari.***

1. Dasturiy baholash.
2. Arifmetik tekshirish.
3. Huquqiy baholash.
4. Mantiqiy nazorat.
6. Qarshi tekshirish.
7. Taqqoslash.
8. Balans bog'liqliklarini tekshirish.

***Xaqiqiy tekshirish usullari:***

1. Inventarizatsiya.
2. Ekspertiza.
3. Kuzatish.

4.O'lchash.

5. Xranometraj.

6.Laboratoriya tahlili

7 Sud buxgalteriya ekspertizasi.

Zamonaviy axborot tizimi yangi turdagi nazorat usularini yaratishni majbur etmoqda. Bular avtomatlashgan dasturiy taminotga ega nazorat usullari bo'lib hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanmoqda. Umuman olganda moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirish usullari aksariyat audit yoki taftishda bir hil ko'rinishni kasb etadi.

AQSh, Frantsiya va Germaniya kabi davlatlarda, agar ichki audit sifatini tekshirish mavjud standartlarga muvofiqamalga oshirilganliginini tasdiqlasa, ichki auditor hisob xujjatlarida "Ichki audit Xalqaro professional standartlariga muvofiq bajarilmoqda", deb qayd qilishi mumkin. Ushbu standartlar va Axloq kodeksi talablari qisman bajarilmasa va mazkur holat amalga oshirilgan ishlar hajmi yoki siftiga ta'sir qilsa, bu xaqida axborot ichki audit xizmatiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raxbariyatiga ma'lumot uchun etkazilishi kerak[1].

## 2. Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishda G'aznachilikda moliyaviy nazoratning o'rni va axamiyati

Davlat moliyaviy nazorati budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob'ektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf

[1] R.Dodj Kratkoe rukovodstvo po standartam i normam audita: Per. s angl., predislovie S.A.Stukova. (Audit: teoriya i praktika). – M.: Finansi i statistika; YuNITI, 2009..

etish va unga yo’l qo’ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

respublika darajasida — O’zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

davlat moliyaviy nazorat organiga budjet to’g’risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to’g’risida ma’lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo’l qo’yiladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari: O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining daromadlari qismi bo’yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati printsiplari. Davlat moliyaviy nazoratini o’tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining printsiplaridir.

Budjet ijrosi jarayoni xaqida axborotlar budjet hisobini tashkil qilish va yuritish orqali shakllantiriladi. Bunda, belgilangan budjet tasnifi bo’yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar amalga oshiriladi. Budjet hisobini alohida xususiyatlaridan biri – budjet ijrosini to’g’ri tashkil etish, moliya budjet intizomiga rioya qilish va nazorat funksiyasini amalga oshirilishidir.

Nazorat funksiyasi orqali budjet mablag’laridan maqsadli foydalanish, mulklarni saqlanishi va tayinlanishi bo’yicha sarflanishi tizimi yo’lga qo’yiladi.

Budjet hisobida ham yuqorida qayd etilganidek, nazoratning uch turi qo’llaniladi:

- dastlabki nazorat;
- joriy nazorat;
- keyingi nazorat.

**Dastlabki nazorat** – smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida amalga oshiriladi. Unda budjet intizomiga rioya qilinishi, shuningdek, qonunchilik talablari buzilishi oldi olinadi.

**Joriy nazorat** – budjet ijrosi jarayonida amalga oshirilib, sodir bo'lgan muomalalarni qonuniyligi, pul mablag'larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo'yicha hisob ma'lumotlarini xaqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi.

**Keyingi nazorat** – umumlashtirish bosqichi uchun zarur bo'lib, hisob va hisobot axborotlarini qonuniyligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

## 3. G'aznachilikda moliyaviy nazoratning shakllari, turlari va usullari hamda nazorat organlarining vakolatlari

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining turlari quyidagi:

- dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;
- joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;
- yakuniy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng Budjet Kodeksining 171-moddasida ko'rsatilgan davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir.

Davlat moliyaviy nazoratining usullari quyidagilardir:

1. hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab:

- yoppasiga nazorat — tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish;
- tanlov asosidagi nazorat — muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish;

2. nazoratning maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga qarab:

- kompleks nazorat — moliyaviy nazorat ob'ektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini nazorat qilish;
- mavzuli nazorat — moliyaviy nazorat ob'ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;
- muqobil nazorat — operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli moliyaviy nazorat ob'ektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish.

***O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.*** Hisob palatasi quyidagilarni amalga oshiradi:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, budjet-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o'rganish;
- budjet tizimi budjetlarining daromadlarini shakllantirish va mablag'lari sarflanishini umumiy, moddalar bo'yicha, tarmoqlar hamda hududlar kesimida nazorat qilish va tekshirish;
- davlat maqsadli dasturlari amalga oshirilishining to'liqligi va samaradorligini baholash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag'larining qonuniy shakllantirilganligini, maqsadli hamda samarali sarflanganligini nazorat qilish va tekshirish;
- O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o'rtasida maqbul nisbatga erishishga doir takliflarni tahlil qilish hamda baholash;
- davlat aktivlari shakllantirilishini, ulardan samarali va maqsadli foydalanilishini tekshirish;
- daromad keltiruvchi tarmoqlar korxonalari faoliyatini budjet tizimi budjetlariga qo'shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo'naltirilgan tarzda tahlil va nazorat qilish;
- O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitoblar jamg'armasi, Qishloqlarni qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlashni davlat tomonidan rag'batlantirish jamg'armasi va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'lari tushumi va daromadlarining shakllantirilishi, ularning mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan tahlil va nazorat qilish;
- valyuta, eksport va import operatsiyalari o'tkazishning qonuniyligini, shuningdek budjet tizimi budjetlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti va importidan majburiy to'lovlar bo'yicha mablag'lar tushumini nazorat qilish;
- mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining o'rni qayta to'ldirilishi va ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan nazorat qilish;
- ichki va tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha hisobotlar va balans hisob-kitoblarini tahlil qilish, mablag'lar va oltin-valyuta zaxiralarini chet el banklariga va boshqa banklarga joylashtirish hamda qayta joylashtirishning asosli va samarali ekanligini nazorat qilish;
- davlat qarzini boshqarish samaradorligini tahlil qilish, unga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan chet el kreditlari mablag'laridan samarali foydalanish masalalari bo'yicha predmetli tekshiruvlar tashkil etish;

- davlat mulki realizatsiya qilinishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish va ular bo'yicha nazoratni ta'minlash;
- budjet tizimi budjetlari mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilishga doir vazifalar moliya organlari, shu jumladan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bajarilishi samaradorligini tahlil qilish;
- davlat mulki ulushi bo'lgan korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatini dividendlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan tekshirish.

***O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, moliya boshqarmalari va moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.*** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida:

- quyi turuvchi moliya organlari tomonidan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi ustidan;
- ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan;
- budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan;
- aktsiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan;
- aktsiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aktsiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aktsiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan;
- budjet tashkilotlari tomonidan budjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan budjet hisobotini tuzishning to'g'riligi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

***G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.*** G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini:

- budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;
- xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi.

***O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan***

***davlat moliyaviy nazorati.*** Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari:

- budjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi;
- budjet tizimi budjetlarining xarajatlari ijrosi;
- budjet tizimi budjetlarining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to'liqligi;
- davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan manbalardan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi;
- O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishi;
- pensiyalar va nafaqalar to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining faoliyati;
- budjet ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi;
- O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) maqsadli foydalanilishi;
- insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi;
- davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) savdolarining to'g'ri o'tkazilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

***Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.*** Davlat soliq xizmati organlari davlat moliyaviy nazoratini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

***Davlat moliyaviy nazorat organlarining o'zaro hamkorligi.*** Budjet tashkilotlarini nazorat qilish rejalari davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi.

Moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarliklarga doir materiallar sudlarga yoki tegishli vakolatli davlat organlariga topshiriladi.

## 4. G'aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil qilishning maqsadi va vazifalari

Budjet ijrosi jarayonida nazoratning maqsadi – budjet ijrosini amalga oshirish va natijalarini shakllantirishni xaqqoniyligini aniqlash va tahliliy axborotlarni shakllantirishdan iborat bo'lib quyidagi vazfilarni o'z ichiga oladi:

1. Budjet daromadlari va xarajatlarining rejalashtirilishi hamda uning ma'lumotlari xaqqoniyligini aniqlash;

2. Budjet ijrosi jarayonida muomalalarni to’liq va to’g’ri xujjatlashtirilishini aniqlash;
3. Davlat maqsadli jamg’armalari budjeti daromadlari va xarajtlarini rejalashtirish hamda uni ma’lumotlarini xaqqoniyligini aniqlash
4. Budjet ijrosi jarayonida buxgalteriya hisob hisobvaraqlarini yuritilish holati va haraktini to’g’riligini aniqlash;
5. Budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirilishi va natijalarni shakllantirilishi to’g’riligini tekshirish;
6. Mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati hamda moliyaviy natijalar to’g’risidagi to’liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirilishini tekshirish;
7. Budjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini to’g’ri umumlashtirilishi va hisobtlarni xaqqoniyligini tekshirish;
8. Tekshiruv natijalarini umumlashtirish.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va xududiy moliya organlari yuqoridagi vaziflarni amalga oshirish chog’ida davlat budjetining ijrosini nazorat qiladi va quyidagilarga e’tibor qaratadi:

1. Budjetlar ijrosi yakunlarini ko’rib chiqadi;
2. Budjetlarga mablag’lar tushumi to’g’risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg’armalari organlaridan axborotlar oladi;
3. Budjet tashkilotlaridan budjet va budjetdan tashqari mablag’larning tushumi va sarflanishi to’g’risida ma’lumotlar talab qilib oladi;
4. Qonun xujjatlariga muvofiq banklardan budjet mablag’lari harakati to’g’risida ma’lumotlar oladi;
5. Budjet mablag’larini oluvchilarning moliyaviy xo’jalik faoliyatini auditdan o’tkazadi.

Keltirilgan vazifalarni bajarilishi umumiy maqsad, ya’ni budjet ijrosi jarayoni ustidan nazoratni ta’minlab beradi. Tekshirish tasdiqlangan dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Tekshirishlarni o’tkazishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- smeta-moliya hujjatlarini, bunda budjet mablag’laridan qonunchilikka va budjet mablag’larining tejamli yo’naltirilishiga qat’iy rioya etilishiga erishgan holda, chuqur tahlil qilishni va har tomonlama o’rganishni amalga oshirish;
- O’zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog’iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning tegishli boshqarmalari va bo’limlarida xarajatlar smetasini ko’rib chiqish, tasdiqlash va o’z vaqtida tashkilotlarga etkazish bo’yicha ishlarni to’g’ri tashkillashtirishga erishish;
- daromadlarning to’liq hisobi, pul mablag’larining o’tuvchi qoldiqlari, bu mablag’lardan tejamli va samarali foydalanishni inobatga olgan holda, budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha daromadlar va xarajatlar smetasining tuzilishining qonuniyligi va rejalashtirishning asoslanganligini e’tiborga olish;
- smetani rejalashtirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor holda chora-tadbirlarni qo’llash, smeta xarajatlari bo’yicha aniqlangan ortiqcha

ajratilgan mablag'lar summasini bu haqda tashkilot rahbariga xabar bergan holda o'z vaqtida budjetdan moliyalashtirish miqdorini qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, hokimiyatning boshqarmalari va bo'limlarida smetani rejalashtirish holatini tekshirish natijalari bo'yicha zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, tegishli hokimiyatlarga axborot berilishi, qoida buzilishlarni yo'qotish bo'yicha takliflar berilishi va aniqlangan ortiqcha ajratilgan mablag'lar summasini xarajatlar smetasi bo'yicha tayinlash kamaytirilishi mumkin.

Tashkilotlarning smeta xarajatlarining to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida etkazilishi bo'yicha tekshirish natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida muntazam umumlashtiradi va ko'rib chiqiladi hamda ushbu ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

## 5. G'aznachilikda moliyaviy nazoratning sub'ektlari va ob'ektlari

Budjet ijrosi jarayonida nazorat va taftishning ob'ektlari moliya organi, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlari hisoblanib, nazorat borasida ular quyidagilarga bo'linadi:

1. budjet daromadlari va xarajatlari;
2. budjet pul mablag'lari, budjet ssudalari;
3. hisoblashuvlar bo'yicha mablag'lar, aylanma kassa mablag'lari;
4. budjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari;
5. moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar;
6. majburiyatlar va moliyaviy natijalar.

Yuqorida keltirilgan ob'ektlarning 1-3 moliya organlari va davlat maqsadli jamg'armalariga taalluqli bo'lib, 4-6 budjet tashkilotlriga taalluqlidir.

Budjet ijrosi jarayonida nazorat va taftishning sub'ektlari bo'lib:

1. Hisob palatasi;
2. Moliya vazirligi;
3. Davlat Soliq qo'mitasi;
4. Mustaqil auditorlik firmalari (shartnoma asosida).

Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish vakolati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatilgan bo'lib, nazoratning asosiy sub'ekti hisoblanadi.

## 6. G'aznachilikda moliyaviy nazorat faoliyatini rejalashtirish va ularni o'tkazishning xususiyatlari.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati nazorat rejasiga ko'ra amalga oshiriladi va davlat moliyaviy nazorat organining qarori asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs davlat moliyaviy nazorat organi qarorining ko'chirma nusxasiga va xizmat guvohnomasiga ega bo'lishi kerak. Yakuniy

nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslariga qo'yiladigan talablar vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning ekspertlari va mutaxassislarini jalb etishga haqli.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati Budjet kodeksining 170-moddasiga muvofiq tasdiqlangan moliyaviy nazorat ob'ektlarini nazorat qilish rejasiga ko'ra yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati davlat moliyaviy nazoratini tayinlagan tegishli davlat moliyaviy nazorat organining rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratining natijalari davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxsi tomonidan:

- tekshirish va taftish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — dalolatnoma;
- davlat moliyaviy nazorati natijalarini umumlashtiruvchi hujjat — jamlanma dalolatnoma;
- o'rganish va nazorat tartibida tekshirish natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — ma'lumotnoma yoki xulosa;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan davlat moliyaviy nazorati natijalari bo'yicha tuziladigan hujjat — hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlar quyidagilar ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi:

- rasmiylashtirilayotgan hujjatning turi;
- tekshirish o'tkazilgan joy, hujjat tuzilgan sana;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazish uchun asos;
- davlat moliyaviy nazoratining turi va uni o'tkazish davri;
- davlat moliyaviy nazoratini o'tkazgan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- moliyaviy nazorat ob'ektining to'liq nomi, nazorat bilan qamrab olingan davr uchun mas'ul mansabdor shaxslarning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi ular egallab turgan lavozimlarida ishlagan davr albatta ko'rsatilgan holda;
- moliyaviy nazorat ob'ektining joylashgan yeri (pochta manzili), bank rekvizitlari;
- oldingi taftish (tekshirish) natijalari yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlar;
- davlat moliyaviy nazorati bilan qamrab olingan davr hamda uni o'tkazish uchun moliyaviy nazorat ob'ekti tomonidan taqdim etilgan hujjatlar haqidagi umumiy ma'lumotlar;

- taftish (tekshirish) jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklar faktlari, normalari buzilgan qonun hujjatlari ko’rsatilgan holda.

Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga davlat moliyaviy nazoratini o’tkazish uchun asos bo’lib xizmat qilgan hujjatlarning ko’chirma nusxalari, davlat moliyaviy nazorati doirasida harakatlarni bajarish to’g’risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, jalb etilgan ekspertlar va mutaxassislarning xulosalari, nazoratni o’tkazish jarayonida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning so’roviga ko’ra olingan materiallar, shuningdek nazorat doirasida bajarilgan harakatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qo’shib qo’yilishi lozim.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatga qonun hujjatlari bilan, hujjatlar bilan yoki moliyaviy nazorat ob’ekti faoliyatining davlat moliyaviy nazorati jarayonida amalga oshirilgan tartib-taomillar natijalari bilan tasdiqlanmagan turli xil xulosalarni, taxminlarni va faktlarni, tergov materiallaridan ma’lumotlarni va moliyaviy nazorat ob’ekti mansabdor shaxslari tergov organlariga bergan ko’rsatuvlarga havolalarni kiritishga yo’l qo’yilmaydi.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatda moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor va moddiy javobgar shaxslari harakatlariga huquqiy baho berilmasligi, shuningdek ularning qilmishlari, niyatlari va maqsadlari tavsiflanmasligi lozim.

Budjet kodeksi 184-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumotlar ma’lumotnoma (xulosa) rasmiylashtirilayotganda majburiy emas.

Davlat moliyaviy nazoratining natijalariga doir hujjatlar davlat moliyaviy nazoratini o’tkazgan mansabdor shaxslar, shuningdek moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor va mas’ul shaxslari tomonidan imzolanadi.

Moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor va mas’ul shaxslari davlat moliyaviy nazorati natijalariga rozi bo’lmagan taqdirda, hujjatni o’z e’tirozlari bilan imzolaydi hamda o’n kunlik muddat ichida e’tirozlarini davlat moliyaviy nazorat organiga yozma shaklda taqdim etadi.

Moliyaviy nazorat ob’ekti tomonidan e’tirozlar o’n kunlik muddatda yozma shaklda taqdim etilmagan taqdirda, davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjat moliyaviy nazorat ob’ekti tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi hamda davlat moliyaviy nazorat organi tomonidan uni amalga oshirish choralari ko’riladi.

Moliyaviy nazorat ob’ekti sudga murojaat etgan taqdirda, o’zining sudga murojaat etganligini tasdiqlovchi hujjatni o’n kunlik muddatda davlat moliyaviy nazorat organiga taqdim etishi shart. Sud tomonidan moliyaviy nazorat ob’ektining murojaati xususida qaror qabul qilinguniga qadar davlat moliyaviy nazorat organi davlat moliyaviy nazorati natijalari bo’yicha rasmiylashtirilgan hujjatning nizoli bandlarga tegishli qismi bo’yicha amalga oshirilishini to’xtatib turadi.

Davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma’lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to’liqligi davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ta’minlanadi.

Moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor shaxslari:

- davlat moliyaviy nazorati amalga oshirilishining maqsadi, boshlanish sanasi va davomiyligini bilishga;
- davlat moliyaviy nazorat organlarining tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan mazkur organ rahbarining qarorini va yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi bir martalik guvohnomani, shuningdek shaxsiy guvohnomani talab qilishga;
- davlat moliyaviy nazoratini o’tkazish uchun asosga ega bo’lmagan shaxslarni davlat moliyaviy nazoratiga qo’ymaslikka;
- davlat moliyaviy nazorati natijalari yuzasidan shikoyat qilishga haqlidir.

Moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor shaxslari:

- davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxslari davlat moliyaviy nazoratini o’tkazishi uchun zarur sharoitlar yaratishi;
- davlat moliyaviy nazorat organi va uning mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek davlat moliyaviy nazorat organi mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga monelik qilmasligi;
- davlat moliyaviy nazoratini o’tkazish vaqtida davlat moliyaviy nazorat organining mansabdor shaxslariga mazkur nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etishi hamda ularning ishonchliligi, xolisligi va to’liqligi uchun shaxsan javobgar bo’lishi;
- budjet to’g’risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda foydalanilgan mablag’larning o’rni qoplanishini, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishini ta’minlashi shart.

Moliyaviy nazorat ob’ektining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin.

Davlat moliyaviy nazoratini:

- moliyaviy nazorat ob’ekti mansabdor shaxsining yaqin qarindoshi, erining (xotinining) qarindoshi bo’lgan;
- moliyaviy nazorat ob’ektida shaxsiy mulkiy manfaatlari bo’lgan;
- tekshiruv bilan qamrab olingan davrda moliyaviy nazorat ob’ektida ishlagan davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o’tkazish taqiqlanadi.

Budjet kodeksi 186-moddasining birinchi qismida ko’rsatilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda davlat moliyaviy nazorat organlarining mansabdor shaxslari bu haqda davlat moliyaviy nazoratini tayinlagan organning rahbarini yozma shaklda xabardor qilishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pulatov D.X., Nurmuxmedova B.I. “G’aznachilik” Darslik . – T.: Sano-standart, 2014y. – 372 b.
2. Qosimova G. G’aznachilik. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2013. - 476 b.
3. Qosimova G.A. G’aznachilik faoliyati mexanizmni tashkil qilish. O’quv-uslubiy majmua. – T.: “Moliya”. 2010. - 256 b.
4. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O’quv qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012 yil. -152 b.
5. Steven M. Bragg. Treasury management: The Practitioner’s Guide /Published by John Wiley &Sons, Inc., Hoboken, New Jersey/ 2010.
6. Barry H. Potterand Jack Diamond /Building Treasury Systems/Finance & Development / September 2011.
7. Internet saytlari: www.mf.uz
   www.gov.uz
   www.lex.uz
   www.budget.ru

## 2-MAVZU. G’AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORATNING MAZMUNI VA MOHIYATI

**REJA:**

2.1. G’aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil etish
2.2. O’zbekiston Respublikasida davlat budjetining g’azna ijrosiga o’tish shart-sharoitlari va afzalliklari
2.3. G’aznachilikda moliyaviy nazoratning mohiyati va o’ziga xos xususiyatlari
2.4. G’aznachilik faoliyatining tashkiliy elementlari

### 2.1. G’aznachilikda moliyaviy nazoratni tashkil etish

Bugungi kunda budjet jarayonini samarali tashkil qilish ishlarini g’aznachilik nazoratisiz ta’minlash qiyin ekanligini olimlar va iqtisodchilar, qolaversa, soha mutaxassislari asosli ravishda e’tirof etmoqdalar. Chunki g’aznachilikda moliyaviy nazorat budjet daromadlari va xarajatlarini yagona g’azna hisobraqamiga jamlash, pul mablag’larini to’g’ri rejalashtirish, moliyaviy

oqimlarning dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish hamda davlat budjetini yuqori operativlikda ijro qilish imkonini beradi.

Ma’lumki, global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko’plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko’rsatayotgan salbiy ta’siriga qaramasdan, oxirgi yillarda respublikamizda yuqori va barqaror o’sish sur’atlarini saqlab, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblikning ta’minlanayotganligi o’ziga xos ijobiy ko’rsatkich bo’lmoqda.

Budjet jarayoni tushunchasining mazmuniga to’xtaladigan bo’lsak, budjet jarayoni - budjet loyihasini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishi bilan bog’liq bo’lgan davlat hokimiyati va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari hamda boshqa budjet jarayoni ishtirokchilarining maqsadli faoliyatidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va budjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning budjet huquqlari bilan belgilanadi.

2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O’zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksida “budjet jarayoni” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “*budjet jarayoni* – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosi ustidan nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o’rtasidagi o’zaro munosabatlar jarayoni”[1]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi (2.1-rasm):




*2.1-rasm. Budjet jarayoni bosqichlari*[2]

Budjet jarayoni budjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Budjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday

---

[1] O’zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda (O’RQ-360-son. 26.12.2013).
[2] O’zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 3-moddasi asosida (O’RQ-360-son. 26.12.2013).

rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash nisbatlarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Budjetni rejalashtirish turli darajadagi budjetlarni tuzish va ijro etish tartibi, uning me'yoriy-huquqiy bazasi va tashkiliy asosi tarzida budjet jarayonini, shuningdek, mamlakat budjetini tuzishning nazariyasi va metodologiyasi masalalarini ham o'z ichiga oladi. Budjetni rejalashtirish asoslari mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi.

## O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjeti loyihasini budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan buyurtmalar va Davlat budjetining tuzilmasiga kiruvchi budjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlaydi va uni *budjetnoma* – erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat tarkibida joriy yilning o'n beshinchi sentyabriga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun – joriy yilning 20 sentyabriga qadar kiritiladi. Hisob palatasi ikki haftalik muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasi bo'yicha o'z xulosasini taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat budjeti loyihasi (Budjetnomaning tarkibida) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga – Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay kiritiladi.

## O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan "Budjetnoma" deb ataladigan hujjat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini;

– davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini;

– davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini;

– soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasini;

– davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasini;

– davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

– soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonun xujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.**

Davlat budjetining g'azna ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Budjet Kodeksiga asosan Moliya vazirligining budjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

– Davlat budjeti hamda soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

– davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari loyihalarini ko'rib chiqadi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga budjetnoma loyihasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari prognozini har chorakda etkazadi;

– budjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini etkazadi;

– budjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

– Budjet Kodeksining 145-moddasida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Budjet Kodeksining 144-, 145- va 149-moddalarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

– Budjet Kodeksining 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

– soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;
– budjet tizimi budjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
– Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;
– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;
– budjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;
– Davlat budjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;
– budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;
– budjet ssudalarini beradi;
– davlat tomonidan mablag'lar jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro'yxatdan o'tkazadi;
– davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
– budjet tizimi budjetlarining kassa ijrosini yuritadi;
– budjet tizimi budjetlarining Yagona g'azna hisobvarag'idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;
– budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi;
– budjet tizimi budjetlarida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga ko'ra to'lovlarni amalga oshiradi;
– budjet tizimi budjetlari ijrosining budjet hisobini yuritadi;
– davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatadi, O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;
– O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko'maklashish mablag'lari hisobini yuritadi;
– budjet tizimi budjetlari daromadlari va xarajatlarining balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi;
– o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

*Budjet tizimi budjetlarining ijrosi* budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan, budjet tizimi budjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va

xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi[1].

**Budjet tizimi budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi.**

Budjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida budjet tizimi budjetlari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Budjet qonunchiligiga muvofiq, mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun budjet tizimi budjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet tizimi budjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Budjet Kodeksining 117-moddasida budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan bo'lib, budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi quyidagilarni o'z ichiga oladi (2.2-rasm):

- tushumlarni Yagona g'azna hisobvarag'iga va boshqa bank hisob-varaqlariga kiritish;
- tushumlarni budjet tizimining budjetlari o'rtasida taqsimlash;
- ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to'lash evaziga hisobga olish;
- hisob va hisobot.

Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar, bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno, daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Budjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi (2.3-rasm):

[1] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, VII bo'lim, 19-bob, 109-modda.




*2.2-rasm. Budjet tizimi budjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish*[1]




*2.3-rasm. Budjet tizimi budjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish*[2]

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.
[2] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 120-moddasi asosida keltirildi.

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish;
- kassa xarajatlarini amalga oshirish, shu jumladan budjetlararo transfertlarni o'tkazish;
- hisob va hisobot.

Budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi jarayonida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi budjetlardan budjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi jarayonida budjetdan ajratiladigan mablag'lar quyidagi holatlarda kamaytiriladi:

1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan budjetdan ajratiladigan mablag'larning:
- budjet tashkilotlarining tarmog'i, shtatlari va kontingentlari bo'yicha reja bajarilmaganligi;
- budjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi;
- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar moliya yili yakuni bo'yicha to'liq o'zlashtirilmaganligi;
- budjet tashkiloti va budjet mablag'lari oluvchilar faoliyati to'xtatib turilganligi, to'xtatib turilgan davr uchun;

2) davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tadbirlar davomida aniqlangan, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan ortiqcha va qonunga xilof ravishda budjetdan ajratiladigan mablag'larning;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan budjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarining qisqartirilishi;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralarining;

**5) dotatsiyalar va subsidiyalarni to'lash uchun mo'ljallanib, zarurat qolmagan summalariga kamaytiriladi.**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.**

**Respublika budjetidan xarajatlari rejalashtirilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik uchun belgilangan muddatlarda taqdim**

**etadi. Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan xarajatlari rejalashtirilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag’ oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag’lardan hisobot davrida foydalanganlik to’g’risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjetining ijrosi to’g’risidagi hisobotni, shuningdek, davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreligacha taqdim etadi.**

Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni tashqi audit o’tkazish va baholash uchun O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga hisobot yilidan keyingi yilning 5 apreligacha yuboradi. Hisob palatasi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10 mayidan kechiktirmay O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining ijrosi to’g’risidagi yillik hisobotni O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining ijrosi to’g’risidagi hisobotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlari va qo’mitalarida muhokama qilish asosida ko’rib chiqadi. Ko’rib chiqilgan yillik hisobot Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ko’rib chiqiladi hamda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi, shundan keyingina davlat budjeti va davlat maqsadli jamg’armalari budjetlari ijrosi to’g’risidagi yillik hisobot O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy web-saytiga joylashtiriladi.



*2.4-rasm. Budjet jarayoni ishtirokchilari*[1]

Budjet Kodeksining 3-moddasida keltirilishicha, "budjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar" bo'lib (2.4-rasm), Kodeksda shuningdek, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining hamda budjet jarayoni boshqa ishtirokchilarining vakolatlari tegishli moddalarda aniqlashtirilgan.

Budjet jarayonini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi:

– *yagonalik* – yagona huquqiy baza, yagona budjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va hududlar budjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan budjet hujjatlari shaklining yagonaligi;

– har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya xokimiyati organi budjet jarayonining *mustaqilligi* - o'z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilash huquqi bilan ta'minlanadi;

– *balans usuli* – barcha budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlari o'rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi.

## 2.2. O'zbekiston Respublikasida davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tish shart-sharoitlari va afzalliklari

Mamlakatimizda davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari *davlat budjetining kassaviy ijrosini* amalga oshirib keldilar. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilinib, 2014 yil 1 yanvarda Budjet Kodeksi kuchga kirgunga qadar budjet amaliyotining huquqiy asosini tashkil qilib kelgan "Budjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasida "Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig'iga binoan bajaradi", - deb belgilab qo'yilgan edi. Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari ularning hisobvaraqlaridagi budjet mablag'lari qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshirib kelindi.

Bu amaliyot bir necha o'n yillar mobaynida budjet ijrosida ma'lum darajadagi samara bilan qo'llanib kelindi. Lekin keyingi yillarda davlat budjetining kassaviy ijrosi davlat mablag'larini boshqarish, budjet ijrosini tashkil qilish va nazoratini olib borish, mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash masalalarida bir qator *muammolarni* keltirib chiqardi (2.5-rasm):

– budjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning etarli darajada operativ (tezkor) emasligi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013)ning 3-moddasi asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

– daromadlarning bank hisobraqamlariga tushishi va budjetning hisobraqamlarida aks ettirilishidagi uzilishlarning mavjudligi bois budjet resurslarini boshqarishdagi tezkorlikning sustligi;

– soliq daromadlarining budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi;

– budjet ajratmalarining hajmlari bilan haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar summalari ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazoratning murakkablashuvi;

– budjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan budjet mablag'larining turib qolishi;

– budjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning so'nggi iste'molchilarga etib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi;

– davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zarurligi va boshqalar.

Sanab o'tilgan muammolar kecha yoki bugun yuzaga chiqmadi, ular yillar davomida yig'ilib, tezkor sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotiga halaqit bera boshladi. Budjet ijrosi ustidan nazoratning sustligi, mablag'larni operativ boshqarish imkoniyatining kamayib borayotganligi, budjet ijrosi to'g'risidagi tezkor va aniq ma'lumotlarni olish, jamlash, qayta ishlash va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi qiyinchiliklar davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar qilishni, budjet mablag'larini boshqarishning samarali usul va vositalarini izlab topib, tadbiq etishni talab etdi va davlat budjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning zarurligini belgilab berdi.

Davlat budjeti ijrosini g'aznachilik mexanizmlariga o'tkazishning quyidagi afzalliklari mavjud (2.6-rasmga qarang):




*2.5-rasm. Davlat budjeti g'azna ijrosi joriy qilingunga qadar yuzaga kelgan muammolar*[1]

[1] Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008. O'quv qo'llanmada keltirilgan materiallar asosida.

– qisqa fursatlarda davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko’rsatkichlarini aniqlash;

– davlat moliyasining holati to’g’risidagi tezkor axborotlarni yig’ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

– davlat budjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismi kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o’tkazish;

– tasdiqlangan budjet mablag’lari doirasida budjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish) dastlabki nazorat qilish;

– moliya organlari tomonidan budjet xarajatlarini o’z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan budjet mablag’larini bosh taqsimlovchilar tomonidan suiste’mol qilish va noto’g’ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;

– budjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag’larini g’aznachilik hisobraqamidan to’g’ridan-to’g’ri ta’minotchilarning hisobraqamiga o’tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo’yicha jarayonlarni qisqartirish;

– g’aznachilikning bir pog’onasidan ikkinchi pog’onasiga pul mablag’larini o’tkazishni soddalashtirish natijasida budjet mablag’larini tezkor ishlatish.




*2.6-rasm. Davlat budjeti g'azna ijrosini joriy etishning afzalliklari*[1]

[1] Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008. O'quv qo'llanmada keltirilgan materiallar asosida.

## 2.3. G’aznachilikda moliyaviy nazoratning mohiyati va o’ziga xos xususiyatlari

Bizga ma’lumki, 2004 yil 26 avgustda O’zbekiston Respublikasining “Davlat budjetining g’azna ijrosi to’g’risida”gi 664-II-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda ko’rsatilishicha, *“Davlat budjetining g’azna ijrosi davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g’azna hisobraqamiga kiritishdan, shuningdek, davlat budjetining xarajatlarini shu hisobraqamdan to’lashdan iborat”*[1].

G’aznachilikda moliyaviy nazoratning *asosiy tamoyillari* - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g’azna ijrosi qonun xujjatlarida belgilab qo’yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag’alpog’iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo’linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyasini boshqarish - davlat o’z vazifalarini samarali bajarishini ta’minlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilishda ma’lum samaraga erishish, yagona tizim asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish va nihoyat iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko’riladigan tadbirlar yig’indisidir.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G’aznachilik ham alohida muhim o’rin egallaydi. G’aznachilik - budjetdan mablag’ oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va budjet tashkilotlariga etkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun G’aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig’iga binoan vakolatni o’z zimmasiga oladi va budjet mablag’larining maqsadli ishlatilishini ta’minlash va nazorat qilish asosida to’lovlarni amalga oshiradi.

G’aznachilikda moliyaviy nazorat deganda davlat budjeti, davlat maqsadli jamg’armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning mablag’lari to’planadigan va ushbu mablag’lar doirasida aniq belgilangan yo’nalishlar bo’yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g’azna hisobraqami orqali davlat budjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

Davlat budjeti g’azna ijrosiga o’tishgacha bo’lgan davrda budjet ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilar edi:

- budjet tushumlarini taqsimlash;
- tegishli budjetlarda jamlangan mablag’larni budjetdan mablag’ oluvchilarning ularga xizmat ko’rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o’tkazish.

Davlat budjeti ijrosining bunday tartibida budjet mablag’larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog’liq bo’lib qoldi. Davlat budjeti mablag’laridan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina

---

[1] O’zbekiston Respublikasining “Davlat byudjetining g’azna ijrosi to’g’risida”gi Qonuni. 4-modda.

buxgalteriya hisobotlari orqali so'nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Mazkur muammolarni e'tiborga olgan xolda, Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tizimida budjetni g'aznachilik orqali ijro etish uchun mas'ul bo'lgan institutsional tuzilma shakllantirildi. Bu faoliyat bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin (2.1-jadval):

*2002 yilda* "Davlat moliyasini boshkarishni isloh kilish" loyihasi ma'qullandi hamda uni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha mas'uliyat Moliya vazirligiga yuklatildi. Mazkur loyihaning maqsadi "davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, budjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat"[1] bo'ldi.

– *2004 yilda* O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunini qabul qilindi. Bu Qonun budjet xarajatlarini boshqarish va nazorat qilish jarayonlariga keskin o'zgartirishlar kiritdi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining) va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi. "Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi o'z navbatida budjetdan mablag' oluvchilarning tovarlarni etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning xarajatlarini to'lashga qaratilgan budjet mablag'larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

– *2005 yilda* Moliya vazirligi tarkibida davlat budjetining g'azna ijrosini joriy qilish uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi. Davlat budjetining g'azna ijrosini joriy etish – keng qamrovli masala bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etardi, xususan, g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, yagona g'azna hisobvarag'ini ochish va shu kabi masalalar Uslubiyot boshqarmasi faoliyatining diqqat markazida bo'ldi va budjetning g'azna ijrosi metodologiyasini yaratishga qaratildi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son (26.04.2002) Qarori, 3-band.

*2.1-jadval*

O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti g'azna ijrosini tadbiq etish bosqichlari

| yillar | Amalga oshirilgan tadbir | Asos |
|---|---|---|
| 2002 yil | Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirish boshlandi | O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son Qarori (26.04.2002) |
| 2004 yil | Davlat budjeti g'azna ijrosining qonuniy-huquqiy asosi yaratildi | O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II sonli Qonuni (26.08.2004) |
| 2005 yil | Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g'aznachilik tizimini joriy qilish bo'yicha tajriba loyihasi boshlandi | O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son Qarori (26.04.2002) |
| 2006 yil | Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida davlat budjeti g'azna ijrosi bosqichma-bosqich joriy qilindi | O'zR Prezidentining "O'zR ning 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-244-sonli qarori (27.12.2005) |
| 2007 yil | Barcha hududlarda davlat budjeti g'azna ijrosi joriy qilindi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tuzildi | O'zR Prezidentining "Davlat budjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli Qarori (28.02.2007) |
| 2009 yil | Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning g'azna ijrosi joriy qilindi, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlari g'azna ijrosi yo'lga qo'yildi | O'zR Prezidentining "2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2008 yil 29 dekabr PQ-1024-son qarori |
| 2010 yil | Tajriba tariqasida davlat budjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi | O'zR Prezidentining "2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2009 yil 22 dekabr PQ-1245-son qarori |
| 2011 yil | Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi O'zR MV G'aznachiligi deb belgilandi. | O'zR Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475-sonli qarori (17.02.2011) |
| 2012 yil | Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi | Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida |




*2.7-rasm. G'aznachilikning asosiy tashkiliy elementlari*

– *2007 yilda* respublikaning barcha xududlarida davlat budjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko'ra barcha guruhlari bo'yicha ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi.

– *2007 yilda* Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

– *2009 yilda* davlat budjeti bilan birgalikda, davlat maqsadli jamg'armalarining ham ijrosi G'aznachilikka o'tdi. Bu maqsadda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari harakatini ta'minlovchi tegishli banklardagi ularning hisobraqamlari yopilib, G'aznachilikda ular uchun shaxsiy hisobraqamlar ochildi va ularning daromadlari tushumi va harajatlari to'lovi shu hisobraqamlardan amalga oshirila boshlandi.

– *2010 yildan* boshlab tajriba tariqasida davlat budjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi;

– *2011 yildan* boshlab yangi budjet tasnifiga asoslangan, davlat budjeti g'azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G'aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi.

– *2011 yilning* 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475-sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilandi. G'aznachilik tashkiliy tuzilmasi tarkibida esa "Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi" tarkib topdi.

– *2012 yilning 1 yanvaridan* boshlab O'zbekiston Respublikasi "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat budjetiga o'tkaziladigan soliqlar va majburiy to'lovlar banklar tomonidan qabul qilinadigan va belgilangan tartibda 23402-, 23403-, 23407-, 23409-, 20207-, 20205- va 23411-sonli balans hisobraqamlarda ochilgan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kirim qilinadigan va ular hisobidan tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalar amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

Moliya vazirligi G'aznachiligi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin:

*Birinchidan,* g'aznachilik davlat budjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va barcha xarajatlarni yagona g'azna hisobraqamidan amalga oshiradi. Mablag'larning Yagona g'azna hisobraqamiga soliq va soliq bo'lmagan daromadlar ko'rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat budjeti xarajatlarini o'z vaqtida to'lash uchun barqaror asos yaratadi.

*Ikkinchidan,* dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya'ni majburiyatlarni qabul qilish jarayoni boshlanadi, bunda budjet tashkiloti tomonidan smetada ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi va shu asosda mablag'larning maqsadli harakatini ta'minlash uchun zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat moliyasi tizimini isloh qilish jarayonida amalga oshirilayotgan har bir o'zgarishlar natijasida pirovard maqsad ko'zlanib ish yuritilmoqda.

## 2.4. G'aznachilik faoliyatining tashkiliy elementlari

G'aznachilik faoliyat ko'rsatishi uchun uning quyidagi tashkiliy elementlari mavjud bo'lishi va o'zaro bog'liqlikda amal qilishi zarur. Ular (2.7-rasmga qarang):

1. G'aznachilikning yagona hisobraqami;
2. G'aznachilikning bosh kitobi;
3. G'aznachilik organlari;
4. G'aznachilikning axborot tizimi;
5. G'aznachilikda budjet mablag'larini boshqarish.

*G'aznachilikning yagona hisobraqami.* O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq soliqli va soliqsiz davlat tushumlarini to'plash, saqlash va davlat xarajatlarini amalga oshirish uchun G'aznachilik tomonidan G'aznachilikning yagona hisobraqami ochiladi. "Yagona g'azna hisobraqami G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobraqami bo'lib, bu hisobraqamda Davlat budjeti mablag'lari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisobraqamidan davlat budjetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi"[12]. G'aznachilik alohida operatsiyalarni, shuningdek, davlat maqsadli fondlarining mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun g'aznachilikning yagona hisobraqami doirasida subschyotlarini ochish huquqiga ega. Bu subschyotlardagi qoldiqlar g'aznachilikning yagona hisobraqami qoldig'ining ajralmas qismi hisoblanadi.

*G'aznachilikning bosh kitobi.* G'aznachilikning bosh kitobi – budjet ijrosi g'azna usulining asosiy elementlaridan biridir. G'aznachilik Bosh kitobi bilan davlat moliyaviy resurslarining hisob-kitobi yuritiladi va moliya tizimining axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilikning Bosh kitobi budjet operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuterlashtirilgan tizimidir.

---

[12]O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuni. 9-modda.

G'aznachilikning Bosh kitobida davlat tashkilotlari va muassasalari bilan bo'ladigan barcha moliyaviy operatsiyalar o'z ifodasini topadi. G'aznachilikning Bosh kitobi G'aznachilikning yagona hisobraqami va subschyotlari bilan bo'ladigan operatsiyalardagi barcha buxgalteriya provodkalarini aks ettiradi. G'aznachilikning Bosh kitobi ham respublika budjetidan, ham mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlash hisob-kitobining o'z vaqtida yuritilishini ta'minlaydi.

*G'aznachilik organlari.* G'aznachilik Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar Boshqarmalari, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'limlari kabi hududiy organlari faoliyat qiladi. G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan Davlat G'aznachisi rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika budjetidan amalga oshiriladi.

*G'aznachilikning axborot tizimi.* G'aznachilikka yagona axborot tizimi xizmat qiladi. Hozirgi kunda G'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo'lib, "Davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi" (DMBAT) deb ataladi. Budjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar DMBAT ga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflar, xududiy belgilari, budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Daromadlar avtomatik ravishda tegishli budjetlarga belgilangan normativlar asosida o'tkaziladi. Daromadlarning yillik va oylik prognoz qilish bilan bog'liq tadbirlar o'zgarishsiz qolsa-da, tushumlarni o'tkazish endilikda banklar tomonidan emas, DMBAT tomonidan amalga oshiriladi.

*G'aznachilikda davlat budjeti mablag'larini boshqarish* shundan iboratki, G'aznachilik yagona g'azna hisobraqamidan va G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridagi davlat budjeti mablag'larini, davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek, davlat budjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budjetiga, Qorag'alpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib

boradi. G'aznachilik tomonidan dotatsiyalar va ssudalarni o'tkazish yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan davlat budjetida mablag'lar ajratish nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga o'tkaziladi.

## 3-MAVZU. G'AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORATNING HUQUQIY ASOSLARI

**REJA:**

1. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-uslubiy asoslari..
2. Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning me'yoriy-uslubiy asoslari.
3. Budjet hisobotlarini tuzishda qo'llaniladigan axborot tizimlari tarkibi

### 1. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning me'yoriy-uslubiy asoslari.

Bevosita budjet tashkilotlarida budjet hisobotlari qonunchilik nomalari asosida shakllantiriladi. Xalqaro talablarga to'la mos ravishda qabul qilingan, budjet ijrosining hisobi borasida ham asosiy tayanch qonunchilik bazasi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni budjet tashkilotlarida budjet hisobi va hisobotini tashkil qilish borasida ham asosiy normalarni belgilab beradi. Jumladan, budjet hisobining asosiy maqsadi va vazifalari, uning sub'ektlari va ob'ektlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobini tartibga solish borasidagi vakolatlari va boshqa bir qator asosiy qonunchilik talablari o'rnatilgan.

Shuningdek, 2014 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan "Budjet kodeksi" ham budjet tashkilotlarida budjet hisobini tashkil qilish, xarajatlar smetasi ijrosini olib borish va uni nazorat qilish, shuningdek budjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, taqdim qilish va boshqa bir qator asosiy qonunchilik normalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar, jumladan, 1999 yil 3 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish jarayonini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning bir bo'g'ini hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek budjet jarayonini bir qismini tashkil qilib,

foydalanuvchilarni davlat budjetining ijrosi to’g’risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta’minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo’yicha qonunchilikka muvofiq O’zbekiston Respublikasi davlat budjetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O’zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o’z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat hususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo’llash tartibi to’g’risida belgilangan tartibda me’yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning me’yoriy-xuquqiy asoslarini 4 darajaga ajratish mumkin.

1-darajada keltirilgan qonuniy hujjatlar budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xuquqiy asosi bo’lib hisoblanadi. Qolgan 2-4 darajada keltirilgan hujjatlar budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asosi bo’lib hisoblanadi.

**Budjet tashkilotlaridan buxgalteriya hisobini tashkil qilishning me’yoriy - uslubiy asoslarini hisob ob’ektlariga tegishliligi bo’yicha tasnifi**

| | Me’yoriy-huquqiy hujjatning nomi | Qabul qilgan organ, ro’yxatdan o’tkazilgan sanasi va raqami | Hujjatning qisqacha mazmuni |
|---|---|---|---|
| **TASHKILIY ASOSLAR BO’YICHA ME’YORIY HUJJATLAR** | | | |
| | “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Yo’riqnoma | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 22 dekabr 2010 yil 2169-son bilan ro’yxatga olingan | Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkiliy, texnik hamda uslubiy jihatlari, jumladan bosh hisobchi va hisobchilarning huquqlari, majburiyatlari va vazifalari, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi va xar bir schyot bo’yicha to’liq ma’lumotlar, hisob yuritish shakli, shuningdek 63 ta ilova bilan dastlabki hisob hujjatlari, hisob registrlari va boshqa zaruriy hujjatlar tasdiqlangan. |
| | “Budjet tashkilotlari va budjet mablag’lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro’yxatdan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro’yxatga olingan | Budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag’lari bo’yicha xarajatlar smetalarini, budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish tartibi keltirilgan. Shuningdek budjet tashkilotlari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalarini |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | tuzish va taqdim qilish tartibi, shtatlar jadvalini tuzish va taqdim qilish tartibi ham keltirilgan. Bundan tashqari mazkur smetalarni va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish va ularni to'g'ri tuzilganligini nazorat qilish tartibi bayon qilingan. |
| | "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risida"gi Nizom | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 14 yanvar 2004 yil 1297-son bilan ro'yxatga olingan | Yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan dastlabki hisob hujjatlariga qo'yiladigan asosiy talablar, hujjatlar aylanish grafigini ahamiyati va uni namunaviy ko'rinishi, dastlabki hisob hujjatlariga buxgalteriyada ishlov berish, ushbu hujjatlarni elektron tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar va boshqa qonunchilik normalari keltirilgan. |
| | O'zbekiston Respublikasining 19-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2 noyabr 1999 yil 833-son bilan ro'yxatga olingan | Inventarizatsiyani tashkil qilish, uni o'tkazishning umumiy qoidalari, mol-mulkning ayrim turlari va moliyaviy majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish qoidalari, inventarlash bo'yicha solishtirma-qaydnomalarni tuzish, inventarizatsiya bo'yicha tofovutlarni tartibga solish tartibi va inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish hamda inventarizatsiya bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan. |
| | O'zbekiston Respublikasi Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 11 oktyabr 2010 yil 2146-son bilan ro'yxatga olingan | O'zbekiston Respublikasi Budjet tasnifining asosiy printsiplari, uning strukturasi, jumladan, daromalar tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, xarajatlar tasnifi, uning tarkibi: xarajatlarning vazifa jixatidan tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, shuningdek budjet taqchilligini moliyalashtirish tasnifi, uning tarkibi va mazmuni va boshqa qonunchilik normalari keltirilgan. |
| **ASOSIY VOSITALAR HISOBI** | | | |
| | "Budjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan b'ektlarini sotish, shuningdek ularni sotishdan tushgan pul mablag'larini taqsimlash tartibi to'g'risida" Nizom | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 31 dekabrdagi 343-son qarori bilan tasdiqlangan. | Budjet tashkilotlarida bino, inshootlardan tashqari boshqa aosiy vositalarni sotish, shuningdek sotishdan tushgan mablag'ni taqsimlash tartibi keltirilgan. Ushbu xujjatda sotishdan tushgan mablag'dan budjet tashkiloti ixtiyorida qoladigan qismini qaysi maqsadlarga sarflanishi belgilangan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to’g’risida” Nizom | O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi 102-son qarori bilan tasdiqlangan. | Budjet tashkilotlari vaqtincha bo’sh binolarni, mulklarini ijaraga berish tartibi keltirilgan |
| | “1 yanvar holati bo’yicha asosiy fondlarni xar yili qayta baholashni o’tkazish tartibi to’g’risida” Nizom | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 4 dekabr 2002 yil 1192-son bilan ro’yxatga olingan | Asosiy fonlarni qayta baholash, qayta baholashni o’tkazish tartibi va usullari, ularni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirish tartibi va asosiy fondlarni qayta baholash bilan bog’liq boshqa normalar keltirilgan |
| | “Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarining eskirishini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to’g’risida”gi Nizom | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 19 dekabarda 2538-son bilan ro’yxatga olingan | Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarini eskirishini aniqlash, eskirish normalari va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi keltirilgan. |
| | “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to’g’risida” Nizom (yangi tahrirda) | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 29 avgust 2004 yil 1401-son bilan ro’yxatga olingan | Asosiy vositalarni balansdan chiqarishning asosiy talablari (kriteriyalari) va tartibi, ularni hisobda aks ettirish, hujjatlashtirish, shuningdek asosiy vositalarni sotishdan tushgan mablag’larni taqsimlash va hisobda aks ettirish tartibi va boshqa normalar keltirilgan. |
| | “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to’g’risida”gi Nizom | O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 6 aprel 2004 yil 1334-son bilan ro’yxatga olingan | Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar bahosini aniqlash, kamomadlarni undirish va tushgan mablag’larni taqsimlash tartibi, inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi va boshqa normalar keltirilgan |
| **TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBI** | | | |
| | Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida Nizom | O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan. | Byujetdan tashqari mablag’lar hisobidan tovar moddiy zaxiralar ishlab chiqarishda ularni tannarxini shakllantirish tartibi belgilangan. Bunda tannarxga kiritiladigan hamda kiritilmaydigan xarajatlar belgilangan. |
| | Budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarilishi va sotilishi Tartibi | 25 yanvar 2000 yil 880-son bilan ro’yxatga olingan | Budjet tashkilotlari tomonidan tovar (ish, xizmat) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, xarajatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish tartibi va boshqa normalar keltirilgan. |
| | Tovar-moddiy boyliklarni | 27 may 2003 | Tovar-moddiy boyliklarni olishga |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida Nizom | yil 1245-son bilan ro'yxatga olingan | berish tartibi, ishonchnoma blanklarini ko'rinishi, va tovar-moddiy boyliklarni ishonchnomalar bo'yicha berish va shu kabi ishonchnoma bilan bog'liq normalar keltirilgan |
| | O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalari | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 14 mart 2002 yil 1111-son bilan ro'yxatga olingan | Budjet tashkilotlarida materiallar bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlar aniqlangan me'yorlar asosida taxlil qilish tartibi hamda materiallar turlari bo'yicha alohida kun me'yorlari keltirilgan. Agar budjet tashkilotini moliya yili oxirida bo'lgan materiallar bo'yicha qoldiq qiymati belgilangan me'yor(limit)dan ortiqcha bo'lsa keyingi moliya yilida budjet mablag'lari bo'yicha xarajat smetasida materiallar sotib olish uchun kiritilgan summa me'yordan ortiq summaga kamaytirilishi ko'rsatilgan |
| **PUL MABLAG'LARI HISOBI** | | | |
| | "Yuridik tashkilotlar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari" | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 21 iyunda 2786-son bilan ro'yxatga olingan | Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish tartibi, jumladan, kassa xonalariga qo'yiladigan asosiy talablar, kassirlarning mas'uliyati va javobgarligi, ular tomonidan kassa operatsiyalari bilan bog'liq dastlabki hujjatlarni, shuningdek kassirlik hisobotlarini tuzish va taqdim qilish tartibi va kassa operatsiyalari bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan. |
| | O'zbekiston Respublikasi xududida yuridik shaxslar tomonidan xorijiy valyutada kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 22 yanvar 1999 yil 611-son bilan ro'yxatga olingan | Yuridik shaxslar tomonidan xorijiy valyutada kassa operatsiyalarini yuritish, jumladan kassadagi xorijiy valyutalarni hisobda aks ettirish, dastlabki (kassa kirim, kassa chiqim) xujjatlar nusxalari, kassa kitobini yuritish tartibi keltirilgan |
| | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish, yopish va yuritish Qoidalari | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 18 yanvar 2013 yil 2414-son bilan ro'yxatga olingan | Budjet tashkilotlari tomonidan shaxsiy hisobvaraqlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'limlarida yuritilishi tartibi keltirilgan |
| | Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalari | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 16 sentyabr | G'aznachilik bo'limlarida budjet tashkilotlarini yuridik hamda moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lab berilishi tartibi keltirilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 2009 yil 2007 - son bilan ro'yxatdan o'tgan | |
| **DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHUVLAR HISOBI** | | | |
| | O'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan. | Xodimlarga qo'shimcha ish haqlari (mexnat ta'tili uchun, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari) hisoblashda o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi keltirilgan |
| | Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-son qarori bilan tasdiqlangan. | Tovarlar, xom ashyo materiallarni sotib olishda tanlov savdolari o'tkazish jarayonlari hamda tartibi keltirilgan |
| | O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan. | Kapital qurilish hamda ta'mirlash ishlarini amalga oshirilishi uchun tanlov savdolarini o'tkazish tartibi keltirilgan |
| | O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 martdagi 69-sonli qarori bilan tasdiqlangan. | Tovar xom ashyo birjasida tovarlar, xom ashyo materiallarni sotib olishda elektron auktsion savdolarni tashkil etish va o'tkazish tartibi keltirilgan |
| | Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi 177-sonli qarori bilan tasdiqlangan. | Budjet tashkilotlari tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta to'lovlarini hisoblash tartiblari keltirilgan |
| | O'zbekiston Respublikasi Hududidagi xizmat safarlari to'g'risidagi Yo'riqnoma | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 29 avgust 2003 yil 1268-son bilan ro'yxatga | O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlariga chiqishning tartib-qoidalari, xizmat safarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish tartibi va xizmat safari xarajatlari normalari, shuningdek boshqa xizmat safarlari bilan bog'liq qonunchilik normalari keltirilgan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | olingan | |
| | Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag' berish tartibi | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 19 noyabrda 2730-son bilan ro'yxatga olingan | Xodimlar O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag' berish me'yorlari hamda tartibi keltirilgan |
| | Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi to'g'risida yo'riqnoma | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 20 sentyabr 1995 yil 177-son bilan ro'yxatga olingan | Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasini tashkil etish va ushbu jamg'arma mablag'larini sarflash tartibi keltirilgan |
| | "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va tartibi to'g'risida Nizom" | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 8 may 2002 yil 1136-son bilan ro'yxatga olingan | Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini, boshqa to'lovlarni hisoblash hamda to'lab berish tartibi keltirilgan |
| | Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 16 aprelda 1339-son bilan ro'yxatga olingan | Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga stipendiyalar hisoblash hamda to'lab berish tartibi keltirilgan |
| | Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizom | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013 yil 26 fevralda 2431-son bilan ro'yxatga olingan | Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli tushgan mablag'lar sarfini amalga oshirish me'yorlari keltirilgan |
| **MOLIYAVIY NATIJALARNI SHAKLLANTIRISH HISOBI VA HISOBOTLAR** | | | |
| | Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Nizom | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 13 noyabr 2012 yil 2400 – son bilan ro'yxatga olingan | Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi, tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi, ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt mablag'lari, shuningdek budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag'larining tushumi va sarflanishini buxgalteriya hisobida aks ettirish, shuningdek soliq imtiyozlari va tovar (ish, xizmat) ishlab |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | chiqarish va sotish jarayonlarini hisobda aks ettirish masalalari va buxgalteriya hisobi bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan. |
| | O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 27 sentyabr 2011 yil 2270– son bilan ro'yxatga olingan | O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar, mazkur hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari bilan kelishish tartibi va budjet tashkilotlarining hisobotlari bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan. |

## 2. Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning me'yoriy-uslubiy asoslari

Hozirgi kunda davlat budjeti ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi" va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunlariga, G'aznachilik va uning xududiy bo'limlarida davlat budjeti kassa ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yil 2 dekabrdagi 157-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat budjeti g'azna ijrosi budjet hisobi to'g'risida yo'riqnoma" ga "Davlat maqsadli va budjetdan tashqari boshqa jamg'armalari budjeti g'azna ijrosi budjet hisobi to'g'risida yo'riqnoma" ga asosan budjet hisobi yuritilmoqda va boshqa tegishli qonuniy xujjatlarga asosan moliya organlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning xududiy bo'linmalari Qaroqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shahar va tuman moliya bo'limlaribudjet hisobini yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yil 2 dekabrdagi 157-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, O'zbekiston Respublikasi Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shaxar va viloyatlar maxaliy budjetlari ijrosiga oid hisobot shakllari tasdiqlangan.

Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosiga oid hisobotlar shakllari tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan.

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobini me'yoriy –uslubiy asoslari me'yoriy –huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilgan tashkil etiladi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri)ga muvofiq budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi quyidagi asosiy tamoyillar (printsiplar)ga asosan tashkil etiladi:

-uzluksizlik;

-ishonchililik;
-ko’rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi.
Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag’lar hisobi memorial order shaklida olib boriladi.
Tekshirilgan va hisobga olish uchun qabul qilingan hujjatlar sanasi bo’yicha tartiblashtirilib, quyidagi doimiy raqamli memorial order — jamlanma qaydnomalar bilan rasmiylashtiriladi:
1-memorial order — kassa operatsiyalari bo’yicha jamlanma qaydnoma, 381-son shakl;
2-memorial order — budjet mablag’larining harakatiga doir jamlanma qaydnoma, 381-son shakl;
3-memorial order — budjetdan tashqari mablag’lar harakatiga doir jamlanma qaydnoma, 381-son shakl;
5-memorial order — ish haqi va stipendiyalar bo’yicha hisob-kitob varaqalari yig’indisi, 405-son shakl;
6-memorial order — turli tashkilotlar va muassasalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo’yicha jamlanma qaydnoma, 408-son shakl;
8-memorial order — hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar bo’yicha jamlanma qaydnoma, 386-son shakl;
9-memorial order — asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va joydan joyga ko’chirilishi bo’yicha jamlanma qaydnoma, 438-son shakl;
11-memorial order — oziq-ovqat mahsulotlarining kirimiga doir jamlanma qaydnoma, 398-son shakl;
12-memorial order — oziq-ovqat mahsulotlarining sarfiga doir jamlanma qaydnoma, 411-son shakl;
13-memorial order — materiallar sarfiga doir jamlanma qaydnoma, 396-son shakl;
15-memorial order — ta’lim muassasalarida bolalarni saqlaganlik uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo’yicha qaydnoma, 406-son shakl.
Qolgan operatsiyalar (asosiy vositalarga eskirish hisoblash, asosiy fondlarni har yilgi qayta baholash, budjetdan tashqari daromadlar hisobi, yilni yakunlash operatsiyalari va h.k) va “Storno” operatsiyalari bo’yicha alohida memorial orderlar tuziladi (274-son shakl) va ular har oy uchun alohida 16 raqamdan boshlab raqamlanadi.
Operatsiyalar hajmiga qarab jamlanma qaydnomalarni tuzish talab qilinmaydigan tashkilotlarda subschyotlar korrespondentsiyasi alohida memorial orderlarda (274-son shakl) ushbu yuqorida keltirilgan doimiy raqamlar berilib ko’rsatiladi.
Alohida memorial orderlar operatsiyalarning sodir bo’lishiga qarab, ammo boshlang’ich hisob hujjatlari olingandan keyingi kundan kechiktirmasdan ayrim hujjatlarga yoki bir xildagi hujjatlarning bir guruhi asosida tuziladi. Subschyotlar korrespondentsiyasi memorial orderlarda ikki yoqlama yozuv qoidasiga muvofiq yozib boriladi.
Memorial orderlar bosh hisobchi (yoki uning o’rinbosari) va ijrochi (hisobchi) tomonidan imzolanadi.

Barcha memorial orderlar 308-son shakldagi “Bosh-jurnal kitobi”da ro’yxatga olinadi. “Bosh-jurnal kitobi” har bir subschyot bo’yicha yuritiladi.
“Bosh-jurnal kitobi” o’tgan yildagi yakunlovchi balansga muvofiq yil boshiga qolgan qoldiq summalarni ko’chirib yozish bilan ochiladi. Bu daftarga yozuvlar memorial orderlar va memorial order — jamlanma qaydnomalar tuzilgandan keyin oyiga bir marta yoziladi.
Memorial orderdagi summa dastlab “Order bo’yicha summa” qatoriga, keyin esa, tegishli subschyotlarning debeti va kreditiga yoziladi. Barcha subschyotlar bo’yicha oylik aylanmalar summasi debetda ham kreditda ham “Order bo’yicha summa” qatorining jamiga teng bo’lishi kerak. Oylik aylanmalardan keyingi ikkinchi qatorda har bir subschyot bo’yicha kelgusi oyning boshiga qoldiq chiqariladi.
Vazirliklar, davlat qo’mitalari va idoralari, shuningdek, ularning tizimidagi tashkilotlar O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobi yuritishning jurnal-order shaklida olib borishlari mumkin.
Budjet tashkilotning rahbari tashkilotda budjetdan tashqari mablag’lar hisobini tashkil qilinishiga, moliya-xo’jalik faoliyatidagi amalga oshirilgan muomalalarni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligiga hamda buxgalteriya hujjatlarini saqlanishiga javobgar bo’ladi.

### 3. Budjet hisobotlarini tuzishda qo’llaniladigan axborot tizimlari tarkibi

Hozirgi kunda davlat budjeti ijrosiga oid hisobotlar G’aznachilik axborot tizimi, Davlat budjeti axborot tizimlari dasturiy ta’minotlar yordamida shakllantirilmoqda.
G’aznachilik axborot tizimi yagona o’zaro bog’liq bo’lgan dasturlar kompleksidan tashkil topgan bo’ladi. **G’aznachilik axborot tizimining dasturiy ta’minoti** – bu g’aznachilik axborot tizimidagi hisoblash jarayonlarini samarali tashkil qilish uchun zarur bo’lgan dasturlar majmuasidan iboratdir. G’aznachilik axborot tizimining dasturiy ta’minoti ko’plab o’zaro bog’liq bo’lgan modullar va quyi tizimlarning dasturiy majmuasidan tashkil topgan bo’lib, u davlat budjetining daromad tushumlari va xarajatlarini hisobga olish, hisobotlarni tayyorlash, budjet tasnifi bo’yicha har kunlik ma’lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash, budjet ijrosiga oid bo’lgan normativ ko’rsatkichlarning bajarilishini tartibga solib turish kabi budjet ijrosi jarayonlarini to’liq avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy majmualardan iborat bo’ladi. Bundan tashqari, ushbu dasturiy majmualarda joriy qonunchilik asosida amalda bo’lgan imtiyozlar va turli budjetlararo bosqichlarning o’zaro hisob-kitoblari ham inobatga olinishi zarur bo’ladi. Tizimdagi dasturiy ta’minot orqali kundalik ish jarayonlarining balansini, belgilangan normativ hisobotlarni, to’lov hujjatlarini va boshqa so’rovnomalarga javoblarni chop etishni ta’minlab berish ham talab etiladi. G’aznachilik axborot tizimi dasturlar kompleksining tarkibiga quyidagi vazifalar kiradi: budjet loyihasini tuzish; budjet daromadlari va xarajatlari yoyilmasini tuzish; qo’shimcha yoyilmani tuzish; yoyilmani aniqlashtirish va budjet yoyilmasi asosida moliyalashtirish rejasini tuzish va aniqlashtirish; budjet belgilanishlarining o’zgarishlari to’g’risidagi bildirish-ma’lumotnomasini tuzish;

xarajatlarni to'lash uchun topshiriqnomalarni tuzish; xarajatlarni to'lash uchun jamlama reestr topshiriqnomalarini tuzish; memorial orderlarni tuzish; moliyaviy jarayonlarning natijalari bo'yicha bosh kitoblar; har xil qismlardagi bevosita hisobotning o'zini tayyorlash; budjet asosiy parametrlari bo'yicha prognozlash va quyi budjetlarga budjet parametrlarini etkazish; g'aznachilik organlarining buxgalteriya hisoboti bo'yicha asosiy va yordamchi kitoblarini kiritish; moliyalashtirish uchun budjet qabul qiluvchilardan talabnomalarni olish, moliyalashtirish rejasi va yoyilma bilan talabnomalarni taqqoslash; talabnomalarni tartibga solish va jamlash; hujjatlarni qabul qilish va YaG'HR bilan bog'liq jarayonlar uchun Markaziy Bankga tayyorlanadigan va jo'natiladigan to'lov hujjatlarini ta'minlaydigan quyi tizimda, buxgalteriya kitoblarida amalga oshirilgan jarayonlarni ko'rsatish; markaziy g'aznachilikka moliyalashtirish haqidagi ma'lumotlarni tayyorlash; axborot xavfsizligini barcha miqyosda ta'minlash, axborotlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, saqlanishi va uzatilishini uzluksiz ta'minlash.

G'aznachilik axborot tizimining asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari undagi tizimli va amaliy dasturiy ta'minotlarining (ADT) imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti majmuasi quyidagi funktsiyalar bajarilishini to'la-to'kis ta'minlashi lozim:

- YaG'HR da davlat budjetining daromad tushumlari bo'yicha hisob-kitoblarni, hisobotlarni, axborotlarni qayta ishlashni tahlil qilish va axborotlarni muntazam ravishda saqlab turish;
- tasdiqlangan reja bo'yicha davlat budjetining ijrosiga oid kelib tushayotgan daromad tushumlari va xarajatlari bo'yicha dolzarb va ishonchli axborotlarni etkazib turish;
- budjet ijrosi bo'yicha yuqori tashkilotlarga ma'lumotlar, so'rovnomalar, statistik va tahliliy axborotlarni tezkor etkazib berish;
- hisobot, hisob-kitoblar va to'lov hujjatlarini shakllantirish;
- budjet ijrosi bo'yicha boshqa tashkilotlar axborot tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lish va o'zaro axborot almashinuvini ta'minlash;
- g'aznachilik axborot tizimi dasturiy ta'minotining tuzilmaviy tuzilishiga rioya etish imkoniyatlarini yaratish.

G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti o'z tarkibiga g'aznachilikning asosiy funktsiyalari va masalalarini echishga imkon beruvchi, uning texnik vositalar majmualarining barqaror ishlashini ta'minlovchi barcha dasturiy majmualarini birlashtiradi. Uning tarkibiga umumiy va maxsus dasturiy ta'minotlar, dasturlarni qo'llash uchun yaratilgan uslubiy-yo'riqnoma materiallari, dastur tuzuvchilar va dasturlarni doimiy kuzatib boruvchi dasturchi xodimlar kiradi. Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, g'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti tarkibiga **umumiy, funktsional, tashhislovchi dasturiy ta'minotlar** va dasturlarni qo'llash bo'yicha hujjatlar taalluqlidir.

**Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga** ish o'rinlari kompyuterlari va lokal hisoblash tarmoqlari tizimlarining muntazam ishlab turishini ta'minlovchi

operatsion tizimlar kiradi. Umumiy dasturiy ta'minotning maqsadi amaliy dasturlarni ishga tushirish va ularning bajarilish jarayonlarini boshqarib turishdan iboratdir. Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga WINDOWS NT, UNIX, OS/2, Netware (Nowell) kabi operatsion tizimlar hamda ish o'rinlari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan INTERNET EXPLORER va boshqa dasturlar kiradi.

Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga ko'pchilik foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan, hamda hisoblash jarayonlarini tashkillashtirish, tez-tez uchrab turadigan masalalarni echish va axborotlarni qayta ishlashga qaratilgan dasturlar kiradi. Shuningdek ular tarkibiga kompyuterlarning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish, hisoblash jarayonlarining ketma-ketligi navbatini rejalashtirishni avtomatlashtirish, axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish, dasturchilar faoliyatini avtomatlashtirish imkonini beradigan dasturlar ham kiradi.

**Funktsional dasturlar ta'minoti tarkibiga** bajariluvchi dasturlar kirib, ular asosan majmuiy funktsional masalalar echilishini va quyi tizimlar faolligini muntazam ta'minlab turishga qaratilgandir.

**Tashhislovchi dasturiy ta'minot tarkibiga** g'aznachilik axborot tizimi funktsional dasturlari va quyi tizimlarining to'g'ri ishlashini, namuna misollari yordamida majmuiy test nazorati o'tkazib turuvchi, kompyuterlarni yoki boshqa texnik vositalarni tayyorlovchi zavodlar yoki ularni etkazib beruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning to'g'ri ishlashining test nazoratini bajaruvchi maxsus dasturlar kiradi.

**Maxsus dasturiy ta'minot tarkibiga** esa g'aznachilik axborot tizimini yaratishda ma'lum bir funktsional masalalarni echish uchun ishlab chiqilgan maxsus dasturlar to'plami kiradi. Uning tarkibiga funktsional masalalarni echishda ma'lumotlarni tashkillashtirish va ularni qayta ishlash bilan bog'liq amaliy dasturiy paketlari ham kiradi.

Umuman olganda g'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti barcha texnik vositalar qismlarining bir-birlari bilan moslashgan holda ishlashlarini va ularning foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalarini ta'minlab berishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy g'aznachilik axborot tiziminining umumiy va funktsional dasturiy ta'minotlarining tuzilmalarini quyidagi talablardan kelib chiqqan holda shakllantirilishi talab etiladi:

- g'aznachilik tizimini boshqarishning tsikli budjet ijrosi jarayonlarini boshqarishdagi to'rtta asosiy faoliyatni, ya'ni rejalashtirish, hisob, nazorat va tahlilni o'z ichiga qamrab olishi kerak;
- tizimdagi hisob va nazorat masalalarini echishni tashkil qilish "hisob tizimlari" yordamida, ya'ni tranzaktsiyalarni va qaydlarni hisobga olishga imkon beruvchi OLTP–tizimi orqali ta'minlanishi zarur;
- rejalashtirish va tahlil qilish masalalarini echishni tashkil qilish "tahlil tizimlari" orqali, ya'ni OLAP–tizimi orqali ta'minlanishi kerak;

• integratsiya qilish vazifasi hamma uchun yagona bo’lgan me’yoriy-so’rovnoma axborotlariga va elektron hujjatlar almashinuvi jarayonlariga yuklatish orqali amalga oshirilishi lozim.
Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari UzASBO dasturiy ta’minot yordamida shakllantirilmoqda
UzASBO dasturiy ta’minot yordamida Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining barcha shakllari tuziladi va g’aznachilik bo’linmalariga elektron uzatiladi.

## 4-MAVZU. G’AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

**REJA:**

1. Davlat budjeti ijrosi bo’yicha natijalarni aniqlash tartibi.
2. Davlat budjeti ijrosi bo’yicha joriy hisobvaraqlarni yopish.
3. Davlat budjeti ijrosi bo’yicha davriy hisobotlarni shakllantirish.

### 1. Davlat budjeti ijrosi bo’yicha natijalarni aniqlash tartibi

Budjet yilining oxirida, yillik hisobot tuzilishidan oldin moliya organining buxgalteriyasi har bir balans hisobvaraqlaridagi ma’lumotlarning hakqoniyligini, budjet ssudalari bo’yicha hisob-kitoblar va budjetlar o’rtasida o’zaro hisob-kitoblarning holatini tekshiradi. Boshqa budjetlar bilan o’zaro hisob-kitoblar va olingan va berilgan ssudalar bo’yicha hisob-kitoblar yil ohirigacha, qo’shimcha davrdagi operatsiyalarni qo’shib hisoblaganda tugatilishi lozim, yangi yil boshiga hisob-kitoblar hisobvaraqlarida qoldiqlar bo’lmasligi kerak. Yil yakuni bo’yicha budjetlar ijrosi bilan bog’liq buxgalteriya operatsiyalari yopish bo’yicha yakunlash operatsiyalari amalga oshiriladi

Moliya yili yakuni bo’yicha budjet ijrosi natijalarini aniqlash jarayonida buxgalteriya ma’lumotnomalari rasmiylashtirilib memorial orderlarga buxgalteriya yozuvlari berilib o’tkaziladi. Memorial orderdagi yozuvlar Bosh-jurnal kitobiga o’tkaziladi ( 1-chizma ).



**1 – chizma. Davlat jamg'armalari budjet ijrosi natijalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirishning sxematik ko'rinishi.**

Davlat budjeti ijrosi natijalari hisobi 09 "Natijalar" nomli hisobvaraqda yuritiladi. Ya'ni

| | |
|---|---|
| 094 | Quyi budjetning(ga) yuqori budjetga(ning) o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorligi |
| 096 | Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar budjeti ijrosining natijalari |

**2. Davlat budjeti ijrosi bo'yicha joriy hisobvaraqlarni yopish.**

"Budjet ijrosining natijalari" nomli 090-sonli hisobvaraq budjetlarning ijro etish natijalarini aniqlash uchun mo'ljallangan.

094-sonli hisobvaraq "Quyi budjetning(ga), yuqori budjetlarga(ning) o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorligi" hisobot yili yakuni bo'yicha quyi tumanlar (shaharlar) budjetlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjetlari o'rtasidagi moliya yili oxirigacha qaytarilmagan hisob-kitoblar miqdorlarini aniqlash, shuningdek keyingi moliya yilida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalar uchun mo'ljallangan.

**Buxgalteriya o'tkazmalari matritsasi :**

| № | Muomalalar mazmuni | Dt | Kt | Asos bo'luvchi |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | hujjat |
| 1. | Yuqori budjetlardan quyi budjetlarga o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorlik summalarini o'tkazish yangi moliya yilida ushbu provodka bilan aks ettiriladi | 094 | 011 | To'lov hujjatlari ilova qilingan hisobvaraqdan ko'chirma |
| 2. | Quyi budjetlarning yuqori budjet oldida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mavjud qarzdorlik summalari o'tgan yilda ushbu provodka bilan aks ettiriladi | 094 | 062 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |
| 3. | Respublika budjetining quyi budjetlar oldida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mavjud qarzdorlik summalari o'tgan yilda ushbu provodka bilan aks ettiriladi | 062 | 094 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |
| 4. | Quyi budjetlardan olingan o'tgan yilgi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorlik summalari yangi moiya yilida ushbu provodka bilan aks ettiriladi | 011 | 094 | To'lov hujjatlari ilova qilingan hisobvaraqdan ko'chirma |

096-sonli hisobvaraq "Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar budjeti ijrosining natijalari" Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar budjeti ijrosining natijalari aniqlash uchun mo'ljallangan.

**Buxgalteriya o'tkazmalari matritsasi :**

| № | Muomalalar mazmuni | Dt | Kt | Asos bo'luvchi hujjat |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Moliya yili oxirigacha qaytalmagan Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalaridan Respublika budjetiga berilgan budjet ssudalarini natijalar hisobiga o'tkazish | 096 | 056 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Moliya yili oxirigacha qaytalmagan Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqa Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalariga berilgan budjet ssudalarini natijalar hisobiga o'tkazish | 096 | 057 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |
| 3. | Hisobot yilida DMJ va budjetdan tashqari boshqa jamg'armalar hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlarini natijalarga o'tkazish | 096 | 022 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |
| 4. | Hisobot yilida DMJ va budjetdan tashqari boshqa jamg'armalarga tushgan daromadlar summasini natijalarga o'tkazish | 042 | 096 | Buxgalteriya ma'lumotnomasi, m/o |

**3. Davlat budjeti ijrosi bo'yicha davriy hisobotlarni shakllantirish.**

Moliya organlari belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan shakllarda va muddatlarda Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuzadi va taqdim etadi.

Belgilangan tartibda moliya organlari budjet ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar ijrosi bo'yicha oylik hisobot shaklida budjetning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi asosiy ko'rsatkichlar beriladi. Hisobotda budjet xarajatlari ham budjet tasnifi bo'yicha aks ettirilib, unda aniqlangan reja, kassa xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar hamda bajarilishi foizda ko'rsatiladi va farqi aks ettiriladi. Ushbu hisobotda budjet davlat maqsadli jamg'armalari, boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larning hududiy g'azna schyotlaridagi, g'azna tranzit schyotlaridagi qoldiqlari aks ettiriladi.

Davlat jamg’armalari choraklik hisobotni tegishli shakllarda o’sib boruvchi yakun bo’yicha tuzadi. Davlat jamg’armalarida budjet ijrosi to’g’risidagi choraklik hisoboti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Budjet ijrosi to’g’risidagi balans;
2. Daromadlar;
3. Xarajatlar.

Budjet ijrosi to’g’risidagi balans moliya organlari tomonidan Bosh-jurnal daftari va aylanma qaydnomalar asosida tuziladi. Budjet ijrosi to’g’risidagi balansning aktiv qismi 5 - bo’limdan iborat bo’lib, pul mablag’lari, xarajatlar, berilgan ssudalar, hisob-kitoblar va o’tkazilgan mablag’lar bo’limlari tashkil etadi. Budjet ijrosi to’g’risidagi balansning passiv qismi 5 - bo’limdan iborat bo’lib, daromadlar, olingan ssudalar, hisob-kitoblar, olingan mablag’lar va natijalar bo’limlari tashkil etadi.

Bosh-jurnal daftaridagi sintetik schyotlar qoldig’i balansdagi ko’rsatkichlar bilan bir xil bo’ladi.

Budjet ijrosi to’g’risidagi choraklik hisobotning Daromadlar qismida budjet tasnifi bo’yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi.

**Daromadlar haqida hisobot**

| Daromad nomi | Bo’lim | Paragraf | Daromad turi | Reja | Bajarilishi |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |
| | | | | | |
| Jami | | | | | |

Budjet ijrosi to’g’risidagi choraklik hisobotning Xarajatlar qismida budjet tasnifi xarajatlar bo’yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Shuningdek bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

Budjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning budjet tasnifi bo'yicha kassa va xaqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi qismida xarajatlarning turlari bo'yicha, aniqlangan, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan xarajatlarkassa xarajati, haqiqiy xarajatlar, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

**Xarajatlar haqida hisobot**

| Xarajat nomi | Bo'lim | Kichik bo'lim | Bob | Aniqlangan reja | Moliyalashtirish | Bajarilishi | | qabul qilingan yuridik majburiyat | qabul qilingan moliyaviy majburiyat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | kassa | xaqiqiy | | |
| | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | |
| Jami | | | | | | | | | |

Davlat jamg'armalaritomonidan tuziladigan budjetlar ijrosi to'g'risida yillik buxgalteriya hisobotlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Budjet ijrosi to'g'risidagi balans;
2. Daromadlar;
3. Xarajatlar

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlati budjeti kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi Davlat budjeti bosh boshqarmasiga tegishli hududiy moliya organlariga quyidagi muddatda taqdim etadi

| № | Hisobot nomi | Davriyligi | Taqdim etish muddati |
|---|---|---|---|
| **Davlat budjeti Bosh boshqarmasiga taqdim etiladigan hisobotlar** | | | |
| 1. | Xududiy g'azna tarnzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar | Kunlik | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tushumi xaqida axborot | | |
| 2. | Xududiy g'azna tarnzit schyotlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar xaqida axborot | Kunlik | |
| 3. | O'zbekiston Respublikasi Respublika budjeti xarajatlari ijrosi bo'yicha hisobot | Choraklik | Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari) |
| | | Yillik | Keyingi yilning 1 fevraligacha |
| **Tegishli xududiy moliya organlariga taqdim etiladigan hisobotlar** | | | |
| 1 | Xududiy g'azna tranzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushumi xaqida axborot | Kunlik | |
| 2 | Xududiy g'azna tarnzit schyotlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar xaqida axborot | Kunlik | |
| 3 | Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxalliy budjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida hisobot | Choraklik | Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari) |
| | | Yillik | Keyingi yilning 1 fevraligacha |
| | | Choraklik | Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari) |
| | | Yillik | Keyingi yilning 1 fevraligacha |

## 5-MAVZU. G'AZNACHILIK TIZIMIDA NARXLARNI TO'G'RI SHAKLLANTIRILGANLIGI USTIDAN NAZORAT

**REJA:**

**5.1.** G'aznachilik sharoitida davlatning narxlarni boshqarish siyosati

**5.2.** G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazishning amaldagi xolati tahlili

**5.3.** G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish**.**

1. **G'aznachilik sharoitida davlatning narxlarni boshqarish siyosati**

Bozorda tovar va xizmat xarid etilgan vaqtda qancha pul to'lash kerakligini narx belgilaydi. Narx arzon bo'lsa, pul kamroq to'lanadi, narx

yuqori bo’lsa pul ko’p to’lanadi. Narx bozordagi oldi-sotdi aloqalarini ta’minlaydi. Narx bozor aloqalarining asosiy iqtisodiy vositasi bo’lib, tovar va xizmat birligini sotib olish uchun to’lanadigan pul miqdorini bildiradi. Davlatning (byudjet tashkiloti) qancha tovar sotib olishi mumkinligi, uning xarid qobiliyatini birinchidan, tovar narxi belgilasa, ikkinchidan byudjet mablag’larining miqdori belgilaydi. Tovarning qanday narxda oldi-sotdi qilinishi sotuvchi va oluvchi kelishuvi asosida belgilanadi. Sotuvchi bozorga o’z narxini taklif qiladi, xaridorning o’zining mo’ljallagan narxi mavjud. Tovar etkazib beruvchi va xaridor narxi bir-biriga mos tushganda bozor narxi paydo bo’ladi va mahsulotlar shu narx bilan sotiladi. Sotuvchi o’z narxini oshiradi, foydani ko’proq olishni belgilaydi. Xaridor narxi esa pulga sifatli va ko’p mahsulotlar olishga qaratiladi. Savdolashuv va kelishuv asosida har ikki tomon uchun ma’qul narx paydo bo’ladi. Bozor tizimidagi barcha iqtisodiy aloqalar narx vositasida amalga oshganligi uchun bozor xo’jaligining amal qilishida narx asosiy rol o’ynaydi. Narx –xo’jalik mexanizmida amal qiluvchi asosiy iqtisodiy vositadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar qiymat o’lchovi, rag’batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi. Narx – tovar qiymatining pul ko’rinishidagi ifodasidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishiga bir nechta omillar ta’sir ko’rsatadi. Bularga qiymat, talab va taklif, bozorlar kiradi. Narxlar birinchi navbatda tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Iqtisodiyotda shunday omil borki, u bozorlarning turlari, xaridor va sotuvchining xohish-ixtiyoridan qat’iy nazar, narx uchun ob’ektiv asos bo’la oladi. Shunday omil tovarnint qiymatidir. Narxning shakllanishida tovar ishlab chiqarishdan tortib, is’temolga etguncha qilingan buyumlashgan va jonli mehnat sarflari ishtirok etadi, ishlab chiqarish va tijorat mehnat sarflari ishtirok etadi. Bunda ishlab chiqarish va tijorat xarajatlari kiradi, jamiki xarajatlar narx tarkibiga kiradi. “Narx –xo’jalik mexanizmida amal qiluvchi asosiy iqtisodiy vositadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar qiymat o’lchovi, rag’batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi. Narx – tovar qiymatining pul ko’rinishidagi ifodasidir. Vatanimiz iqtisodchilardan N.Beknozovning fikricha, “bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishiga bir nechta omillar ta’sir ko’rsatadi. Bularga qiymat, talab va taklif, bozorlar kiradi. Narxlar birinchi navbatda tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Iqtisodiyotda shunday omil borki, u bozorlarning turlari, xaridor va sotuvchining xohish-ixtiyoridan qat’iy nazar, narx uchun ob’ektiv asos bo’la oladi. Shunday omil tovarnint qiymatidir. Narxning shakllanishida tovar ishlab chiqarishdan tortib, is’temolga etguncha qilingan buyumlashgan va jonli mehnat sarflari ishtirok etadi, ishlab

chiqarish va tijorat mehnat sarflari ishtirok etadi. Bunda ishlab chiqarish va tijorat xarajatlari kiradi, jamiki xarajatlar narx tarkibiga kiradi».

Davlat budjetining g'aznachilik ijrosi sharoitida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning eng asosiy mexanizmlaridan biri bu narx-navo monitoringini joriy etish hisoblanadi. Bizning respublikamizda g'aznachilik tizimi joriy etilishi munosabati bilan byudjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlari vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati tug'ildi va bu narxlar monitoringi orqali amalga oshirilmoqda.

Bunda budjet tashkiloti sotib olmoqchi bo'lgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil etkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Muqobil etkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Masalan, tovar xom-ashyo birjalari, bozorlardan ma'lumotnomalar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflarini olish, ommaviy axborot vositalari va ihtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin. Har bir shartnomaga bir nechta (eng kamida 3 ta) etkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir etkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to'g'risidagi ma'lumotlari) aniq ko'rsatilishi, etkazib beruvchilar shu sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo'lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo'lishi tavsiya etiladi. O'zbekistonda ishlab chiqariluvchi mahsulot vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi mahsulot esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o'sishining oldini oladi. Moliya organlarida narxlar monitoringini tashkil etishning huquqiy asosi bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini

o'tkazish to'g'risidagi Nizom" bo'lib hisoblanadi. Mazkur Nizom davlat byudjeti, davlat byudjetida konsolidatsiyalashuvchi davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari mablag'lari, Hukumat kafolati bo'yicha olingan xorijiy kreditlar, Jahon banki guruhi, ETTB, OTB, Xalqaro hamkorlik Yapon banki, "KFW" banki kabi xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag'lari evaziga import qilingan yoki O'zbekiston respublikasida ishlab chiqarilgan xom ashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo'yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa yoki xorijiy grantlar va kreditlar taqdim etilishida boshqacha shartlar belgilangan bo'lsa, bunday hollarda mazkur Nizom tartibi qo'llanilmaydi Bitta kontrakt bo'yicha

100 ming AQSh dollari ekvivalentidan ko'proq summaga tovar etkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) rejalashtirilganda tender savdolari o'tkaziladi. Bundan kam summadagi kontraktlar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan quyidagi tartibda tuziladi: • oziq-ovqat mahsulotlari byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan sotib olinganda, moliya Vazirligining 2007 yil 9 apreldagi 798-sonli buyrug'i asosida narxlar monitoringi; • G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari monitoringi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan; • byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan narxlardan yuqori bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi. Belgilangan tartibga ko'ra, byudjetdan mablag' oluvchilar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar, shuningdek shartnomalarga byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan tegishli rejali byudjet mablag'lari doirasidagina ko'shimcha va o'zgartirishlar kiritadilar. Byudjetdan mablag' oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalar tegishli moliya organlarida majburiy ro'yxatdan o'tkazilib, ularga tegishli raqamlar berilishi va ro'yxatdan o'tkazish sanasi ko'rsatilishi kerak. Davlat tovarlar va xizmatlarning narxini bevosita va bilvosita aralashish uslublari bilan boshqaradi. "Narxni shakllantirish jarayonida davlat quyidagi usullar bilan iqtisodiyotga aralishishi mumkin2:  narxni muzlatib qo'yish (iqtisodiyotni rivojlantirishda inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishda qo'llaniladi) yoki ayrim guruhdagi mahsulotlarning narxi (ayrim mahsulotlar);  belgilangan narx va tariflarni qo'llanishi mumkin (mazkur narxlar davlat hokimiyati organlari qarori bilan belgilanadi va qattiq belgilangan tartibda amaliyotga kiritiladi);  ma'lum davrda narxning o'sishi va tushishi qattiq belgilanadi, narxning eng yuqori va eng past darajasi belgilanadi, bunday tartiblash tadbiri byudjet taqchilligi oshganda muhimdir, chunki erkin baholarning o'sishi, pirovardida, ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi;  rentabellik me'yori chegarasida narxlar belgilanadi, mahsulotga ketgan xarajatlar va foyda e'tiborga olinadi;

 maishiy-xizmat va savdo baholari va ustamalarining eng yuqori chegarasi belgilanadi;  ayrim muhim mahsulot turlariga taklif qilingan narxlar belgilanadi. Davlatning tovarlar va xizmatlarning narxini belgilash va narxni shakllantirish jarayonlari davlatning iqtisodiyotga bilvosita aralashish uslublaridan, bozorda tovarga bo'lgan taklifni oshirishga, aholining

daromadlarini oshirishga yordam beradigan vositalardan, byudjet mablag’laridan, ishlab chiqarilgan va is’temol qilinadigan tovarlarga belgilangan soliqlardan foydalanish orqali ta’minlanadi. Narx milliy yoki xalqaro valyutada ifoda etiladi. Kelishilgan narxning paydo bo’lishiga kelishuvda katnashuvchi tomonlarga umuman bog’liq bo’lmagan holda, (mahsulotning xususiyati, raqobatbardoshligi, bozorda talab va taklifning nisbati, mamlakatda davlat tomonidan tartiblashning xususiyatlari, bozor monopoliyasi) kabi bir qator ob’ektiv holatlar ta’sir etadi. Shuningdek, (kontragentni tanlash, bozor marketengi, shartnomani tuzilgan vaqti, joyi va shartnomani tuzish vositalari, tovar etkazib beruvchilarning tijorat bilimi va bozor kon’yunkturasidan foydalanish tajribasi va savdolashish mahorati) kabi sub’ektiv holatlarning ta’siri mavjud»

Davlatning mahsulot va tovarlarni narxini tartiblash uslubi

Narx, ustama, qo’shimachalarni chegarasini belgilash

Erkin baho va tariflarni belgilashda narxlarni shakllantirish organlarida tarif va narxlarni deklaratsiyalash

Yagona narx va tariflarni belgilash

Savdo ustamasi, rentabellik chegarasini belgilash

Davlatning tovarlar va xizmatlarning narxini belgilash va narxni shakllantirish jarayonlari davlatning iqtisodiyotga bilvosita aralashish uslublaridan, bozorda tovarga bo’lgan taklifni oshirishga, aholining daromadlarini oshirishga yordam beradigan vositalardan, byudjet mablag’laridan, ishlab chiqarilgan va is’temol qilinadigan tovarlarga belgilangan soliqlardan foydalanish orqali ta’minlanadi. Yuqoridagi rasmda davlatning mahsulot va tovarlarni narxini tartiblash uslublari berilgan. “Narx ( price ) – shartnoma asosida etkazib berilgan yoki sotilgan mahsulotning soniga (bajarilgan ishga va ko’rsatilgan xizmatga) to’lovni amalga oshirishga va moliyaviy majburiyatni bajarishga ta’sir ko’rsatadi. Narx iqtisodiyotda quyidagi funktsiyalarni bajaradi. 1. Hisob-kitob, o’lchov funktsiyasi. Mahsulot uchun sarf-xarajat, ko’rilgan foyda-zarar, bajarilgan ish hajmining hammasi ma’lum narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ularning umumiy o’lchovi pul, unda ifodalangan narx bo’lishi mumkin. Xarajat-bu har qanday narxning umumiy asosi bo’ladi, chunki xarajatsiz hech qanday mahsulot yoki xizmatni yaratib bo’lmaydi. Xarajat narx tarkibiga kiradi. Chunki tovarlar sotilgach, xarajatlar qoplanishi kerak. Narx hech bo’lmaganda xarajatni qoplashga etarli bo’lishi kerak. Shu sababli xarajat miqdori narxning quyi chegarasini tashkil etadi, narx xarajatdan past bo’lishi mumkin emas. Hisob-kitob uchun joriy va taqqoslama narxlar qo’llaniladi. Narx inflyatsiya ta’siridan holi etilgandagina, real iqtisodiy natijani ko’rsata oladi. 2. Iqtisodiy faoliyatini

rag'batlantirish funktsiyasi. Narxning o'zgarib turishi ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantiradi. Narx oshganda, agar xarajatlar o'zgartirmay qolsa foyda ko'payadi,

bu ishlab chiqaruvchilarni tovarni ko'paytirishga undaydi, chunki foydani maksimallashtirish imkoni paydo bo'ladi. Narx iste'molchini ham rag'batlantiradi. Agar narx pasaysa bu iste'molni ko'paytirishni rag'batlantiradi. 3. Iqtisodiyotni tartiblash funktsiyasi. Bu funktsiya shundan iboratki narxning o'zgarishi kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarishga undaydi. Narx qanday mahsulotlarni qancha ishlab chiqarish zarurligini belgilab beradi. Narx barometr singari bozor holatini ko'rsatib turadi. Muayyan mahsulotning narxi oshib borishga moyil bo'lsa, demak, bozortalab mahsulotlarni ko'proq chiqarish mumkin. Buning uchun esa bozordan resurslarni ko'proq xarid qilish kerak. Resurslarni turli sohalarga burish orqali narx iqtisodiyotni tartiblab turadi. Keraksiz tovarlar o'rniga kerakli bozorbop mahsulotlarni yaratishni ta'minlaydi. 4. Raqobat vositasi funktsiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarishi uchun, birbiri bilan kurashishi uchun vosita hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, xo'jalik sub'ektlarining o'zaro bellashuvidir. Raqobat qonuni - bozor tizimining shunday iqtisodiy qonuniki, unga ko'ra iqtisodiyot sub'ektlarining o'z maqsadi yo'lidagi o'zaro kurashi muqarrar bo'ladi. Bu kurash bozorga xos usullarda olib boriladi va sub'ektlarni iqtisodiy jihatdan saylanib olinishini yuzaga keltiradi. Narx g'oyat muhim iqtisodiy vosita bo'lganidan raqobat kurashida ham qo'llaniladi. Tovar etkazib beruvchilar narxni pasaytirish orqali xaridorlarni ko'paytiradilar. Erkin raqobatli bozorda narxlar turlicha bo'ladi, narxlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi xarajat, talab, taklif, raqobat kabi omillar amal qiladi. 5. Ijtimoiy himoyalash funktsiyasi. Shuni aytib o'tish kerakki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida narx ijtimoiy himoyalash funktsiyasini bajaradi. Davlat tomonidan pasaytirilgan

narxlar qo'llaniladi. O'ta muhim mahsulotlarning ba'zilari arzon narxda aholiga sotiladi. Bu mahsulotlarning haqiqiy bozor narxi o'rtasidagi farq Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Dotatsiyalangan narxlar ijtimoiy funktsiyaini bajargan holda iqtisodiy rag'batlantirish funktsiyasini bajarmay ko'yadi. O'zbekistonda iqtisodiy funktsiyalarni bajaruvchi erkin bozor narxlariga o'tildi, biroq ayrim ijtimoiy muhim mahsulotlarga dotatsiya narxlari saqlanib qoldi. 1-jadval O'zbekiston Respublikasida bozor narxlarining turlanishi

Narx turlari

Iqtisodiy mazmuni

1. Shartnoma narxi

Shartnoma narxi har ikki tomonning roziligi bilan belgilangan va ularning shartnomasida qayd etilgan narxdir. Bu narx shartnoma amal qilgan davrda odatda o'zgarmaydi, chunki u oldindan kelishilgan bo'ladi, uning buzilishi ikki tomondan birining o'z zimmasidagi majburiyatlarini bajarmaganligini bildiradi.

2. Hududiy narx

Hududiy narx unga ta'sir etuvchi omillarning ma'lum hudud doirasida amal qilishidan hosil bo'ladi. U faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'ladi.

3. Mavsumiy narx

Mavsumiy narxlar o'zgaruvchan narxlar jumlasiga kiradi. Mavsum boshida ular qimmat tursa, mavsum oxirida arzonlashadi. Masalan, qish mavsumida mevasabzovot, sut-qatiq narxi yuqori bo'ladi, yoz faslida ular arzon narxda sotiladi.

4. Ulgurji Ishlab chiqaruvchi tomonidan katta miqdordagi mahsulotlarni bir yo'la yoppasiga xarid etuvchiga narx sotilgan paytda qo'llaniladigan narxdir.Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchi uchun xarajatlarni qoplash va ma'lum miqdorda foyda ko'rishni ta'minlashi kerak. Ulgurji narxlar tovar birjalarida, savdo uylarida yoki sotuvchi bilan xaridorning bevosita munosabatlarida qo'llaniladi. 5. Chakana narx Chakana narxlar bilan is'temol tovarlari bevosita aholiga sotiladi. Chakana narxga ulgurji narx, savdo qiluvchi firmaning xarajatlari va oladigan foydasi kiradi. Chakana narxlar savdo firmasining zarar ko'rmay ishlashi, foyda ko'rishni ta'minlashi zarur. Aks xolda firmaning faoliyati o'zi uchun nafsiz ishga aylanadi. Amalda chakana narx talab va taklifga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin. 6. Milliy narx Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va mamlakatning xususiyatini eks ettiruvchi narxdir. Milliy narx raqobatning borishini, mamlakat doirasidagi sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni hisobga oladi. 7. Jahon bozori narxi Jahon bozori narxi muayyan mahsulotga ketgan internatsional sarf-xarajatlarni, mahsulotning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini, nihoyat, talab va taklif nisbatini va raqobat shiddatini hisobga oladi. Jahon narxi, albatta, milliy narxdan farqlanadi. 8. Standart narx Standart narxlar-ma'lum davr oralig'ida o'zgarmaydigan narxlardir. Shunday tovarlar borki, haridorlarning mazkur narxlarni o'zgarmasligini afzal ko'radilar. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'rifi.

9. Maxsus arzonlashtirilgan narx

Maxsus arzonlashtirilgan narx bilan mahsulotlar muxtojlarga xayr-ehson qoidasiga binoan sotiladi.

Jadvalda bozor narxlarinig turlanishi berilgan. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos narxlar tizimi mavjud. Bunda narxlarning shakllanishi o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo har xil maqsadda qo'llaniladigan narxlar yig'indisi amal qiladi. Narxning shakllanish jarayoni murakkab, uning ishtirokchilari g'oyat ko'pchilik, narxlar turli vazifalarni bajaradi, shu sababli narxlarning turlari ko'p. Narxlarni turlarga ajratish mezoni – bu narxning shakllantirish mexanizmi, uning amal qilish sohalari va narxni qo'llashdan kutilgan maqsadlar hisoblanadi. Davlat xaridi mexanizmi orqali quyidalarga erishish mumkin:  raqobat muhitini saqlash va bozorlarni rivojlantirishni ta'minlash;  ayrim mintaqalarni yoki aholining ayrim guruhlarini qo'llabquvvatlash;  bozorda barcha xo'jalik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash (milliy ishlab chiqaruvchilar, xususiy biznes ishtirokchilari va iqtisodiyotning tarmoqlari, masalan, qishloq xo'jaligi). Shuni aytib o'tish kerakki, davlat xaridlari nafaqat davlat boshqaruv organlari faoliyatini ta'minlash vazifalarini bajaradi, shu bilan birga narxlar davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning puxta va samarali vositasi hisoblanadi.

## 2. G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazishning amaldagi xolati tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli Qarori davlat byudjetida jamlanadigan maksadli jamg'armalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini berdi. Tender savdolarini tashkil etilishi davlat xaridida tanlash imkoniyatini beradi. Tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan ortik bo'lgan kontrakt bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda ushbu mikdordan kam bo'lsa eng yaxshi tanlov taklifni tanlab olish asosida amalga oshiriladi. Tender savdolarini tashkil etilishidan 30 kun oldin matbuot nashrlarida tender savdolarini o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon chop etiladi. Tender savdolari jarayoni qonun buzilishi holatlari bo'lishi mumkin, buning oldini olish maqsadida manopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan keng mikyosli tadbirlar ishlab chiqilmokda. Tender savdolari tashkil etilishi bo'yicha ochik va yopik tender turlariga bo'linadi. Ochik tenderda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Yopik tenderda istisno xollarda Vazirlar Maxkamasining tegishli komlekslari bilan kelishilgan holda buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi. Tender savdolarida tender komissiyasi a'zolari soni toq bo'ladi, uning tarkibi quyidagilardan iborat. 1. Xizmat

ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari. 2. Buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari.

3. Tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

4. Buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari ishtirok etadilar, ularning soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak. Mustaqillikning dastlabki yillaridan davlat mulkining bosqichmabosqich xususiylashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki yillarda maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari xususiylashtirgan bo'lsa, keyingi yillarda zarar ko'rib faoliyat yuritayotgan korxonalarning xususiylashtirish bo'yicha davlat tomonidan samarali loyihalar ishlab chiqildi. Xususiylashtirish jarayonida davlat ob'ektlarini chet el investorlariga tender savdolari orqali sotishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat ob'ektlarini xususiylashtirishda yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologiyani asrab-avaylash muxim vazifa qilib belgilandi. Tender savdolari natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni kiritgan Janubiy Koreya, Rossiya, AQSh va Evropa Ittifoqi mamlakatlari investorlari yurtimizda faoliyat yuritmoqda. Davlat ob'ektlarining katta qismi tender savdolari orqali xususiylashtirildi. Hozirgi kunda moliya tizimida tenderlar o'tkazish orqali narxlar monitoringini tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Xorijiy kreditlar va grantlar mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot etkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot etkazib berishga kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb qilish, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari tashkil etish va o'tkazish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi "Tender savdolarini tashkil etishni takomillalashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli Qarori narxlar monitoringini amalga oshirishda asosiy qonun hujjati bo'lib hisoblanadi. "Respublikamizda 2000 yil 1 dekabrdan boshlab Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari, shuningdek, Hukumat kafolati ostida xalqaro va xorijiy moliya muassasalari, shu jumladan Jahon banki guruhi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki, va boshqalar tomonidan beriladigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan va bitta kontrakt bo'yicha qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bo'lgan import va mamlakatimizdagi xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi»4. Xorijiy etkazib beruvchilar bilan tuziladigan tender kontraktlari

bo'yicha yuklar tashilishini ta'minlaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari tender asosida tanlanadi. Agar Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va xorijiy grantlar berish shartlarida tovarlarni xarid qilishning boshqacha tartibi belgilangan bo'lsa, shuningdek, xaridlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa tenderlar o'tkazilmaydi. Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Byudjetdan mablag' oluvchilar tovarlar, ishlar, xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishda ushbu Nizomga amal qiladilar. Tender savdolarida tenderlar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (etkazib beruvchilari) uchun

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi "Tender savdolarini tashkil etishni takomillalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi Hukumati Qarorlari to'plami. 2000 y. 11-son, 72-modda.

ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish hisoblanadi. Tender savdolari jarayonida qonun buzilish holatlari ko'zga tashlanmoqda. Buning oldini olish maqsadida "Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat ko'mitasi" tomonidan keng miqyosli tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda ko'plab fermer xo'jaliklari mahsulot etishtirish bilan birgalikda xom ashyoni qayta ishlash, tayyorlash, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq kabi qo'shimcha faoliyat turlari bilan ham shug'ullanadi. Bu qishloqdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda boshqa sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer va dehqon xo'jaliklaridan xom ashyo sotib olinib qishloq hududlarida qayta ishlash va tayyor mahsulot sotish shoxobchalarining ochilishi, boshqa sohalar daromadini qishloq xo'jaligini rivojlantirish, jumladan, yangi texnika vositalari, asbob-uskunalar, ilg'or texnologiyalarni xarid qilishga yo'naltirish iqtisodiy masalalarni hal etishga hissa qo'shadi. Respublikamizda g'aznachilik tizimi sharoitida davlat xaridi jarayonlarida byudjetdan mablag' oluvchilarning oziq-ovqat mahsulotlarining xarid narxlarini samarali shakllantirish tartibini takomillashtirish, Davlat byudjeti g'azna ijrosida byudjet mablag'lari oluvchilarining tovar etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnoma va kontraktlarini g'aznachilikda nazorat qilish jarayonini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalarni yuklaydi. G'aznachilik tizimida davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar nazorat qilinadi. Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlari byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan sotib olinganda, Moliya Vazirligining 2007 yil 9 apreldagi 798-sonli

buyrug'i asosida narxlar monitoringi amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda g'aznachilik hududiy bo'linmalari byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari monitoringi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol maxsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib borilmoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanishga olib keladi va narxlar monitoringi juda katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Byudjetning g'azna ijrosi jarayonida narx-navo monitoringi o'ziga xos ahamiyatga ega. Byudjet mablag'larining maksadsiz sarflanishini oldini olish hamda byudjet xarajatlarining ortiqcha sarfxarajatlarini kamaytirib byudjet mablag'larini iqtisod qilish uchun mahsulotlarni vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchilarning o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriladigan tovarlar esa bevosita importerdan sotib olinishi narxlarning oshirilishining oldini oladi. Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida cheklangan byudjet mablag'lardan manzilli foydalanish Davlat byudjetini boshqarishni barcha bosqichlarining asosiy tamoyili desak mubolag'a bo'lmaydi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati, Davlat byudjeti mablag'larini maqsadli taqsimlashning doimiy moliyaviy nazorati, byudjetdan mablag' oluvchilarni majburiyatlarini samarali boshqarish muammolari, narxlar monitoringi kuchaytirish, o'z navbatida, byudjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid narxlarini samarali shakllantirishdan iborat. Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilagn vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor karatilmokda va narxlar monitoringi asosida davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa sub''ektlarbilan davlat xaridi jarayonining mexanizmini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Iqtisodiyotning modernizatsiyalash va yangilash sharoitida byudjet tizimini ham muntazam takomillashtirib borish taqozo etiladi. G'aznachilikda dastlabki nazorat moliya operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin o'tkaziladi, shuning uchun ogohlantiruvchi xususiyatga egadir. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy-moliyaviy xatolar, xo'jasizlik va qonunbuzarliklar natijasida yuzaga keladigan zararlar, ziyonlar va yo'qotishlar ko'payishi mumkin emas. Ularni imkon qadar kamaytirish uchun moliyaviy rejalarni ko'rib chiqish va davlat

xarid tizimi bosqichlarida narxlarni oshirish bilan bo'ladigan noqonuniy harakatlar, kamchiliklar va tartib buzarliklarning oldini olish zarur.

### 3. **G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish**.

Davlat byudjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Bu borada Moliya vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan G'aznachilik tuzilmasining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasida byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni»5 amalga oshirilmoqda. Byudjet tashkilotilarida xarid faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilish uchun maxsulotlar (xizmatlar ishlar) xarid qilish jarayoniga komleks yondoshuv zarur. Quyidagi rasmda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish jarayonining asosiy yo'nalishlari berilgan. 1. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishni rejalashtirish. Birinchi navbatda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan talab asoslanadi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan va o'ta muhim mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga aniqlanadi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni samarali ishlatishning indikatorlar tizimini yaratiladi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni rejalashtirishdagi qarorlar qabul qilishning tashkiliy sxemasi ishlab chiqiladi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning ustuvorlari aniqlanadi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan talab va xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) uchun (to'lov) moliyalashtirish manbalarning mavjudligi doimo nazorat qilinadi. 2. Xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini tahlil qilish. Xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini chuqur tahlil qilmasdan, xarid qilish jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas. Shuning uchun u yoki mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotib olishda xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini tahlil qilish natijalariga, mahsulotning narxi va sifatiga, tovar etkazib beruvchining moliyaviy holatiga va ishonchliligiga tayanish kerak. 3. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni xarid qilishni tashkil etish. Shubhasiz, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni xarid qilishni tashkil etish jarayoni shartnomalar tuzish va mahsulotlar etkazib berishda muhimdir. Shartnoma tuzishdan ilgari mavjud takliflarni chuqur o'rganish va ularni baholash kerak. Baholash asosida ular ichidan eng yaxshi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchini tanlash kerak. Buning uchun eng yaxshi etkazib beruvchini tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilishning tashkiliy sxemasi ishlab chiqiladi. 4. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berishni nazorat qilish. Bu jarayon davlat xaridida juda muhimdir. Etkazib berilgan mahsulotning soni, uning sifati, etkazib berilgan

vaqti, shuningdek, etkazib berilgan mahsulot to'g'risidagi hujjatni nazorati davlat xarid jarayonining yakuniy bosqichidir. Endi byudjet tashkiloti o'zi etkazib berilgan mahsulotlarning nazoratini, hisob-kitobini to'g'ri amalga oshirishi hamda mahsulotlarni saqlash va ishlatishni to'g'ri tashkil qilishi kerak.

## 6-MAVZU. G'AZNACHILIKDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETILISHI

**REJA:**

**6.1.** Davlat xaridi to'g'risida tushuncha. Uning ob'ektlari va sub'ektlari

**6.2.** O'zbekiston Respublikasida davlat xaridi tizimini isloh qilish. Davlat xaridlarini amalga oshirishda G'aznachilikning o'rni

**6.3.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

**6.4.** O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlari va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

### 6.1. Davlat xaridi to'g'risida tushuncha. Uning ob'ektlari va sub'ektlari

**Ma'lumki, davlat sektorining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga ega. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur bo'ladi. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.**

***Davlat xaridlari* – bu davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarga aytiladi, ya'ni davlat xaridi davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olinishidir. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida "*davlat xaridlari* – byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish" deb ta'rif berilgan.**

**Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarga quyidagilar kiradi:**

***tovarlarga* – xom-ashyo, materiallar, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatidagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni etkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori**

bo'lmasa) kiritiladi;

*ishlarga* – qurilish, ta'mirlash, bino, inshoot va ob'ektlarni qurish yoki ta'mirlash bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, gruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, qurilish-montaj ishlari uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya, burg'ulash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali sur'atga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ishlar bahosidan yuqori bo'lmasa)) kiradi;

*xizmatlarga* – tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti kiritiladi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismga ajratish mumkin[13]:

- iqtisodiy infratuzilma (transport, aloqa, kommunal xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

- ijtimoiy infratuzilma (maktablar, kasalxonalar, kutubxonalar yoki boshqacha aytganda, jamiyat a'zolarining kundalik hayoti, ijtimoiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalar uchun davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va u mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi[14]. Davlat xaridi YaIMning shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuni inobatga olib, davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etiladi. Jumladan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etishi mumkin;

- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablariga tenglashtirish orqali milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etishi mumkin;

- ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda faqatgina mamlakat darajasida davlat xiridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni oqilona rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini

---

[13] Burxonov U. Davlat xaridi. T.: "nfoCOM.UZ". 2010. 10-bet.

[14] O problemax upravleniya gosudarstvennimi zakupkami v Respublike Uzbekistan i napravleniyax sovershenstvovaniya. Analiticheskaya zapiska. UNDP. Tashkent-2008. 3-str.

to'g'ri baholash orqali erishish mumkin.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentlaridan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimidagi islohotlar nafaqat o'quv binolari sonining ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000 yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lsalar, hozir ular qurilish-montaj ishlari va loyihalarning turli-tumanligi va sifati bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qila oladilar. Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital qurilish sohasiga davlat buyurtmasi aholi bandligini oshirishda ham muhim o'rin egallaydi. Xuddi shunday misollarni sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha ko'plab keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida *davlat xaridining sub'ektlari* bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Davlat buyurtmachilari – byudjetdan mablag' oluvchilar va byudjet hamda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini taqsimlovchilar:

- byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar;
- davlat maqsadli jamg'armalari ning ijroiya direktsiyalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar hokimliklari va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;
- hukumat kafolati ostida xalqaro grant yoki qarz kreditlar olgan hamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;
- davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari.

2. Tashqi nazorat organlari – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
3. Hukumat – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
4. Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari – nazoratni tashkil etuvchi organlar:

- Moliya vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;
- Davarxitekqurilish tashkiloti.

5. Tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar – tovarlar (xizmatlar, ishlar) etkazib beruvchi xo'jalik sub'ektlari.
6. Xaridni amalga oshirish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:

- xizmat ko'rsatuvchi banklar;
- birjalar;
- transport-ekspeditorlik kompaniyalari;
- maslahat, ekspertiza va boshqa tashkilotlar;
- amaldagi qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

### 6.2. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridi tizimini isloh qilish. Davlat xaridlarini amalga oshirishda G'aznachilikning o'rni

**Dunyodagi ko'plab mamlakatlar singari, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridi tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini ochiq-oydinligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.**

**Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida "…kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xom-ashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. 2011 yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqish va amalda qo'llash, kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari topshiriladi"[15]- deya ta'kidlaganlar.**

**Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish ham ko'zda tutilgan.**

**Davlat xaridini tashkil etish bo'yicha mutlaqo yangi tamoyillarga asoslangan tizim shakllantirilmoqda va tabiiy ravishda, bu sohada o'z echimini kutayotgan qator muammolarni ko'rsatish mumkin, jumladan:**

**– davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi respublika miqyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi;**

**– me'yoriy-huquqiy bazaning etarli darajada rivojlanmaganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari to'g'risida qonun qabul qilinmaganligi;**

**– davlat xaridini amalga oshiruvchi va uning nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarning etishmasligi;**

**– xarid tizimining hamda uning mexanizmlarining ochiq-oydin emasligi va boshqalar.**

**Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo'llanilishi, kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron**

---

**[15] Prezident I.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi., Xalq so'zi., 2011 yil 22 yanvar, №16 (5183)., 3-bet, 5-ustun, 8-xat boshi.**

**tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.**

**Davlat xaridi tizimini isloh etish kompleks yondashuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli davlat organlarining hamkorlikdagi harakatini yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni to'g'ri taqsimlash, tizimda kuchlar nisbati tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.**

**Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi borasida qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining malaka darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.**

**O'zbekiston Respublikasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda qatnashuvchi boshqa sub'ektlar ishtirokida davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.**

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bugungi kunda byudjet islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi etib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilandi.

Qarorga ko'ra, *Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining asosiy vazifalari* va faoliyat yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat:

– tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat byudjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'larining maqsadli va ratsional ishlatilishi, shuningdek davlat xaridlari sohasida qonun hujjatlariga rioya qilish ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

– davlat xaridlari samaradorligi ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish, ularni takomillashtirish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqish va qabul qilish;

– davlat xaridlari jarayoniga kichik biznes sub'ektlarini faol va keng qo'lamda jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

– tender (konkurs) va birja savdolarida ishtirok etuvchi barcha sub'ektlar vakillarining malakasini oshirishga imkon yaratish, umumqabul qilingan xalqaro norma va standartlarni joriy qilish.

Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi etib tayinlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi *G'aznachiligining asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat[16]:

– davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxlarni shakllantirish jarayonini nazorat qilish;

– Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining qonun hujjatlari bilan uning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha materiallarini va qarorlari loyihalarini tayyorlash;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan Hukumat komissiyasi qarorlari bajarilishini nazorat qilish;

– davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda qatnashish.

## 6.3. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish**

2010 yilda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2011 yilga ustuvor yo'nalishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov belgilab o'tdiki: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit olish, xom-ashyo resurslariga, shuningdek davlat xaridlari tizimiga keng yo'l ochib berishli zarur"[17].

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun qonunchilik asoslarini yaratish maqsadida 2011 yilning 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu me'yoriy hujjat bilan, maxsus kvotalar ajratish hisobiga davlat xaridlarini olishga qatnashish uchun kichik biznesga yo'l ochishni amalda ta'minlash imkonini beruvchi aniq mexanizm paydo bo'ldi. Bundan tashqari, u mahsulot, ish va xizmatlarga davlat buyurtmalarini iqtisodiyotning mazkur sektori korxonalari o'rtasida joylashtirishning oshkora elektron tizimini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi. Shuningdek, Qarorning joriy qilinishi respublika byudjeti hamda mahalliy byudjetlar mablag'laridan samarali foydalanish va tovar bozorlarida sof raqobatni rivojlanishga imkon yaratadi.

Ta'kidlash lozimki, qaror nafaqat kichik biznes sub'ektlarini davlat xaridlariga yo'l ochishni, balki ularga ustuvorlikni ham belgilaydi. Bunda, Qaror talabi bo'yicha davlat xaridlari bo'yicha tenderlar o'tkazilganda kichik biznes

---

[16] Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi to'g'risida Nizom. O'zR VMning "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2011 yil 1 aprel, 100-son. 1-ilova

[17] I.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston. 2011 y.

sub'ektlariga, sharoitlar teng bo'lgan boshqa hollarda, ustunlik beriladi hamda uchta ishtirokchidan kam bo'lgan holda, konkurs takliflari tanlovini o'tkazish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

2011 yil 1 apreldan ushbu tartib amaliyotga tadbiq qilindi va davlat xaridlari bo'yicha tenderlar o'tkazilganda, sharoitlar teng bo'lgan boshqa hollarda, ustunlik tadbirkorlik sub'ektlarining ushbu toifasiga beriladi. Bundan tashqari, davlat byudjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, qiymati 500 mln. so'mgacha bo'lgan ob'ektlar bo'yicha qurilish va rekonstruktsiya ishlarini bajarish uchun pudratchi tashkilotlar tanlovi faqat kichik biznes sub'ektlari o'rtasida amalga oshiriladi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat byudjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'larining maqsadli va oqilona ishlatilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, ushbu sohadagi qonun hujjatlariga rioya qilishdan tashqari, hukumat Komissiyasiga, juda muhim, davlat xaridlari jarayoniga kichik biznes sub'ektlarini faol va keng miqyosda jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish vazifasi ham yuklatilgan.

Qaror nafaqat kichik biznes sub'ektlarini davlat xaridlariga yo'l ochishni, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatini kengroq qo'llab-quvvatlashni ham ko'zda tutadi, buning uchun O'zbekiston tovar xom-ashyo birjasi qoshida maxsus Mahsulotni sotishni rivojlantirish markazini tashkil qilish rejalashtirildi.

Yana ahamiyatga ega bo'lgan jihat, bunda kichik biznes sub'ektlari o'tkazilayotgan tenderlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni olishlari mumkin. Ya'ni yuqoridagi qarorga asosan, markazlashtirilgan mablag'lar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshiruvchi barcha tashkilotlar ko'zlanayotgan xaridlar bo'yicha e'lonlarni, zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchini aniqlash kunidan 30 kun oldin, maxsus axborot portalida joylashtirishlari lozim. Mazkur portal Mahsulotni sotishga ko'maklashishni rivojlantirish markazida tashkil qilinadi.

Davlat xaridlarining o'zi O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil qilinadigan elektron savdolar orqali amalga oshiriladi. Ularga barcha manfaatdor tomonlarning qatnashishiga yo'l ochishni ta'minlash uchun har bir tuman bo'yicha kichik biznes sub'ektlari hamda byudjetdan mablag' oluvchilar uchun eng qulay joylarda savdo maydonchalari va brokerlik kontoralari tizimi tashkil qilinadi.

Shuningdek, konkurs savdolarini o'tkazishning o'zi muntazam ravishda nazorat qilinadi. Buning uchun Moliya vazirligi Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi tarkibida Tender (tanlov) savdolari o'tkazilishi bo'yicha maxsus nazorat bo'limi tashkil qilinadi. Tender (tanlov) qatnashchilari o'rtasida korruptsion aloqalar, til biriktirishlar, soxtalashtirishlar mavjudligi hamda soxta tender (tanlov) savdolari o'tkazilganlik alomatlari aniqlangan hollarda, mazkur Bo'lim o'rnatilgan tartibda ushbu savdolarni bekor qilish bo'yicha tegishli choralarni ko'radi.

Bunda, qarorga asosan, o'zining quyi tashkilotlari uchun markazlashtirilgan xaridlarni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruv organlari rahbarlariga davlat xaridlarini tashkil qilish va amalga oshirish

samaradorligi hamda yuqorida nomi keltirilgan Qaror talablari ijrosini ta’minlanishi uchun shaxsan javobgarlik yuklatiladi.

Qarorga muvofiq joriy etilgan yangi normalar nafaqat kichik biznes sub’ektlarini Davlat xaridlari tizimiga keng jalb qilinishini, balki respublikamizda yanada takomillashgan hamda umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ham to’liq javob beradigan tizimning yaratilishini ta’minlaydi.

G’aznachilik uchun davlat xaridlarini amalga oshirishni hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligini takomillashtirish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanishga e’tibor qaratish, g’aznachilik operatsiyalarining nazoratini takomillashtirish muhim vazifa etib belgilangan.

Davlat byudjeti ijrosi, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni ustidan nazoratni takomillashtirish maqsadida G’aznachilikning harakatlari birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining byudjet va shartnomaviy intizom darajasini oshirishga yo’naltirilishi, byudjet tashkilotlarining ta’minotchi tashkilotlar bilan shartnomalarini G’aznachilik tomonidan ro’yxatga olinishi bu byudjet tashkilotlarining to’lashga qodirligi davlat tomonidan tasdiqlanadi va ta’minotchi tashkilot uchun byudjet tashkiloti tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda, davlat tomonidan to’lov kafolati beriladi.

### 6.4. **O’zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirish mexanizmlari va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish**.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo’yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi. Hukumat komissiyasiga O’zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolarda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo’yicha tovarlar ro’yxatini aniqlash hamda kichik biznes sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo’yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhiga o’rnatilgan minimal ulushlar (kvota) miqdorini belgilab borish va boshqa vazifalar topshirilgan.

Byudjetdan mablag’ oluvchilar O’zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolarda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo’yicha tovarlar ro’yxati, kichik biznes sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo’yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhi va ularga o’rnatilgan minimal ulushlar (kvota) miqdori to’g’risida maxsus tasdiqlangan jamlanma jadvalga muvofiq xarajatlarni amalga oshirishlari talab qilinadi. Byudjetdan mablag’ oluvchilar 2011yilning 1 aprelidan boshlab yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan markazlashgan mablag’lar hisobiga davlat ehtiyojlari uchun to’liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo’yicha tovarlar (ish, xizmat) guruhiga (PQ-1475-sonli qarorning 3-ilovasi) muvofiq faqatgina kichik biznes sub’ektlari bilan shartnomalar imzolashlari mumkin.

Shuningdek, byudjetdan mablag' oluvchilar 2011 yilning 1 aprelidan boshlab Hukumat komissiyasining 2011 yil 15 fevraldagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasining[18] 2- ilovasiga muvofiq kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan tovar(ish, xizmat)lar bo'yicha davlat xaridlarini ularga o'rnatilgan eng kam ulushlar (kvota) miqdorlaridan kam bo'lmagan tarzda kichik biznes sub'ektlari orqali amalga oshirishlari lozim.

Byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga savdo o'tkazish yoki elektron savdo o'tkazish to'g'risida e'lonlarni joylashtirishda, e'lon shartida faqatgina kichik biznes sub'ekti qatnashishi mumkinligini ko'rsatib o'tishlari lozim. Bunda, portalning axborot bazasida tegishli ma'lumotlar bo'lmagan hollarda, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar byudjetdan mablag' oluvchilarga ushbu e'lonlar bo'yicha savdoda qatnashish uchun tegishli statistika yoki soliq organlari tomonidan tasdiqlangan tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchining kichik biznes sub'ektiga kirishi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim qilishlari lozim. O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi va uning hududiy bo'linmalari to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha maxsus axborot portaliga joylashtirilgan talabnomalar bo'yicha elektron savdolarda faqat kichik biznes sub'ektlari ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

G'aznachilik organlarining yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va narxlar monitoringi bo'limi xodimlari byudjetdan mablag' oluvchilar taqdim qilgan faqat to'liq (100 foiz miqdorda) kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha tuzilgan shartnomalarni "G'aznachilik" dasturiy majmuida ro'yxatga olishda tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchini kichik biznes sub'ektiga kirish yoki kirmasligini nazorat qiladi. Bunda, g'aznachilik organlarining yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va narxlar monitoringi bo'limi xodimi byudjetdan mablag' oluvchilarning yuqoridagi shartnomalarini "G'aznachilik" dasturiy majmuiga kiritishda, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchini kiritishda, uning kichik biznes sub'ektiga kirishini ushbu dasturiy majmuada ko'rgandan so'ng oxirigacha rasmiylashtiradilar. Aks holda, ushbu shartnomalarni g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchiga ro'yxatdan o'tkazilmasdan qaytariladi. Shuningdek, byudjetdan mablag' oluvchilar kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarga (ish, xizmat) o'rnatilgan eng kam ulushlarga (kvota) muvofiq xarajatlarni amalga oshirishlarini monitoring qilib boradi.

*Byudjetdan mablag' oluvchilarning elektron savdolarda ishtirok etishi tartibi.* Moliya vazirligi G'aznachiligi va O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining ma'lumotlar bazasini elektron bog'lash yo'li orqali byudjetdan mablag' oluvchilar birja tomonidan markazlashgan tartibda avtomatik tarzda buyurtmachi sifatida ro'yxatdan (akkreditatsiyadan) o'tkaziladi.

[18] elektron ko'rinishda G'aznachilikning saytida joylashtirilgan (www.treasury.uz)

Byudjetdan mablag’ oluvchilar O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil etilgan elektron savdolarga mustaqil ravishda yoki agentlar (brokerlar) orqali qatnashadi.

Byudjetdan mablag’ oluvchilar va agentlar o’rtasidagi munosabatlar ular o’rtasida tuzilgan topshiriq shartnomasiga asosan belgilanadi. Topshiriq shartnomasida quyidagi shartlar ko’zda tutilishi lozim:

1) Agentlarga xizmati uchun to’lovlar (O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi hamda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan miqdorda);

2) Birjaning vositachilik xizmati (elektron savdolarda tuzilgan bitim summasining 0,05 foizi miqdorida);

3) Savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lonlar maxsus axborot portaliga joylashtirganligi uchun to’lovlar (e’lonlar agentlar orqali maxsus axborot portaliga joylashtirilgan hollarda – O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi hamda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan miqdorda).

Shuningdek, topshiriq shartnomasida shartnoma maqsadi, hisob-kitob qilish tartibi, buyurtmachi va agentning majburiyatlari, tomonlarning javobgarligi, shartnomaning amal qilish muddati va boshqa shartlar ko’rsatiladi. Topshiriq shartnomasida summa belgilanmaydi. Byudjetdan mablag’ oluvchi va agent o’rtasida tuzilgan topshiriq shartnomalari asosiy shartnoma vazifasini o’taydi va ular Moliya vazirligi G’aznachiligi va uning hududiy bo’linmalarida ro’yxatga olinmaydi, ya’ni faqatgina ularning hisobi yuritiladi. Byudjetdan mablag’ oluvchilar agentlar bilan topshiriq shartnomasini tuzayotganda ularga rahbar va bosh hisobchining imzo namunalari kartochkalarini keyinchalik birjaning hududiy bo’linmalariga etkazish uchun taqdim qiladilar.

Birja va agentlar xizmatlariga avans to’lovlari byudjetdan mablag’ oluvchi tomonidan Moliya vazirligi G’aznachiligi va uning hududiy bo’linmalariga taqdim qilingan talabnomalar asosida aniqlanadi (birja va agentlar xizmati bo’yicha xarajatlar, tovar (ish, xizmat) olinayotgan modda bo’yicha, tegishli talabnomalarning jamlamalari asosida aks ettiriladi).

Avans to’lovini amalga oshirish uchun byudjetdan mablag’ oluvchilar “Davlat byudjeti g’azna ijrosi Qoidalari”ning 6-ilovasidan foydalanishlari lozim. Byudjetdan mablag’ oluvchilar davlat xaridlari to’g’risida o’z vaqtida e’lon qilish uchun ular tomonidan xaridlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan oydan ilgariroq xaridlar rejasini tuzishlari kerak.

Hukumat komissiyasi belgilagan, alohida tovarlar (ish, xizmat) bo’yicha O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasida tashkil etilgan elektron savdolar orqali amalga oshiriluvchi, davlat xaridlari bo’yicha xaridlar rejasi alohida bo’lishi lozim. Byudjetdan mablag’ oluvchilar elektron savdolarda qatnashish to’g’risida davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talabnomalarni maxsus axborot portaliga joylashtirishdan avval xarajatlar smetasida etarli mablag’ mavjudligini hamda g’aznachilik bo’linmalari tomonidan xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat (XAOR) berilganligini inobatga olishlari lozim. Byudjetdan mablag’ oluvchilarning bosh hisobchilari g’aznachilik bo’linmalari

tomonidan berilgan XAORni har bir davlat xaridlari bo'yicha e'lonlar va talabnomalarga to'g'ri taqsimlanishi va ishlatilishiga javobgardirlar, shu bilan birga, tayyorlangan xaridlar rejasiga muvofiq O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi maxsus axborot portaliga e'lonlarni o'zlari mustaqil yoki agentlar orqali kiritadi.

*Maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirish tartibi.* Byudjetdan mablag' oluvchilar maxsus axborot portalida (Davlatxarid.uz, Xarid.uz, Goszakupki.uz) byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotgan har bir xarid to'g'risidagi e'lonni tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilarni aniqlashdan kamida 30 kun avval joylashtirishlari lozim, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun qayta e'lon berish bundan mustasno. Bunda, byudjetdan mablag' oluvchilar joriy yilning tegishli choraklarida (g'aznachilik bo'linmalari tomonidan xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat (XAOR) berilganligini inobatga olingan holda) amalga oshirilishi rejalashtirilgan xarajatlar bo'yicha e'lonlar berishi mumkin. Etkazib beruvchilardan taklif bo'lmasligi (yoki savdolarda faqat bir nafar etkazib beruvchi qatnashishi) sababli, shuningdek etkazib beruvchilar tomonidan boshlang'ich narxdan ortiq bo'lgan narxlar taklif qilinganda, byudjetdan mablag' oluvchi hisoblangan buyurtmachi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi bo'yicha savdolar bo'lib o'tmagan deb e'tirof etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan holda takroriy savdolar o'tkazmasdan buyurtma berishga yo'l qo'yiladi.

Takroriy savdolar o'tkazmasdan oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi bo'yicha buyurtma berish to'g'risidagi qarorni kelishish uchun byudjet mablag'larini oluvchi hisoblangan buyurtmachi g'aznachilikning tegishli organlariga ko'rsatib o'tilgan davlat xaridi bilan bog'liq hujjatlarning (shu jumladan savdo bayonnomasi (tiket) kseronusxasi) nusxalarini ilova qilgan va savdolarni bo'lib o'tmagan deb e'tirof etgan holda yozma murojaatni yuboradi. Takroriy savdolar o'tkazmasdan buyurtma berish to'g'risidagi qarorni kelishish muddati g'aznachilik organlariga kelishish to'g'risidagi murojaat tushgan kundan boshlab uch ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Takroriy savdolar o'tkazmasdan etkazib beruvchi bilan kontrakt faqat ilgari maxsus elektron portalda joylashtirilgan e'londa nazarda tutilgan shartlarda ushbu buyurtma bo'yicha tuzilishi mumkin. Bunda, tuzilgan kontraktning narxi:

– savdolarda boshlang'ich narxdan past narxni taklif qilgan faqat bitta etkazib beruvchi qatnashgan hollarda yagona etkazib beruvchi – savdolar qatnashchisi narxidan;

– o'tkazilgan savdolarda etkazib beruvchilardan takliflar bo'lmagan yoki etkazib beruvchilar tomonidan taklif etilgan narxlar boshlang'ich narxlardan yuqori bo'lgan hollarda e'lon qilingan boshlang'ich narxning 10 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Savdo o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar ko'zda tutilishi kerak:

– byudjetdan mablag' oluvchining nomi va manzili;

– mablag’ bilan ta’minlanish manbai;
– tovarni etkazib berish shartlari va mo’ljallangan etkazib berishni bajarish muddatlari;
– sotib olinadigan tovarni eng yuqori narxi (elektron savdolardan tashqari hollarda - ixtiyoriy tarzda);
– savdo takliflarini qabul qilishning oxirgi muddati;
– savdo predmetining xarakteristikasi (spetsifikatsiyasi);
– tovarlarni etkazib berish joyi (manzili).

Byudjetdan mablag’ oluvchi savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lon matnini hamda savdo (ishlarni bajarish, xizmatlar ko’rsatish savdolarini o’tkazishda) maqsadi bo’yicha hujjatlarni (loyiha-smeta hujjatlari va boshqalar) maxsus axborot portaliga mustaqil ravishda joylashtirish huquqiga ega. Byudjetdan mablag’ oluvchilar savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lon matnini maxsus axborot portaliga mustaqil joylashtirish uchun O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi va uning hududiy bo’limlaridan (brokerlardan) *o’rnatilgan tartibda login va parollarni* olishlari lozim.

O’zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi tomonidan byudjetdan mablag’ oluvchilarga login va parollar berilishi hamda byudjetdan mablag’ oluvchilar tomonidan savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lonlar matni maxsus axborot portaliga joylashtirilishi bepul amalga oshiriladi.

Byudjetdan mablag’ oluvchilar savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lonlarda ayrim turdagi tovarlar bo’yicha bitta e’lon predmetida bir nechta tovarlar (ish, xizmat) ro’yxatini ko’rsatishi mumkin. Bunda, quyidagi bir nechta tovarlar bo’yicha umumlashtirilgan holda e’lon berilishi mumkin:
– kantselyariya mahsulotlari;
– oziq-ovqat mahsulotlari;
– dori-darmon vositalari (savdo o’tkazish to’g’risida e’lon berilgan hollarda);
– ta’mirlash ishlari;
– boshqa bir tipdagi tovar(ish, xizmat)lar (Hukumat komissiyasining ishchi organi bilan kelishilgan holda).

Bunda, byudjetdan mablag’ oluvchi bir nechta tovarlar (ish, xizmat) ro’yxatini e’lon ilovasida alohida ko’rsatadi.

Byudjetdan mablag’ oluvchi savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lon matnini maxsus axborot portaliga agent orqali joylashtirishi mumkin. Bunda, byudjetdan mablag’ oluvchining savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lon matni agent tomonidan maxsus axborot portaliga 1 kun ichida joylashtirilishi lozim.

Byudjetdan mablag’ oluvchining savdo o’tkazish to’g’risidagi axborot portaliga joylashtirgan e’loni bo’yicha 30 kun davomida taklif tushmasa, lekin byudjetdan mablag’ oluvchining o’zi savdo o’tkazish to’g’risidagi e’lonlarni ommaviy axborot vositalarida (ixtisoslashgan jurnallar, gazetalar) joylashtirishi yoki tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilarni pochta, telefaks va boshqacha shaklda xabardor qilish natijasida 3 ta va undan ortiq tijorat takliflari tushgan bo’lsa, u holda byudjetdan mablag’ oluvchi axborot portalida qayta e’lon

bermasdan, o'zi tanlov o'tkazishi mumkin. Elektron savdolarda qatnashadigan e'lon (talabnomalar) bundan mustasno. Byudjetdan mablag' oluvchilar g'aznachilik bo'linmalariga shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilishda (qonunchilikda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno) axborot portaliga joylashtirilgan, savdo o'tkazish to'g'risidagi e'lon kseronusxasini ilova qilgan holda taqdim qiladi.

*Elektron savdoda qatnashish to'g'risida e'lon va talabnoma.* Byudjetdan mablag' oluvchilar davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi belgilagan alohida mahsulotlar (ish, xizmat) ro'yxati bo'yicha bir shartnoma summasi *300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha* teng miqdordagi summani tashkil etgan xaridlar bo'yicha tovarlarni (ish, xizmat) O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasining *elektron savdolari orqali* sotib oladilar.

Elektron savdo o'tkazish to'g'risidagi e'lon maxsus axborot portaliga faqatgina buyurtmachining agenti orqali joylashtiriladi va ushbu e'lon o'z navbatida elektron tizimda talabnoma ko'rinishida shakllanadi. Elektron savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

– buyurtmachining nomi va manzili;
– savdolar maqsadini moliyalashtirish manbasi;
– birinchi va oxirgi savdo kuni (savdo muddati);
– savdolar maqsadining boshlang'ich narxi;
– savdolar maqsadining xarakteristikasi (savdo maqsadining spetsifikatsiyasi);
– lotning miqdori;
– tovarlarni etkazib berish muddati va sharti;
– tovarlarni etkazib berish joyi (manzili).

Byudjetdan mablag' oluvchi boshlang'ich narxni internet, maxsus gazeta va jurnallar va matbuotda chop etilgan boshqa tovar (ish, xizmat) narxlaridan hamda respublika ichki bozorlaridagi (korxona va firmalar) narxlardan foydalangan holda mustaqil belgilaydilar va elektron savdolarda qatnashish uchun maxsus axborot portalida e'lon bergan kundan boshlab 25 kun ichida O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasining hisob-kitob-kliring palatasida ikkinchi depozit xisobvaraq tarzida ochilgan shaxsiy hisobvarag'iga boshlang'ich narxning 0,05 foizi miqdorida birjaning vositachilik yig'imi sifatida avans to'lovini amalga oshiradi. Byudjetdan mablag' oluvchi to'lov topshiriqnomasining "To'lovchining nomi" ustunida g'aznachilik bo'linmasining nomi, "To'lovchining hisobraqami" ustunida – tegishli g'azna hisobvarag'i, "To'lov maqsadi" ustunida – byudjetdan mablag' oluvchining shaxsiy hisobvaraq raqami va byudjetdan mablag' oluvchining nomi, byudjet tasnifining tegishli kodi, to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlar, to'lov maqsadi, shuningdek davlat xaridlari bo'yicha savdolarda qatnashish uchun garov (zalog) summasi o'tkaziladigan *ID* (shaxsiy hisobvaraq) raqami (garov (zalog) summasi o'tkazish uchun "O'zRTXAB" OAJ hisob-kitob-kliring palatasidan olingan ID raqam) ko'rsatiladi.

Agarda byudjetdan mablag' oluvchining O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasining Hisob-kitob-kliring palatasida ikkinchi depozit

xisobvaraq tarzida ochilgan shaxsiy hisobvarag'i birja xizmatini (boshlang'ich baho hisob-kitobidan) to'lash uchun etarli mablag' bo'lmasa, byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirilgan kundan boshlab 25 kun o'tishi bilan talabnoma avtomat tarzda o'chiriladi.

Qog'oz formatdagi savdolar bayonnomasi birja yoki birjaning mintaqaviy savdo maydoni va etkazib beruvchi (uning agenti) tomonidan ikki nusxada imzolanishi kerak, ulardan biri buyurtmachiga (uning agentiga) beriladi.

Buyurtmachi va savdolarda g'olib chiqqan etkazib beruvchi savdolar bayonnomasi asosida savdolar g'olibi aniqlangan paytdan boshlab besh ish kuni mobaynida har bir lot bo'yicha alohida kontrakt tuzishi shart.

Byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan maxsus axborot portaliga (elektron savdo tizimiga) joylashtirilgan e'lon (talabnoma) bo'yicha tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar bitta yoki umuman taklif tushmagan hollarda, savdo o'tkazilmagan deb hisoblanadi va bu to'g'risida savdo bayonnomasi (tiket) nusxasini O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi yoki uning hududiy bo'limlari 1 kun ichida tegishli byudjetdan mablag' oluvchilarga yoki ularning agentlariga taqdim qiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari tizimini samarali tashkil etish davlat xaridlariga kichik biznes sub'ektlarini yanada ko'proq jalb qilish, davlat ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlarni sotib olishda maqbul narxlarni qo'llash, pirovardida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlat mablag'larining maqsadsiz ishlatilishining oldini olish, byudjet xarajatlarining samarali ijrosini ta'minlashga qaratilgan.

## 7-MAVZU. DAVLAT XARIDINI TENDER SAVDOLARI ORQALI TASHKIL ETISH

**REJA:**

7.1. Davlat xaridida tenderlarning ahamiyati, ularni tashkil etish va o'tkazish G'aznachilikda narxlar monitoringini tashkil qilish.

7.2. Elektron auksion savdolarni tashkil etish va o'tkazish

### 7.1. Davlat xaridida tenderlarning ahamiyati, ularni tashkil etish va o'tkazish G'aznachilikda narxlar monitoringini tashkil qilish.

G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu *narxlar monitoringi* orqali ta'minlanadi.

Bunda byudjet tashkiloti sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil etkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Muqobil etkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Masalan:

– tovar xom-ashyo birjalari ma’lumotlaridan foydalanish;

– bozorlardan ma’lumotnomalar olish;

– raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari olish;

– ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

Xo’jalik shartnomasini ro’yxatdan o’tkazish chog’ida har bir shartnomaga bir nechta (kamida 2 ta) etkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir etkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to’g’risidagi ma’lumotlari) aniq ko’rsatilishi, etkazib beruvchilar shu sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo’lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo’lishi tavsiya etiladi.

O’zbekistonda ishlab chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o’zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o’sishining oldini oladi.

Moliya organlarida narxlar monitoringini tashkil etishning huquqiy asosi bo’lib O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o’tkazish to’g’risidagi Nizom”[19] bo’lib hisoblanadi.

Mazkur Nizom davlat byudjeti, davlat byudjetida jamlanuvchi davlat maqsadli jamg’armalari mablag’lari, Hukumat kafolati bo’yicha olingan xorijiy kreditlar, Jahon banki guruhi, ETTB, OTB, Xalqaro hamkorlik Yapon banki, “KfW” banki kabi xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag’lari evaziga import qilingan yoki O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xom ashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo’yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmini belgilab beradi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo’lsa yoki xorijiy grantlar va kreditlar taqdim etilishida boshqacha shartlar belgilangan bo’lsa, bunday hollarda mazkur Nizom tartibi qo’llanilmaydi.

Tenderlar o’tkazishdan asosiy maqsad - xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilishga yo’naltiriladigan davlat byudjeti, davlat byudjetida jamlanadigan byudjetdan tashqari maqsadli jamg’armalar mablag’laridan, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarid qilinadigan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sifatini oshirish hisoblanadi.

---

[19] “Davlat byudjetining g’azna ijrosi” Normativ-huquqiy xujjatlar to’plami, T.: O’zbekiston. 2007.

Bitta kontrakt bo'yicha 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan ko'proq summaga tovar etkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) rejalashtirilganda tender savdolari o'tkaziladi. Bundan kam summadagi kontraktlar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi.

O'tkazish usullariga ko'ra tenderlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Tender turi harid qiluvchi tashkilot, ya'ni buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

*Ochiq tenderlarda* mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.

*Yopiq tenderlar* istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli iqtisodiyot komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari byudjet mablag'lari oluvchilari tomonidan sotib olinganda, Moliya vazirligining 2007 yil 9 apreldagi 798-sonli xati asosida narxlar monitoringi amalga oshiriladi.

Bunda G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilar xarid qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar monitoringi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib boriladi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya Vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi.

Kelgusida G'aznachilikda byudjet tashkilotlari tomonidan sotib olinuvchi tovarlar narxlari to'g'risida elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, uni tuzish va yangilab borishda Respublika tovar xom ashyo birjasidagi narxlar kotirovkasini, Davlat Bojxona Qo'mitasi ma'lumotlar bazasini, respublikadagi yuqori mavqega ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari ma'lumotlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

### 7.2. **Elektron auktsion savdolarni tashkil etish va o'tkazish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida" 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi 2012 yil 6 sentyabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxini pasaytirish yuzasidan elektron

auktsion savdolarni tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida qabul qilingan 260-sonli qaroriga asosan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligi va O’zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi tomonidan 2012 yil 7 sentyabrda ushbu qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan “Chora-tadbirlar rejasi” tasdiqlandi.

Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan ro’yxat bo’yicha bitta kontrakt bo’yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng bo’lgan summada tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari faqat yuqorida nomi keltirilgan Nizomga muvofiq tashkil etiladigan va o’tkaziladigan savdolar orqali amalga oshiriladi.

Bitta kontrakt bo’yicha 300 AQSh dollarigacha bo’lgan summadagi davlat xaridlari ham buyurtmachining tashabbusi bilan qonunchilikka asosan amalga oshirilishi mumkin.

Savdolarni o’tkazishda qatnashish uchun buyurtmachilar va etkazib beruvchilar savdolarning qatnashchilari sifatida akkreditatsiyadan o’tishlari, maxsus axborot portalida savdolarni o’tkazish to’g’risidagi e’lonlarini joylashtirishlari, savdolarda qatnashishini ta’minlab beradigan avans to’lovlarini to’lashlari va, shu bilan birga, birja buyurtmachilarining buyurtmanomalari (lotlari)ni shakllantirib berishi lozim bo’ladi.

Byudjetdan mablag’ oluvchilar bo’lgan buyurtmachilarni akkreditatsiya qilish birja tomonidan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G’aznachiligi va birja ma’lumotlar bazalarining o’zaro elektron aloqasi yo’li bilan avtomatik rejimda markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjetdan mablag’ oluvchi hisoblangan akkreditatsiya qilingan buyurtmachilar savdolarda birinchi marta qatnashayotganda (mustaqil yoki agentlar orqali) birjaga (keyinchalik birjaga berish uchun buyurtmachi ro’yxatdan o’tkazilgan joy bo’yicha birjaning mintaqaviy bo’linmalariga) buyurtmachining rahbari va bosh buxgalterining notarial yoki yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlangan imzolari namunalari qo’yilgan kartochkalarni taqdim etadilar.

Buyurtmachilar va etkazib beruvchilarni akkreditatsiyadan o’tkazish bepul amalga oshiriladi va muddatsiz xususiyatga ega. Tashkiliy-huquqiy shakli, nomi, manzili, bank rekvizitlari o’zgarganda yoxud akkreditatsiyaning holatiga yoki amal qilishining davom etishiga ta’sir ko’rsatadigan boshqa o’zgarishlar bo’lgan hollarda buyurtmachilar va etkazib beruvchilar besh kun muddatda birjaga (keyinchalik birjaga berish uchun buyurtmachining ro’yxatdan o’tkazilgan joyi bo’yicha birjaning mintaqaviy bo’linmasiga) tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ushbu o’zgarishlar to’g’risida yozma axborot taqdim etishlari shart. Akkreditatsiya natijalari bo’yicha birja:

– buyurtmachiga va etkazib beruvchiga berilgan foydalanuvchining yakka tartibdagi raqamiga muvofiq alohida shaxsiy hisobraqamlari ochadi. Buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning avans to'lovlari Hisob-kitob-kliring palatasining talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisobraqami doirasida ushbu shaxsiy hisobraqamlarida hisobga olinadi;

– buyurtmachilar va etkazib beruvchilarga personal kabinet tashkil etadi, unga o'tkaziladigan savdolar to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqa zarur ma'lumotlarni yuboradi.

Buyurtmachi savdolarda qatnashish uchun mustaqil ravishda yoki agent orqali maxsus axborot portaliga e'lon joylashtiradi. Zarurat bo'lganda, buyurtmachi yoki uning agenti e'lonni (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun savdolar o'tkazilishida) savdolar predmeti bo'yicha loyiha smeta hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan to'ldirishi ham mumkin.

Maxsus axborot portalida joylashtirilgan e'lon, Hisob-kitob-kliring palatasining ikkilamchi depozit hisobraqami doirasida buyurtmachining hisobraqamida uning avans to'lovi mavjud bo'lgan taqdirda, avtomatik tarzda buyurtmachining buyurtmanomasiga aylanadi.

Savdolar buyurtmachining buyurtmanomasida bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda o'tkaziladi. Agar buyurtmachining buyurtmanomasida alohida boshqacha talab ko'rsatilmagan bo'lsa, etkazib beruvchi yangi tovar etkazib berishi shart. Bunda buyurtmachining e'loni va buyurtmanomasi matniga savdolar predmetiga taalluqli bo'lmagan va etkazib beruvchilar o'rtasida raqobatni cheklovchi talablarni kiritish taqiqlanadi.

Imkoniyati yuqori etkazib beruvchilarga nisbatan cheklashlar belgilash zarur bo'lganda buyurtmachi e'longa tegishli talablarni faqat Hukumat komissiyasining ruxsati bilan kiritishi mumkin.

Buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning o'z agentlari bilan o'zaro munosabatlari, shu jumladan, agentni taqdirlash summasi ular o'rtasida tuzilgan topshiriq shartnomasi asosida belgilanadi. Bunda tovarlarning davlat xaridlari bo'yicha agentni taqdirlash summasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishgan holda birja tomonidan belgilanadigan cheklangan miqdordan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Savdolarda qatnashish uchun akkreditatsiyadan o'tgan buyurtmachilar e'lon joylashtirgunga qadar Hisob-kitob-kliring palatasining ikkilamchi depozit hisobraqami doirasida o'z shaxsiy hisobraqamlariga oldindan avans to'lovlarini o'tkazishlari shart. Avans to'lovlarisiz buyurtmachilarning buyurtmanomalari joylashtirilmagan hisoblanadi va aktivlashtirilmaydi.

Buyurtmachi tomonidan to'langan avans to'lovlari elektron tizim tomonidan savdolar g'olibi aniqlangunga qadar blokirovka qilinadi.

Akkreditatsiyadan o'tgan etkazib beruvchilar savdolarda qatnashish uchun Hisob-kitob-kliring palatasining ikkilamchi depozit hisobraqami doirasida o'z shaxsiy hisobraqamlariga avans to'lovlarini o'tkazishlari shart va etkazib beruvchi tomonidan kiritilgan avans to'lovi boshqa etkazib beruvchi tomonidan kam narx ko'rsatilgan taklif berilgunga qadar blokirovka qilinadi.

Savdolar g'olibining moliyaviy zakalati u kontraktni imzolagunga qadar blokirovka qilinadi. Savdolarni o'tkazish to'g'risidagi e'lon savdolarning g'olibini etkazib beruvchini aniqlash sanasidan kamida 30 kun oldin joylashtirilishi shart. Ro'yxati Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi bo'yicha savdolar o'tkazish to'g'risida ilgari joylashtirilgan e'lonlar bo'yicha avtomatik shakllantirilgan buyurtmanomalarda buyurtmachi tomonidan zarurat bo'lganda, savdolar tugashi sanasidan kamida 10 kun oldin savdolar predmetining boshlang'ich narxi, bozor kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda aniqlashtirilishi mumkin.

Agent tomonidan maxsus axborot portalida savdolarni o'tkazish to'g'risidagi e'lon joylashtirilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishgan holda birja tomonidan aniqlanadigan, cheklangan miqdordan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undiriladi. Savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- buyurtmachining nomi va manzili;
- savdolar predmetini moliyalashtirish manbalari;
- savdolarning birinchi va oxirgi kuni (savdolar muddati);
- savdolar predmetining boshlang'ich narxi;
- savdolar predmetining tavsifi (savdolar predmetining spetsifikatsiyasi);
- savdolar predmetini lotlar bo'yicha bo'lish va har bir lotning miqdori;
- tovarlarni etkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish muddatlari va shartlari;
- tovarlarni etkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish joyi (manzili).

Agar qonun hujjatlariga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ayrim turlarining davlat xaridlari faqat yoki ustun darajada kichik biznes sub'ektlaridan amalga oshirilishi kerak bo'lsa, savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'londa ushbu shart majburiy tartibda ko'rsatiladi.

Savdolar elektron tizimida, boshlang'ich narx bosqichma-bosqich pasaytirilgan holda o'tkaziladi. Bosqichning o'lchami birja tomonidan belgilanadi. Savdolarni o'tkazish, to'langan avans to'lovi summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha savdolarga qo'yish, savdolar g'oliblarini aniqlash, bitimlarni

ro'yxatga olish va kontraktni shakllantirish elektron tizim orqali amalga oshiriladi.

Birja elektron tizimning operatori sifatida quyidagilarni ta'minlab berishi shart:

– elektron tizimning uzluksiz ishlashini;

– savdolarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'tkazilishini;

– ushbu lot bo'yicha savdolarga qo'yilgan barcha etkazib beruvchilarning joylashish joyidan qat'i nazar, barchasiga savdolarda bir vaqtning o'zida qatnashish imkoniyati berilishini;

– savdolarni o'tkazishda va ularning natijalarini chiqarishda oshkoralik va aniq-ravshanlikni;

– akkreditatsiyadan o'tgan barcha savdolar qatnashchilarining huquqlari tengligini;

– narxi bo'yicha eng yaxshi buyurtmanomalarni aniqlash jarayonini avtomatlashtirish yo'li bilan savdolar g'oliblarini aniqlashning xolisonaligini;

– etkazib beruvchilarni ular tomonidan belgilangan miqdorda avans to'lovini to'laganlaridan keyin savdolarga qo'yish yo'li bilan ularning buyurtmanomalarini.

Savdolar davomida elektron tizim etkazib beruvchilarning berilgan buyurtmanomalaridan eng kam narxli buyurtmanomani avtomatik tarzda tanlaydi, u elektron tizimda aks ettiriladi hamda savdolarning barcha qatnashchilariga - ushbu paytdagi buyurtmachilar va etkazib beruvchilarga ma'lum bo'ladi. Savdolarda kamida ikki nafar etkazib beruvchi qatnashsa, savdolar bo'lib o'tgan deb hisoblanadi.

Agar savdolarda ikki nafardan kam etkazib beruvchi qatnashsa, savdolar bo'lib o'tmagan deb hisoblanadi, savdolar g'olibi aniqlanmaydi va savdolar 10 kunga uzaytiriladi. Savdolarni uzaytirish, buyurtmachi tomonidan yangi buyurtmanoma berish yo'li bilan, zarurat bo'lganda, boshlang'ich bahoni aniqlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Aynan bir turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha uzaytirilgan savdolar bo'lib o'tmagan deb e'lon qilingan hollarda byudjetdan mablag' oluvchilar tovar(ish,xizmat)larni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda eng yaxshi takliflarni tanlash asosida, oxirgi buyurtmanomada e'lon qilingan tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni sotib olish shartlarini o'zgartirmasdan kamida uchta xo'jalik yurituvchi sub'ektga tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni sotib olish uchun takliflar yuborish yo'li bilan xarid qilishlari mumkin.

Eng yaxshi takliflar tanloviga nohalol etkazib beruvchilar reestrida mavjud xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qo'yilmaydi.

Bunda buyurtmachilar eng yaxshi takliflar tanlovi g'olibini aniqlash vaqtida tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni sotib olish yuzasidan taklif yuborilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning maxsus axborot portalida joylashtirilgan nohalol etkazib beruvchilar reestrida yo'qligini tekshirishi va unga ishonch hosil qilishi shart.

Buyurtmachining rahbarlari etkazib beruvchini tanlashni o'tkazish tartibiga rioya qilinishi yuzasidan shaxsan javobgardirlar. Elektron tizimda amalga oshirilgan bitimlar natijalari bo'yicha yozma shaklda kontrakt rasmiylashtiriladi.

Kontrakt shakli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi bilan kelishgan holda birja tomonidan tasdiqlanadi. Birja (birjaning mintaqaviy bo'linmasi) va savdolarda g'olib chiqqan etkazib beruvchi yoki uning agenti savdolar g'olibi aniqlangan vaqtdan boshlab besh ish kuni mobaynida kontraktni imzolashi, ayni bir vaqtda uni birja (birjaning mintaqaviy bo'linmasi) tomonidan ro'yxatdan o'tkazishi shart. Buyurtmachi va etkazib beruvchining kontrakt bo'yicha huquq va majburiyatlari birja (birjaning mintaqaviy bo'linmasi) va etkazib beruvchi yoki uning agenti tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab yuzaga keladi.

Yuridik shaxs hisoblanadigan byudjetdan mablag' oluvchilar-buyurtmachilar o'zlari personal kabinetlar orqali elektron tarzda birja tomonidan yuborilgan kontraktlar nusxalarini mustaqil ravishda ko'chirib oladilar, ularni tashkilotning rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlaydilar va o'zlariga xizmat ko'rsatadigan g'aznachilik organlariga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadilar.

Byudjetdan mablag' oluvchi hisoblanmaydigan buyurtmachilar o'zlariga personal kabinet orqali elektron tarzda birja tomonidan yuborilgan kontraktlar nusxalarini mustaqil ravishda ko'chirib oladilar va zarurat bo'lganda, o'zi joylashgan hududdagi birjada (birjaning mintaqaviy bo'linmasida) tasdiqlaydilar.

Buyurtmachi kontrakt tuzishni rad etgan yoki boshqacha tarzda bosh tortgan taqdirda etkazib beruvchi kontrakt tuzishdan bosh tortish tufayli etkazilgan zararlarni qoplash talabi bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Tovarlarning davlat xaridlari bo'yicha kontrakt tuzishni buyurtmachining rad etishi yoki boshqacha tarzda bosh tortishi to'g'risidagi axborot davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzuvchi buyurtmachining mansabdor shaxslariga nisbatan chora ko'rish uchun Hukumat komissiyasiga yuboriladi.

Savdolarda g'olib chiqqan etkazib beruvchi kontrakt tuzishni rad etganda yoki uni tuzishdan boshqacha tarzda bosh tortganda uning moliyaviy zakalati, birjaning vositachilik yig'imlaridan tashqari, g'olib aniqlangan sanadan boshlab

bir hafta muddatda etkazilgan zarar uchun kompensatsiya sifatida buyurtmachining tegishli hisobraqamiga (agar buyurtmachi g'aznachilik ijrosi bilan qamrab olingan bo'lsa - byudjet mablag'lari yoki byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'ini ko'rsatgan holda yagona g'azna hisobvarag'iga, agar buyurtmachi g'aznachilik ijrosi bilan qamrab olinmagan bo'lsa - uning bankdagi talab qilib olingungacha depozit hisobraqamiga) o'tkaziladi.

Nohalol etkazib beruvchilar reestriga kiritilgan etkazib beruvchilar olti oy mobaynida savdolarda qatnashishga qo'yilmaydilar. Etkazib beruvchini nohalol etkazib beruvchilar reestriga kiritish to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

Savdolarda g'olib chiqqan etkazib beruvchi kontrakt tuzishni rad etgan yoki boshqacha tarzda bosh tortgan taqdirda buyurtmachi uchun navbatdagi eng yaxshi narxni taklif etgan etkazib beruvchi, ushbu etkazib beruvchi uni savdolar g'olibi deb e'tirof etishga va kontrakt tuzishga rozi bo'lgan taqdirda, savdolar g'olibi deb e'tirof etiladi. Savdolarning ikkinchi g'olibi bilan kontrakt davlat xaridlari masalalari bo'yicha bahslar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiya protokoli asosida tuziladi, u savdolar g'olibi aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechikmay buyurtmachiga va etkazib beruvchiga yuboriladi. Ikkinchi etkazib beruvchi bilan namunaviy kontrakt savdolarda ikkinchi etkazib beruvchi taklif qilgan narxni hisobga olgan holda birja tomonidan shakllantiriladi hamda birja (buyurtmachi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi birjaning mintaqaviy bo'linmasi) va buyurtmachi uchun navbatdagi eng yaxshi narxni taklif qilgan etkazib beruvchi yoki uning agenti tomonidan imzolanadi, buyurtmachi uchun navbatdagi eng yaxshi narxni taklif qilgan etkazib beruvchini savdolar g'olibi deb e'tirof etish to'g'risida Davlat xaridlari masalalari bo'yicha bahslar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiya qarori qabul qilingan vaqtdan boshlab besh ish kunidan kechikmay imzolanadi.

Bitim holati bo'yicha Hisob-kitob-kliring palatasi buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning avans to'lovlari summasidan har qaysi tomondan bitimning amaldagi summasidan birjaning vositachilik yig'imini undiradi. Kontraktni ro'yxatga olish uni tuzilgan kontraktlar reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tuzilgan kontraktlar reestri O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va birja ma'lumotlar bazasining elektron aloqasi yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga yuboriladi. Hisob-kitob kliring palatasi buyurtmachi va savdolarda g'olib chiqqan etkazib beruvchining avans to'lovining blokirovkadan chiqarilgan

qoldiqlarini bir ish kuni mobaynida ularning talab qilib olingungacha depozit hisobraqamlariga (shaxsiy g'azna hisobvarag'iga) o'tkazadi yoki ularning yozma bildirishnomasiga ko'ra boshqa savdolarda qatnashish uchun avans to'lovlari hisobiga qabul qiladi. Savdolarning g'olibi deb e'tirof etilmagan etkazib beruvchining avans to'lovini qaytarish u blokirovkadan chiqarilgan kundan boshlab keyingi bir ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Savdolarda qatnashuvchi buyurtmachining javobgarligi quyidagicha belgilanadi:

– savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va qonun hujjatlariga muvofiqligi;

– savdolar g'olibi bo'lgan etkazib beruvchi bilan kontrakt tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan etkazib beruvchi bilan kontrakt tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

– buyurtmachi tomonidan tovarlarning davlat xaridlarini amalga oshirishda Hukumat komissiyasining ishchi organiga yuqoridagi Nizom tomonidan belgilangan tartiblarning bajarilishi monitoringi olib borilishi uchun ishonchli axborot taqdim etilishi;

– tomonlar o'rtasidagi kontrakt majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

## 8-MAVZU. G'AZNACHILIK TIZIMIDA YURIDIK MAJBURIYATLARNI RO'YXATGA OLINISHI USTIDAN NAZORAT

**REJA:**

8.1. G'aznachilikda yuridik majburiyat tushunchasi, uning yuzaga kelishi

8.2. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish tartibi

8.3. Xo'jalik shartnomalari va ularning xususiyatlari

### 8.1. G'aznachilikda yuridik majburiyat tushunchasi, uning yuzaga kelishi

Ma'lumki, davlat moliyaviy nazoratining dastlabki, joriy va so'nggi nazorat shakllari mavjud. Agar byudjet amaliyoti nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, dastlabki byudjet nazorati turli darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, byudjet tashkilotlarining byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasini hamda

byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetasini tuzish, tasdiqlash va tegishli moliya organlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli hisoblanadi.

Joriy nazorat shakli moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag'larning ajratilishida, bevosita to'lovlarning amalga oshirilishida olib boriladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish Moliya vazirligi tizimidagi hududiy va mahalliy moliya organlari bilan bir qatorda, g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi. (Yakuniy nazorat Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarma va bo'limlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.)

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar majburiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

*Majburiyat* - bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi.

Majburiyatlarni hisobga olish tizimida quyidagi omillar asosiy o'rin egallaydi (8.1-rasm):




*8.1-rasm. Majburiyatlarni hisobga olish tizimidagi omillar*[20]

*Majburiyatlarni qabul qilishda quyidagilar asos* bo'lib xizmat qiladi:

---

[20] U.Burxonov. Davlat xaridi. T.: infoCOM.UZ. 2010. 99-bet.

– imzolangan va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan kontrakt va shartnomalar, tender savdolari asosidagi tovar va xizmatlar xaridlari bo’yicha hujjatlar, ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari sifati va boshqa xususiyatlarini tasdiqlovchi patentlar, litsenziyalar va boshqalar;

– ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to’lovlarni amalga oshirish uchun qonuniy asos bo’lib xizmat qiluvchi hujjatlar;

– jarimalar va sud qarorlariga asosan penyalar to’lovini amalga oshirish uchun asos bo’luvchi tegishli davlat vakolatli organlari qarorlari;

– byudjet dotatsiyalarini ajratish, davlat grantlari, mukofotlar bo’yicha to’lovlarni amalga oshirishga asos bo’luvchi hujjatlar.

*Majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas’ul shaxslar* – bu byudjetdan mablag’ oluvchilar va byudjet tashkilotlari rahbarlari yoki ular tomonidan vakolat berilgan boshqa mas’ul shaxslar hisoblanadi. G’aznachilikda o’rnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq, yuridik shaxs maqomiga ega bo’lgan byudjetdan mablag’ oluvchi tashkilot rahbarining buyrug’i asosida G’aznachilik bo’linmalari bilan ishlash uchun aniq xodimlar belgilanadi. G’aznachilik organlarida byudjet tashkiloti rahbari va u tomonidan mas’ul etib tayinlangan shaxslarning imzo namunalari va tashkilotning muhr izi namunalari G’aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Imzo namunalari va muhr izi kartochkalari o’rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Kartochkalarning bir nusxasi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatga oluvchi mutaxassisda, ikkinchi nusxasi xarajatlar to’lovini nazorat qiluvchi mutaxassisda saqlanadi.

G’aznachilikda ikki turdagi majburiyat amal qiladi: *yuridik majburiyat va moliyaviy majburiyat.*

*Yuridik majburiyat* byudjetdan mablag’ oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o’rtasidagi shartnoma tegishli tartibda majburiy ravishda G’aznachilikda ro’yxatdan o’tkazilganidan keyin vujudga keladi. Yuridik majburiyatlarni tegishli G’aznachilik organlarida majburiy ravishda ro’yxatga olishdan ko’zlangan asosiy maqsad - byudjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, shartnomalarda nazarda tutilgan xarajatlarning tasdiqlangan rejadan (xarajatlar smetasi ko’rsatkichlaridan) ortib ketishiga yo’l qo’ymaslik.

*Moliyaviy majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag’ oluvchilarda ularga pul mablag’larini o’tkazib berish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo’lib, ular qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to’lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvaraq-fakturalari hamda moliyaviy

majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi[21].

## 8.2. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish tartibi

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yuridik majburiyatlarni qabul qilish, ularni G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olish ishlari O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalari"[22] (16.09.2009.) bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi.

Byudjet Kodeksida: "*yuridik majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"[23] deb belgilab qo'yilgan.

Yuridik majburiyatlar byudjet tasnifining turi bo'lgan iqtisodiy tasnif kodlari bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun bu shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi (8.2-rasm).

[21] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 123-modda
[22] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 38-son, 422-modda.
[23] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda




*8.2-rasm. Byudjetdan mablag' oluvchilar shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi*[24]

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ular G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

Yuridik majburiyatni G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida majburiy tarzda ro'yxatga olinishidan maqsad - shartnomalarning to'g'ri tuzilganligi, ularning tasdiqlangan smetalar doirasida tuzilganligi, narxlar to'g'ri belgilanganligini nazorat qilishdan iborat. Bu faoliyatning to'g'ri amalga oshirilishi G'aznachilik faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi, byudjetdan mablag' oluvchilar va ularga mol etkazib beruvchilarning shartnomaviy-huquqiy munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'zlari uchun belgilangan byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan ham tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar. Byudjet Kodeksida belgilanishicha, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ijro etilishi lozim bo'lgan yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan

[24] U.Burxonov. Davlat xaridi. T.: infoCOM.UZ. 2010. 102-bet.

vazirlik va idoralarning daromadlar va xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida hisobga olish uchun qabul qilinadi.

“Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalari”[25]ga muvofiq, byudjet tizimining tegishli bo'g'inidan (respublika byudjeti, viloyat, tuman va shahar byudjetlaridan) mablag' oluvchilarning byudjet hisobidan mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek kapital qurilish buyurtmachilarining shartnomalari G'aznachilik bo'linmalarida majburiy tartibda ro'yxatga olinadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar hajmi ular xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, ajratilgan byudjet mablag'lari bilan, kapital qo'yilmalar xarajatlari bo'yicha esa – har bir ob'ekt bo'yicha o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan kapital qo'yilmalar bilan chegaralanadi.

Byudjetdan mablag' oluvchilar mahsulot etkazib beruvchilar bilan vaqtinchalik smetada nazarda tutilgan summalardan oshmagan summalarga shartnomalar tuzadilar. Byudjetdan mablag' oluvchilarning asosiy smetasi ro'yxatga olingandan so'ng, oldingi qabul qilingan yuridik majburiyatlar summasini hisobga olgan holda, oldingi shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlar tuzilishi mumkin.

Smetaning I va II guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarni to'lash uchun naqd pul olishga so'rovnomalar asosida ro'yxatga olinadi.

Byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobidan shartnomalari faqat xarajatlarni qoplashga manbaning mavjudligi to'g'risidagi tasdiqnoma va ushbu maqsadlarga ajratilgan byudjet mablag'lari (limitlari) mavjud bo'lgan xarid hajmigagina tuzilishi mumkin.

Byudjetdan mablag' oluvchilar bilan mahsulot etkazib beruvchilar (pudratchilar) o'rtasidagi shartnomalarning amal qilish muddati tegishli moliya yilining 31 dekabridan kechikmagan muddatga tuzilishi lozim, bajarish muddati bir necha yilni tashkil qilishi mumkin bo'lgan (kapital qo'yilmalarning bir necha yilga mo'ljallanganligini tasdiqlovchi manzilli ro'yxatlar asosida) kapital qo'yilmalar (kapital qurilish, rekonstruktsiya) bo'yicha shartnomalar bundan mustasno.

Manzilli ro'yxatlar asosida bir necha yil davom etadigan kapital qo'yilmalar bo'yicha yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qurilish pudratchi tashkilotiga to'lab berilishi nazarda tutilgan mablag'larning joriy moliya yili uchun to'g'ri keladigan qismi doirasida, tasdiqlangan manzilli ro'yxat asosida “G'aznachilik” dasturiy majmuida hisobga olinadi.

---

[25] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-raqam bilan 16.09.2009 y.da ro'yxatdan o'tkazilgan.

Shartnomaning qolgan summasi, ularni tegishli ob’ektlar va yillar bo’yicha manzilli va titul ro’yxatlarda aks ettirilishi sharti bilan keyingi yillarning yuridik majburiyatlarida hisobga olinadi.

Tovar(ish, xizmat)lar uchun to’lovlar mablag’larning bir nechta manbai hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan hollarda, shartnomalarda ushbu manbalar bo’yicha rekvizitlar va har bir manba hisobidan to’lanishi lozim bo’lgan summalar majburiy tartibda alohida ko’rsatiladi.

Byudjetdan mablag’ oluvchilar tovar-moddiy boyliklarni sotib olishda mahsulot etkazib beruvchilardan tegishli faoliyat turi uchun litsenziya(ruxsatnoma)sining notarial tasdiqlangan nusxasini va tegishli organlarda davlat ro’yxatiga olinganligi to’g’risidagi hujjatlarni so’rab oladilar. Ushbu hujjatlar G’aznachilik bo’linmalariga ro’yxatga olish uchun taqdim etiladigan shartnomalar bilan birga taqdim qilinadi.

Taqdim etilgan shartnomalarda yoki ularga ilovalarda tovar(ish, xizmat)lar miqdori, narxi va umumiy summasi ko’rsatilgan tafsilotli ro’yxati aks ettirilishi lozim.

*Byudjetdan mablag’ oluvchilar va mahsulot etkazib beruvchilar o’rtasida tuzilgan shartnomalar g’aznachilik bo’linmalariga quyidagi talablarga rioya qilingan holda taqdim qilinadi:*

– byudjetdan mablag’ oluvchilarning mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari majburiy tartibda ularning yuridik xizmatlari (shartnoma asosida jalb qilingan advokatlar) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligiga tekshirilgan bo’lishi zarur. Agar taqdim etilayotgan shartnomaning summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravari miqdoridan oshmasa, shartnomalarga tomonlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar imzosi qo’yiladi. Agar shartnoma summasi, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravaridan ortiq bo’lsa, tomonlar yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlarning xulosasi ilova qilinishi lozim;

– umumiy summasi 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam bo’lgan shartnomalarni mahsulot etkazib beruvchini tanlash bo’yicha o’tkazilgan eng yaxshi konkurs takliflarini tanlab olish hujjatlari ilova qilingan holda taqdim qilinadi. Bunda, konkurs takliflari tanlovini o’tkazish, mahsulot etkazib beruvchini tanlash bo’yicha kamida ikkita konkurs taklifi bo’lganda, qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari, konkurs takliflarini ko’rib chiqish asosida konkurs takliflari tanlovi bayonnomasini rasmiylashtirish asosida amalga oshiriladi;

– shartnoma summasi 100 ming AQSh dollariga teng bo’lgan miqdoridan ortiq bo’lganda, qonunchilikka muvofiq o’tkazilgan tender savdolari bo’yicha hujjatlarni shartnomaga ilova qilgan holda taqdim qilinadi;

– shartnomalar mahsulot etkazib beruvchi va buyurtmachi (byudjetdan mablag’ oluvchilar) tomonidan imzo qo’yish huquqiga ega bo’lgan shaxslar tomonidan imzolangan bo’lishi va ikki tomonning muhrlari bilan tasdiqlangan bo’lishi shart;

– buyurtmachi (byudjetdan mablag’ oluvchilar)ning rekvizitlarida, shuningdek buyurtmachi (byudjetdan mablag’ oluvchi)ning xarajatlari to’lovi amalga oshiriladigan tegishli g’azna hisobvarag’i ham ko’rsatiladi;

– shartnomani ro’yxatga olish uchun byudjetdan mablag’ oluvchi g’aznachilik bo’linmasiga shartnomaning ikki asl nusxasini va bitta ko’chirma nusxasini taqdim qiladi. Shartnomalarga 1-ilovadagi shaklga muvofiq to’lovlar jadvali ilova qilinishi hamda barcha o’rnatilgan talablarga rioya qilish shart;

– byudjetdan mablag’ oluvchilar shartnomalarni g’aznachilik bo’linmalariga ro’yxatga olish uchun ular tuzilgandan so’ng 20 ish kuni mobaynida, biroq joriy moliya yilining 25 dekabridan kechikmasdan taqdim etishlari lozim, byudjetdan mablag’ oluvchi tomonidan shartnomalar tuzilib, 20 ish kuni o’tgandan so’ng taqdim qilingan hollarda, shartnoma byudjetdan mablag’ oluvchiga G’aznachilik bo’linmasida ro’yxatga olinmasdan qaytariladi.

G’aznachilikning tegishli bo’limlari mutaxassislari muntazam ravishda juda katta hajmdagi hujjatlarni qabul qilib olib, nazoratdan o’tkazadilar. Bu G’aznachilik hodimlaridan yuqori darajadagi operativlikni, bilim, uquv va ko’nikmani talab etadi. G’aznachilik bo’linmasi byudjetdan mablag’ oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni davomida quyidagilarni tekshiradi:

– shartnomada ko’rsatilgan summani to’lash uchun byudjetdan mablag’ oluvchining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjet mablag’larining mavjudligi;

– qonunchilikka muvofiq yuridik xizmat yoki jalb qilingan advokatlarning imzolari, yuridik xulosalarining mavjudligi va haqqoniyligi;

– tomonlarning zarur bank rekvizitlari, muhri va imzolarining mavjudligi;

– tovar (ish, xizmat)larning etkazib berish jadvali, qurilish pudrat shartnomalari bo’yicha qurilish ob’ekti jadvalining mavjudligi va b.

G’aznachilik bo’linmalari shartnomalarni mas’ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asl nusxalari va ko’chirma nusxasining barcha varaqlariga “Ro’yxatga olingan” shtampini qo’yish va ro’yxatga olingan raqami va sanasi ko’rsatilib, ularni G’aznachilik bo’linmasining vakolatli shaxsi imzosi va G’aznachilik bo’linmasining muhri bilan tasdiqlash orqali ro’yxatga oladi.

Ro'yxatga olingandan so'ng, shartnomaning ikki asl nusxasi byudjetdan mablag' oluvchiga qaytariladi, ro'yxatga olingan shartnomaning ko'chirma nusxasi G'aznachilik bo'linmasida hisobga olish va saqlash uchun qoldiriladi.

Shartnomalar hisobi "G'aznachilik" dasturiy majmuida elektron tarzda byudjetdan mablag' oluvchining nomi va rekvizitlari, shuningdek shartnoma summasi, uning raqami va tuzilgan sanasi, g'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan raqami va sanasi ko'rsatilgan holda "Byudjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalarini ro'yxatga olish kitobi"da mazkur darslikning 2-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib berish to'g'risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar mustasno. Ayrim hollarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi lozim bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati tasdiqlanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 241-son qaroriga muvofiq, elektr energiyasi, mazut, ko'mir, benzin, dizel yoqilg'isi, mineral o'g'itlar, shuningdek, avia va temir yo'l chiptalari, sanatoriylar, dam olish zonalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar, barcha turdagi shahar yo'lovchi transporti yo'l kartochkalari kabilarni xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda (30 foizdan 100 foizgacha) oldindan to'lov joriy etilgan.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bo'yicha shartnomalari, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda vakolatli organlarda tegishli ekspertizadan o'tganidan va hisobga qo'yilganidan so'ng G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda shartnomalarda ko'rsatilgan summalar G'aznachilik bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisobga olinadi.

Shu bilan birga, quyidagi holatlarda byudjet mablag'larini *shartnoma tuzmasdan turib to'lashga o'tkazish amalga oshirilishi mumkin:*

– byudjet tashkilotining byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan iqtisod qilingan mablag'larini o'z byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasiga, shuningdek tibbiyot muassasasi tomonidan – xarajatlar smetasida nazarda tutilgan maqsadli byudjetdan ajratiladigan mablag'lari

hisobidan o’zining tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag’batlantirish va rivojlantirish jamg’armasiga;

– kapital qo’yilmalar bo’yicha buyurtmachi xizmatini saqlab turishga, har bir ob’ekt bo’yicha kelishilgan manzilli va titul ro’yxatlarda hamda shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan summalar doirasida;

– soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xizmatlari uchun haq to’lashga;

– yuridik majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladigan xarajatlarni to’lashga.

Xulosa qilib aytganda, byudjetdan mablag’ oluvchilar va mahsulot etkazib beruvchilar bilan byudjet mablag’lari hisobiga tuzilgan shartnomalar faqat ularning G’aznachilik bo’linmalarida majburiy ro’yxatga olinganidan so’ng kuchga kiradi. Byudjetdan mablag’ oluvchilar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar, shuningdek shartnomalarga byudjetdan mablag’ oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan tegishli rejali byudjet mablag’lari doirasidagina qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritadilar. Byudjetdan mablag’ oluvchilar bilan etkazib beruvchilar o’rtasida tuziladigan shartnomalar tegishli G’aznachilik organlarida majburiy ro’yxatdan o’tkazilib, ularga tegishli raqamlar berilishi va ro’yxatdan o’tkazish sanasi ko’rsatilishi kerak. Bu chora-tadbirlar byudjetdan ajratilayotgan mablag’larning maqsadli ishlatilishini ta’minlash, shartnomalarda ko’zda tutilgan summalarning rejalarda ko’rsatilgan mablag’larga mosligini nazorat qilish, to’lov intizomi buzilishlarining oldini olish, narxlarning to’g’ri qo’llanilishini ta’minlash maqsadida, pirovardida, g’aznachilik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

## 8.3. Xo’jalik shartnomalari va ularning xususiyatlari

Iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari hamda ijtimoiy soha muassasa va tashkilotlari o’rtasidagi, ularning uzluksiz faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni etkazib berish bilan bog’liq munosabatlar muayyan shartnomaviy-huquqiy munosabatlar asosida tashkil etiladi. Bunday munosabatlarga kirishgan taraflar o’rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berish *xo’jalik shartnomasi* asosida amalga oshiriladi.

*Xo’jalik shartnomasi* deb taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlar etkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to’lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi.

Xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarish jarayoni bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (670-son, 29.08.1998.) shular jumlasidandir.

Fuqarolik Kodeksining 353-moddasiga muvofiq, "Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi". Shuningdek, Fuqarolik Kodeksi bilan fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkin ekanliklari, shartnoma bo'yicha taraf o'z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to'lov to'lanishi lozim bo'lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma ekanligi, shartnoma bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to'lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanishi, agar qonun hujjatlaridan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanishi kabilar belgilab qo'yilgan.

"Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra, tadbikorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat (8.3-rasm):




*8.3-rasm. Shartnomaviy munosabatlarning asosiy printsiplari*

Demak, shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan taraflar hech kimning tazyiqisiz, mustaqil va erkin ravishda, o'zaro manfaatdorlik asosida shartnoma tuzishlari, shartnoma shartlarida belgilangan talablarni so'zsiz bajarishlari, shartnoma shartlari buzilgan hollarda esa taraflar kontragent

oldidagi o’z majburiyatlarini bajarishda mulkiy javobgar ekanliklari qonun bilan mustahkamlab qo’yilgan.

Xo’jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo’llashi va ikkinchi taraf uni aktseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo’li bilan tuziladi. Agar taraflar o’rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo’yicha kelishuvga erishilgan bo’lsa, xo’jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo’jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko’rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo’l qo’yilmaydi.

Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo’jalik shartnomalari xo’jalik yurituvchi sub’ektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada, qoida tariqasida quyidagilar ko’rsatiladi:

– xo’jalik shartnomasida ko’rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

– xo’jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

– taraflarning javobgarligi me’yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Xo’jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo’lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Tovarlarni etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to’liq etkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko’rsatilmagan hollarda, tovar etkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to’laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko’rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to’lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to’liq etkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko’rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o’z faoliyati xususiyatiga ko’ra o’ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo’lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda

yo’lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta’minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo’yadigan shartnoma *ommaviy shartnoma* deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko’rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste’molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonun hujjatlarida iste’molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo’l qo’yiladigan hollar bundan mustasno.

Tashkilotning iste’molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko’rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo’la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo’l qo’yilmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O’zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo’lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

## 9-MAVZU. G’AZNACHILIK TIZIMIDA MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR BO’YICHA TO’LOVLARNI AMALGA OSHIRILISHINING NAZORATI

**REJA:**

9.1. Moliyaviy majburiyatlar, ularni qabul qilishning umumiy qoidalari
9.2. G’aznachilikda byudjetdan mablag’ oluvchilarning xarajatlar to’lovini amalga oshirish tartibi
9.3. Moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatga olish va to’lovlarni amalga oshirish orqali byudjet ijrosini nazorat qilish

### 9.1. Moliyaviy majburiyatlar, ularni qabul qilishning umumiy qoidalari

Yuqoridagi bobda ko’rib o’tilganidek, yuridik majburiyat byudjet tashkiloti bilan kontragent o’rtasida ma’lum bir muddatdan so’ng ma’lum bir tovarni etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) to’g’risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda G’aznachilikda ro’yxatdan o’tkazilganidan keyin vujudga kelar ekan.

Moliyaviy majburiyat esa ana shu shartnomaga muvofiq tovarlar etkazib berilganidan (ishlar bajarilganidan, xizmatlar ko’rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Byudjet Kodeksida belgilab qo’yilishicha, “*moliyaviy majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag’lari oluvchilarda ularga pul

mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"[26] hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlarni *G'aznachilikda ro'yxatga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad* - qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan byudjet va xarajatlar smetasi ko'rsatkichlari doirasida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda byudjet tashkilotlarining kreditor qarzliklarini nazorat qilish.

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Masalan, tovarlar etkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan *schet-fakturalar,* ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi *qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari*, *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Amaldagi qonunchilik talablariga ko'ra, byudjet tashkilotlari oldindan kamida 15 foiz to'lovni amalga oshirishlari talab qilinadi, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollar mustasno. Ayrim hollarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi lozim bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati tasdiqlanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 241-son qaroriga muvofiq, elektr energiyasi, mazut, ko'mir, benzin, dizel yoqilg'isi, mineral o'g'itlar, shuningdek, avia va temir yo'l chiptalari, sanatoriylar, dam olish zonalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar, barcha turdagi shahar yo'lovchi transporti yo'l kartochkalari kabilarni xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda (30 foizdan 100 foizgacha) oldindan to'lov joriy etilgan[27].

2007-sonli "Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalari"ga muvofiq, byudjetdan mablag' oluvchilarning ikkinchi tomon oldidagi moliyaviy majburiyatlari ularga tovar (ish, xizmat)lar etkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarni hisoblash vedomostlari asosida qabul qilinadi[28].

Moliyaviy majburiyatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo'yicha to'lovlar, yig'imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan tashqari, oldin tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi.

---

[26] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 3-modda. O'RQ-360-son.
[27] Vazirlar Mahkamasining "Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 24 avgustdagi 241-son **qaroriga** ilova.
[28] Adliya vazirligida 2007-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari", VII-bo'lim, 1-§

I va II guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar to'lovi uchun naqd pul mablag'larini olishga so'rovnoma, shuningdek ushbu guruhlar xarajatlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalari asosida ro'yxatga olinadi.

G'aznachilik bo'linmalari g'azna hisobvaraqlaridan to'lov topshiriqnomalar asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlashtirilgan tadbirlarni o'tkazish, kapital qo'yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to'lovlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasi va kapital qo'yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"[29]gi qaroriga muvofiq, byudjetdan mablag' oluvchilarni davlat byudjetidan xarajatlarning to'rt guruhi bo'yicha moliyalashtirish tartibi belgilangan:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;

II. Ish haqiga qo'shimchalar;

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan manzilli ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar (oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar).

Byudjetdan mablag' oluvchilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda, I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi.

Tegishli budjet bo'yicha I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun g'azna hisobvaraqlarida zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

IV guruh "Boshqa xarajatlar" bo'yicha mablag'larning sarflanishi o'rnatilgan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Shaxsiy hisobraqamlarda ovqatlantirish xarajatlari bo'yicha to'lanmagan mablag'lardan ortiqcha mablag'lar mavjud bo'lgan hollarda, ushbu oshgan mablag'lar doirasida dori-darmonlar bo'yicha (to'rtinchi guruhning boshqa xarajat turlari bo'yicha ham) xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

---

29 O'zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari to'plami, 1999 y. № 9, 51-modda

Budjet  tashkilotlarining ishchilariga ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xarajatlar bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Budjet  tashkilotlarining shaxsiy hisobvaraqlarida chorak (yil) oxirida qolgan, iqtisod qilingan budjet  mablag'lari (kapital qo'yilmalarning to'lovi uchun nazarda tutilgan ajratilgan mablag'lar bundan mustasno) Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va qonunchilikda belgilangan tartibda sarflanadi.

Iqtisod qilingan mablag'larning o'tkazilishi budjet  tashkilotlari tomonidan yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band qilinmagan ajratilgan budjet  mablag'lari doirasida hisobot choragining keyingi oyi davomida amalga oshiriladi. Budjet  mablag'larining iqtisodi tegishli o'tgan davr uchun aniqlangan budjet  mablag'lari limitlari va qabul qilingan yuridik majburiyatlar o'rtasidagi farq doirasida aniqlanadi. Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar yuridik majburiyatlardan ortiq bo'lgan hollarda, budjet  mablag'larining iqtisodi tegishli o'tgan davr uchun aniqlangan budjet  mablag'lari limitlari va qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar o'rtasidagi farq doirasida aniqlanadi.

Agar shartnomaga uning amal qilish muddatini uzaytirish bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuzilmagan bo'lsa, shartnomaning muddati tugashi bilan mahsulot etkazib beruvchi (pudratchi) tomonidan tovar (ish, xizmat)lar etkazib berish bo'yicha majburiyatning bajarilishi tugatiladi. Bunda, amal qilish muddati joriy yilning 31 dekabrigacha bo'lgan shartnomalar muddatini uzaytirish bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuzishga yo'l qo'yilmaydi (kapital qo'yilmalar bo'yicha shartnomalardan tashqari). Amal qilish muddati tugagan shartnomalar bo'yicha mahsulot etkazib beruvchilarning etkazib bergan tovar (ish, xizmat)lari uchun kreditorlik qarzlari o'rnatilgan tartibda hisobvaraq-fakturalar va o'zaro qarzdorlikning solishtirma dalolatnomasi asosida to'lab beriladi. Mahsulot etkazib beruvchilardagi mavjud debitorlik qarzlari buyurtmachiga – budjet dan mablag' oluvchining tegishli g'azna hisobvarag'iga qaytariladi.

Agar mahsulot etkazib beruvchi tomonidan o'tgan moliya yilining debitorlik qarzlari keyingi yilda (keyingi yillarda) qaytarilsa, u holda g'azna hisobvarag'iga tushgan debitorlik qarzlari summasi tegishli budjet daromadlariga tiklanadi.

Amaldagi shartnomalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlar miqdori ro'yxatga olingan yuridik majburiyatlar summasiga nisbatan kam qabul qilinishi natijasida budjet  mablag'larining iqtisodi yuzaga kelganda, budjet  tashkilotlari tegishli hisobot davri uchun shartnomalar summasini qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summasiga muvofiqlashtirish uchun, ularni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuzishlari lozim.

Amal qilish muddati tugagan shartnomalar bo’yicha moliyaviy majburiyatlar miqdori ro’yxatga olingan yuridik majburiyatlar summasiga nisbatan kam qabul qilinishi natijasida budjet mablag’larining iqtisodi yuzaga kelgan xollarda, yuridik majburiyatlar summasi qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar summasiga buyurtmachi hamda mahsulot etkazib beruvchi (pudratchi) o’rtasidagi solishtirma dalolatnoma asosida muvofiqlashtiriladi.

Budjet dan mablag’ oluvchilar tomonidan oldin tuzilgan shartnomalarga qo’shimcha kelishuvlar tuzishda moliya yili yakunigacha shartnomalar summasi - yuridik majburiyatlar (misol uchun, kuz-qish mavsumining kelishi bilan bog’liq holda elektr energiyasi, tabiiy gaz va issiqlik energiyasi uchun xarajatlarning o’sishi va boshqalar) kamaytirilayotgan xarajatlar moddalari bo’yicha ehtiyoj bo’lishi mumkinligi e’tiborga olinishi lozim.

Hisobot yilining oxirida shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida qolgan iqtisod qilingan budjet mablag’larining Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg’armasiga o’tkazilishi bir xil tartibda qo’shimcha davr mobaynida amalga oshiriladi.

G’azna ijrosiga o’tgan budjet dan mablag’ oluvchilar bo’yicha o’tgan yil uchun to’lov topshiriqnomalari moliya yiliga qo’shimcha davrning tugashigacha 5 ish kunidan kechikmagan muddatda g’aznachilik bo’linmalariga taqdim etilishi lozim.

Tibbiyot muassasalarida tegishli moddada nazarda tutilgan budjet dan rejali ajratilgan mablag’lar Tibbiyot muassasalarining moddiy rag’batlantirish va rivojlantirish jamg’armasiga taqdim qilingan to’lov hujjatlari asosida shartnomalar tuzilmasdan belgilangan muddatda o’tkaziladi.

Shartnoma tuzilmasdan quyidagi o’tkazmalar amalga oshirilishi mumkin:

– budjet tashkilotlarining iqtisod qilingan mablag’lari ularning Rivojlantirish jamg’armalariga, shuningdek tibbiyot muassasalari tomonidan – smetada nazarda tutilgan maqsadli ajratilgan mablag’lar Tibbiyot muassasalarining moddiy rag’batlantirish va rivojlantirish jamg’armalariga;

– kapital qo’yilmalar bo’yicha buyurtmachilarning boshqaruv apparati xizmatini saqlash uchun mablag’lar ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan, o’rnatilgan tartibda manzilli va titul ro’yxatlarda kelishilgan va har bir ob’ekt bo’yicha shaxsiy hisobvaraqlardagi summalar doirasida.

G’aznachilik bo’linmalari tomonidan ssudalar, dotatsiyalar va subventsiyalarning o’tkazilishi tayinlash sertifikatlari, ularga ilova qilingan hisob-kitoblar, shuningdek tegishli moliya organlari tomonidan taqdim etilgan to’lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Konkurs savdolari o’tkazilgunga qadar budjet dan mablag’ oluvchilarning er uchastkasini ajratish, qurilish ob’ekti hududida yashovchi shaxslarni

ko'chirish, dastlabki - ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlash, loyiha oldi ishlarni tashkil qilish, loyiha va konkurs hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish, ekspertiza qilish va tasdiqlash, qurilish ob'ektlarini davlat arxitektura qurilish nazorati inspektsiyasida ro'yxatga qo'yish, tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxati (loyiha-tadqiqot ishlari manzilli ro'yxati)da nazarda tutilgan buyurtmachini saqlash kabi xarajatlar to'lanishi mumkin.

## 9.2. **G'aznachilikda budjet dan mablag' oluvchilarning xarajatlar to'lovini amalga oshirish tartibi**

Budjet tashkiloti tasarrufida bo'lgan, budjet dan ajratilishi ko'zda tutilgan pul mablag'lari miqdori uning tegishli moliya organi tomonidan ro'yxatga olingan xarajatlar smetasi bilan cheklangan. Budjet tashkilotining yuridik majburiyatlari ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi belgilab qo'yilgan. Budjet tashkilotlarining moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi.

Budjet tashkilotlari va budjet dan mablag' oluvchilar tomonidan to'lovlar quyidagi talablarga asoslangan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi:

– moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari asosida va budjet mablag'lari bo'yicha budjet dan mablag' oluvchilarning bank hisobraqamlarida mavjud bo'lgan, xarajatlarning tegishli guruhlari bo'yicha budjet mablag'lari qoldiqlarining summalari doirasida;

– agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasidan oshmasa;

– tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib berilishini va budjet dan mablag' oluvchining etkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan hisobvaraq-fakturalar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek budjet dan mablag' oluvchi zimmasiga etkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlar bo'lganida;

– etkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari etkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lsa;

– to'lov topshiriqnomasida budjet tasnifining tegishli kodlari to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa.

Budjet dan mablag' oluvchi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun naqd pul mablag'lari

olishga g’aznachilik bo’linmasiga budjet dan mablag’ oluvchining rahbari va bosh hisobchisi imzosi bilan, ikki nusxada ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, shuningdek xizmat safari xarajatlarini to’lash uchun naqd pul mablag’lari olishga so’rovnoma va unga to’ldirilgan chek ilova qilingan holda taqdim qiladi.

Budjet dan mablag’ oluvchilar naqd pul olish uchun moddiy javobgar shaxs (kassir)ga berilgan ishonchnomani g’aznachilik bo’linmalariga taqdim qiladilar.

Naqd pul berilganidan so’ng reestrning ikkinchi nusxasi (kassa chiqim jurnali) chek ijro etilganligi to’g’risidagi belgi qo’yilgan holda bank ko’chirmasi bilan birga tegishli G’aznachilik bo’linmasiga qaytariladi. G’aznachilik bo’linmasi bank ko’chirmasi, reestr va chek milkiga asosan tegishli shaxsiy hisobvaraqda belgi qo’yadi va budjet tashkilotiga uning shaxsiy hisobvarag’idan ko’chirma beradi, shu bilan birga budjet tashkiloti buxgalteriyasida keyingi hisoblarni yuritish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, xizmat safari xarajatlarini to’lash uchun berilgan so’rovnomaning ikkinchi nusxasiga “To’landi” belgisini qo’yib budjet dan mablag’ oluvchiga qaytaradi. Budjet dan mablag’ oluvchi pul mablag’larini xarajatlar smetasida nazarda tutilgan summadan oshmagan, umumiy summaga yozilgan bir nechta chek bilan olish huquqiga ega. Buning uchun ular tomonidan xizmat ko’rsatuvchi g’aznachilik bo’linmasiga tegishli summaga so’rovnomalar taqdim etiladi.

Budjet dan mablag’ oluvchilar naqd pul mablag’larini olish uchun cheklarni ularning so’rovnomalarida ko’rsatilgan qat’iy summalarga va umumiy summasi xarajatlar smetasining tegishli limitidan oshmagan summalarga yozib beradilar.

Budjet dan mablag’ oluvchining ishonchli shaxsi tomonidan chek markasi yo’qotilgan hollarda, chek markasi yo’qotilganligi aniqlangan kuni tegishli G’aznachilik bo’linmasiga budjet dan mablag’ oluvchi rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolangan bildirishnoma-xat taqdim etiladi. G’aznachilik bo’linmasi ushbu bildirishnoma-xat asosida tegishli bankka to’lanmagan chekni chaqirib olish to’g’risida xat bilan murojaat qiladi. Cheklar reestri chaqirib olingan chek summasini ayirgan holda ijro qilinadi.

Cheklarning yo’qotilishi va o’g’irlanishi, shuningdek chekni hamda nazorat markalarini olish uchun vakolatli shaxslar tomonidan o’z mansabini suiiste’mol qilish natijasida etkazilgan zararlar bo’yicha javobgarlik budjet dan mablag’ oluvchilarning mansabdor va moddiy javobgar shaxslariga yuklanadi.

Olingan chek daftarchalari budjet dan mablag’ oluvchilarda saqlanadi va cheklarni qonunchilikda belgilangan tartibda saqlash va ishlatish bo’yicha

javobgarlik budjet dan mablag’ oluvchilarning rahbarlari va bosh hisobchilariga yuklanadi.

G’aznachilik bo’linmalarining moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatga olish va to’lovlarni amalga oshirish bo’limi (guruhi) mas’ul xodimlari to’lov uchun so’rovnoma va boshqa hujjatlarni qabul qilishda ushbu hujjatlarning ikkinchi nusxasiga hujjatlarni qabul qilganligi to’g’risida o’z imzolarini qo’yadi va ularni qabul qilingan sanani ko’rsatgan holda budjet dan mablag’ oluvchining tegishli xodimiga qaytaradi.

Budjet dan mablag’ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridan operatsiyalar amalga oshirilishi bo’yicha G’aznachilik bo’linmalarining moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatga olish va to’lovlarni amalga oshirish bo’limi (guruhi) mas’ul xodimlari budjet dan mablag’ oluvchilarga ularning shaxsiy hisobvaraqlaridan ko’chirmalarni beradilar hamda ularni tasdiqlangan shakl bo’yicha Budjet dan mablag’ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlardan berilgan ko’chirmalarni ro’yxatga olish jurnalida ro’yxatga oladi. Budjet dan mablag’ oluvchining mas’ul xodimi ko’chirmalarni olishda jurnalga ularni olganligi to’g’risida belgi qo’yadi.

G’aznachilik bo’linmalarining moliyaviy majburiyatlarni ro’yxatga olish va to’lovlarni amalga oshirish bo’limi (guruhi) mas’ul xodimlari Berilgan va ishlatilgan cheklarni hisobga olish jurnalida berilgan va ishlatilgan cheklarning ro’yxatini yuritadi.

III guruh xarajatlari bo’yicha moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi pudratchilarning ish bajarilganligini tasdiqlovchi hisobvaraq-fakturalar asosida amalga oshiriladi.

G’aznachilik bo’linmalari tomonidan pul mablag’larini o’tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– to’lov topshiriqnomasida budjet tasnifining tegishli kodlari, shartnoma, hisobvaraq-faktura, avans miqdori va boshqa kerakli rekvizitlar to’g’ri ko’rsatilganda;

– qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro’yxatlari asosida va tegishli ob’ektlar bo’yicha shaxsiy g’azna hisobvaraqlaridagi mavjud ajratilgan budjet mablag’lari summalari doirasida bo’lganda;

– agar to’lov topshiriqnomasida ko’rsatilgan summa G’aznachilik bo’linmasida ro’yxatga olingan shartnomaga asosan, oldin o’tkazilgan mablag’larni hisobga olgan holda, to’lanishi lozim bo’lgan pul mablag’laridan oshmaganda;

– buyurtmachining pudratchi oldidagi kreditorlik qarzining mavjudligini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura va hujjatlar yoki buyurtmachining pudratchiga avans to’lovlarini o’tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo’lganda;

– to’lov topshiriqnomasida ko’rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlari shartnomada ko’rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlariga muvofiq bo’lganda.

Bajarilgan ishlar uchun xarajatlar to’lovi, jumladan avans to’lovlarining to’lanishi o’rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan va buyurtmachilar tomonidan g’aznachilik bo’linmalariga taqdim qilingan to’lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi, bunda to’lov topshiriqnomasining “To’lovchining nomi” ustunida g’aznachilik bo’linmasining nomi, “To’lovchining hisobraqami” ustunida - g’azna hisobvarag’i, “To’lov maqsadi” ustunida - budjet dan mablag’ oluvchining shaxsiy hisobvaraq raqami, budjet  tasnifining tegishli kodi, to’lovni o’tkazishga asos bo’ladigan hujjatlar, shuningdek to’lov maqsadi ko’rsatiladi.

Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar yuqoridagi talablarga muvofiq bo’lganda G’aznachilik bo’linmasining vakolatli xodimi “Tekshirildi” belgisini, to’lov topshiriqnomasining birinchi nusxasining orqa tomoniga to’lov topshiriqnomasining qabul qilingan sanasi va o’zining imzosini qo’yadi. To’lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasining g’aznachilik bo’linmasi boshlig’i va mas’ul shaxsining imzolari va g’aznachilik bo’linmasining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so’ng amalga oshiriladi.

G’aznachilik bo’linmasiga undagi mavjud imzo va muhr izi namunalarini budjet dan mablag’ oluvchilar tomonidan taqdim qilingan, g’azna hisobvaraqlaridan mablag’larni hisobdan chiqarish uchun bankka taqdim qilinadigan hujjatlardagilar bilan solishtirish majburiyati yuklatiladi.

To’lov topshiriqnomalari bo’yicha g’azna hisobvarag’idan to’lovlarni amalga oshirish uchun G’aznachilik bo’linmasi bankka to’lov topshiriqnomalarining ikkinchi va uchinchi (G’aznachilik bo’linmasi va pudratchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan holda - to’rtinchi) nusxalarini taqdim qiladi.

Xizmat ko’rsatuvchi bank tomonidan to’lov o’tkazilgandan so’ng, to’lov topshiriqnomasining ikkinchi (g’aznachilik bo’linmasi va pudratchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan holda - uchinchi) nusxasi bankda qoladi, uchinchi (g’aznachilik bo’linmasi va pudratchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan holda - to’rtinchi) nusxasi bankning shtampi va mas’ul xodimining imzosi hamda g’azna hisobvarag’idan ko’chirma bilan G’aznachilik bo’linmasiga beriladi.

G’aznachilik bo’linmasining tegishli xodimi budjet dan mablag’ oluvchilarning tegishli shaxsiy hisobvaraqlarida belgi qo’ygandan so’ng, budjet dan mablag’ oluvchining shaxsiy hisobvarag’idan ko’chirma va to’lov topshiriqnomasining to’rtinchi (g’aznachilik bo’linmasi va pudratchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan holda - beshinchi) nusxasini G’aznachilik

bo'linmasi mas'ul xodimining belgisi bilan budjet dan mablag' oluvchiga (buyurtmachiga) qaytariladi.

Hisobvaraq-fakturalar yoki buyurtmachining pudratchi oldidagi qarzining mavjudligini va ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar G'aznachilik bo'linmalariga qo'shimcha davr tugashiga 5 ish kuni qolguniga qadar taqdim qilinishi lozim. Boshqaruv apparatini saqlash uchun buyurtmachining bank hisobvarag'iga mablag'lar o'tkazilishi shartnomalar tuzilmasdan manzilli va titul ro'yxatlarda va har bir ob'ekt bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarda ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan summalar doirasida, o'rnatilgan tartibda taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi. Bunda, buyurtmachining boshqaruv apparatini saqlash uchun o'tkaziladigan summa moliya organida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan xarajatlar smetasida uni saqlash uchun nazarda tutilgan summadan oshmasligi lozim.

IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar mahsulot etkazib beruvchilarning hisobvaraq-fakturalari yoki tovarlar etkazib berilganligini (ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi boshqa hujjatlar yoki budjet dan mablag' oluvchilarning mahsulot etkazib beruvchiga budjet (budjet dan tashqari) mablag'larini (shu jumladan, avans to'lovlarini) o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida qabul qilinadi.

G'aznachilik bo'linmasi budjet dan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqnomalari asosida g'azna hisobvaraqlaridan IV guruh xarajatlari bo'yicha xarajatlarni budjet dan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarining tegishli moddalarida nazarda tutilgan ajratilgan budjet mablag'lari limitlari doirasida amalga oshiradi.

Budjet dan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi to'lov topshiriqnomalari bilan quyidagi talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

– budjet dan mablag' oluvchilarning IV guruh xarajatlarining tegishli moddalari bo'yicha budjet mablag'lari qoldiqlari summalari doirasida;

– agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan shartnomaga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari summasidan oshmasa;

– hisobvaraq-faktura yoki tovar(ish, xizmat)lar etkazib berilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar mavjud bo'lganda va budjet dan mablag' oluvchining mahsulot etkazib beruvchi oldidagi qarzdorligini, shuningdek budjet dan mablag' oluvchini mahsulot etkazib beruvchiga budjet (budjet dan tashqari) mablag'larini (shu jumladan, avans to'lovlarini) o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida;

– to’lov topshiriqnomasida ko’rsatilgan mahsulot etkazib beruvchining, shuningdek budjet dan mablag’ oluvchilarning nomi va rekvizitlari shartnoma va hisobvaraq-fakturada yoki tovar (ish, xizmat)lar etkazib berishni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarda mahsulot etkazib beruvchining, shuningdek budjet dan mablag’ oluvchilarning nomi va rekvizitlariga muvofiq bo’lganida.

Etkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun xarajatlar to’lovi, shuningdek avans to’lovlarini amalga oshirish uchun budjet dan mablag’ oluvchilar g’aznachilik bo’linmasiga o’rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan to’lov topshiriqnomalarini o’rnatilgan tartibda taqdim qiladilar (ushbu darslikning 4-bob, 4.4-paragrafiga qarang). Bunda, to’lov topshiriqnomasining “To’lovchining nomi” ustunida G’aznachilik bo’linmasining nomi, “To’lovchining hisobraqami” ustunida - g’azna hisobvarag’i, “To’lov maqsadi” ustunida - budjet dan mablag’ oluvchining shaxsiy hisobvaraq raqami va budjet dan mablag’ oluvchining nomi, budjet tasnifining tegishli kodi, to’lovni o’tkazishga asos bo’ladigan hujjatlar, shuningdek to’lov maqsadi ko’rsatiladi.

Budjet dan mablag’ oluvchilar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar talablarga muvofiq bo’lganda, G’aznachilik bo’linmasining vakolatli xodimi “Tekshirildi” belgisini, to’lov topshiriqnomasining birinchi nusxasining orqa tomoniga to’lov topshiriqnomasi qabul qilingan sanani va o’zining imzosini qo’yadi. To’lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasini g’aznachilik bo’linmasi boshlig’i va mas’ul shaxsining imzolari va G’aznachilik bo’linmasining muhr izi bilan rasmiylashtirish tekshiruvlar tugaganidan so’ng amalga oshiriladi.

To’lov topshiriqnomalari bo’yicha g’azna hisobvarag’idan to’lovlar amalga oshirish uchun G’aznachilik bo’linmasi bankka to’lov topshiriqnomalarining ikkinchi va uchinchi (G’aznachilik bo’linmasi va mahsulot etkazib beruvchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan hollarda - to’rtinchi) nusxalarini (“Bank-mijoz” dasturi ishlatilgandan tashqari holatlarda) taqdim qiladi.

Xizmat ko’rsatuvchi bank tomonidan to’lov o’tkazilgandan so’ng, to’lov topshiriqnomasining ikkinchi (G’aznachilik bo’linmasi va mahsulot etkazib beruvchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan hollarda - uchinchi) nusxasi bankda qoladi, uchinchi (g’aznachilik bo’linmasi va mahsulot etkazib beruvchiga bitta bank filialida xizmat ko’rsatilgan hollarda - to’rtinchi) nusxasi bankning shtampi va mas’ul xodimining imzosi bilan va g’azna hisobvarag’idan ko’chirma G’aznachilik bo’linmasiga beriladi.

G’aznachilik bo’linmasining tegishli xodimi budjet dan mablag’ oluvchilarning tegishli shaxsiy hisobvaraqlariga belgi qo’ygandan so’ng, budjet dan mablag’ oluvchining shaxsiy hisobvarag’idan ko’chirma va to’lov topshiriqnomasining to’rtinchi (g’aznachilik bo’linmasi va mahsulot etkazib

beruvchiga bitta bank filialida xizmat ko'rsatilgan hollarda - beshinchi) nusxasi g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimining belgisi bilan budjet dan mablag' oluvchiga qaytariladi.

### 9.3. **Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish orqali budjet ijrosini nazorat qilish**

G'aznachilik organlarida pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash maqsadida *xarajatlarni amalga oshirish ruxsati* (XAOR) joriy etilgan. Bunda har haftada pul mablag'larini boshqarish bo'linmasi kassa rejasini yangilaydi va XAOR hajmini belgilaydi. So'ngra budjet tasnifiga muvofiq budjet tashkilotlariga XAOR beriladi. XAORlar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o'tgandan so'ng ular o'z kuchini yo'qotadi.

Yil davomida muayyan budjet (masalan, tuman budjet i)ning budjet tashkilotlari uchun smetalar asosida xarajatlarni amalga oshirish ruxsat(XAOR)lari yozib beriladi. Biroq budjet , prognozlashtirilganga nisbatan kamroq daromad to'plasa, xarajatlarni to'liq hajmda amalga oshirishga ruxsat berilmaydi. Shuning uchun yillik ajratmalar va smetalar aniqlashtirilmaguncha, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatlarini olish uchun rejadan tashqari budjet lararo ssudalar taqdim etilishi mumkin.

G'aznachilik organlari XAORlar chiqarilishi va to'lanishi, yuridik majburiyatlarning ro'yxatga olinishi, hisobvaraq-fakturalarning va to'lovga arizalarning yozilishi, arizalarning tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi.

G'aznachilik bo'linmalari g'azna hisobvaraqlaridan to'lov topshiriq-nomalar asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlashtirilgan tadbirlarni o'tkazish, kapital qo'yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to'lovlarni tasdiqlangan xarajatlar smetasi, shuningdek, kapital qo'yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi.

Budjet dan mablag' oluvchilarning xarajatlari uchun to'lovlar, Davlat budjet ining g'azna ijrosi Qoidalarida (2007-sonli) ko'zda tutilgan tartib asosida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- to'lov topshiriqnomasida budjet tasnifining tegishli kodlari, shartnoma, hisobvaraq-faktura, avans miqdori va boshqa kerakli rekvizitlar to'g'ri ko'rsatilganda;
- qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro'yxatlari asosida va tegishli ob'ektlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mavjud ajratilgan budjet mablag'lari summalari doirasida bo'lganda;

- agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan shartnomaga asosan, oldin o'tkazilgan mablag'larni hisobga olgan holda, to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan oshmaganda;

- buyurtmachining pudratchi oldidagi kreditorlik qarzining mavjudligini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura va hujjatlar, yoki buyurtmachining pudratchiga avans to'lovlarini o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda;

- to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlari shartnomada ko'rsatilgan pudratchining nomi hamda rekvizitlariga muvofiq bo'lganda.

Bajarilgan ishlar uchun xarajatlar to'lovi, jumladan, avans to'lovlarining to'lanishi o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan va buyurtmachilar tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi, bunda to'lov topshiriqnomasining "To'lovchining nomi" ustunida g'aznachilik bo'linmasining nomi, "To'lovchining hisobraqami" ustunida - g'azna hisobvarag'i, "To'lov maqsadi" ustunida - budjet dan mablag' oluvchining shaxsiy hisobvaraq raqami, budjet tasnifining tegishli kodi, to'lovni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlar, shuningdek, to'lov maqsadi ko'rsatiladi.

Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish chog'ida G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi (9.1-rasmga qarang):




*9.1-rasm. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish chog'ida G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat*

G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning maqsadi budjet tashkilotlarining kundalik faoliyatiga aralashish, ularning mablag'laridan foydalanish jarayonlarini murakkablashtirish emas, balki davlat pul mablag'larining samarali boshqarilishini ta'minlash, budjet mablag'larining harakatida operativlikni oshirish, mablag'larning maqsadli va aniq yo'nalishlarda ishlatilishiga erishish va shu asosda budjet ning samarali ijrosini ta'minlashdan iboratdir.

## 10-MAVZU. G'AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORATNING XORIJ TAJRIBALARI

**REJA:**

**10.1.** G'aznachilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar

**10.2.** AQSh G'aznachilik departamenti faoliyatiniug o'ziga xos xususiyatlari

**10.3.** Avstraliya g'aznachilik departamenti va Yaponiya g'aznachilik boiimi faoliyati

**10.4.** Fransiya Davlat G'aznasi faoliyatming xususiyatlari

**10.5** Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi faoliyati jarayonlari

**10.6** Qozog'iston va Latviyada g'aznachilik faoliyatining tashkil etilisiii

### 10.1. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar

Ba'zi mamlakatlarda g'azhachilik tasdiqlangan budjet asosida, budjet tashkilotlariga resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, uning roli sust bolishi mumkin. Agar g'azhachilikning roli faol bo'lsa, xarajatlarni to'lash majburiyatlarining limitlarini oldindan ko'zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi.

G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va u bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun



***10.1-rasm.* Xorijiy mamlakatlarda g‘aznachilik tizimining modellari**

Xorijiy davlatlarda hukumat tomonidan moliyaviy operatsiyalami boshqarishda uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan.

1. Davlat moliyasini boshqarish.
2. Budjetni ijro etish.
3. Buxgalteriya hisob-kitobini yuritish.
4. Nazorat qilish va baholash.

Davlat moliyasini boshqarishning o‘zi turli yo‘nalishlarga ega: .

a) Naqd mablaglami boshqansh.

Budjet daromadlari ijrosidagi bu faoliyatning yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

✓soliqlami va boshqa tushumlarni yig‘ish;

✓daromadlaming tushumlari tushisliini nazorat qilish;

✓ tushumlarni yig‘ishda bank bilan bo‘ladigan munosabatlami amalga oshirish;

✓davlat boshqaruv organlarining turli darajalan o’rtasida daromadlarni taqsimlash;

✓ resurslarni taqsimlash yoki lnmtlami belgüash, *y* xarajatlami moliyalashtirish uchun talabnomalarni tasdiqlash va ulami to‘lash.

✓b)Moliyaviy rejalashtirish.

Davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun kerak bo ladi- gan g‘aznachilikning yagona hisob raqamiga tushadigan tu- shumlami taxminlashtirishni ko‘zda tutadi.

v) Davlat qarzlarini boshqarish.

g) Davlatning moliyaviy aktivlari ustidan nazorat qilish. Argentinada qabul qilingan 1992-yilgi jamoat sektorini moliyaviy boshqarish va audit haqidagi qonunga asosan g‘az- nachilik tizimiga tushumlarni yig‘ish, jamoat sektoridagi to‘lovlar oqimi va naqd aktivlami saqlash bilan bog liq agentliklar, normativlar va protseduralar kiradi. Bu tarif g’azna vazifalari ichidan davlat g‘aznasi veksellari chiqarishdan tashqari davlat qarzlarini boshqarish vazifasini bajarmasligini belgilaydi. Ba’zi mamlakatlarda g‘azna davlat qarzi, qimmat-baho metallar va boshqa aktivlami saqlash masalalariga javob bersa, boshqalarida u to‘lovlami amalga oshirishdan avval ularni tekshirish, g‘azna hisobotlarini tuzishga ham javob beradigan boshqaruv

apparati sifatida faoliyat kohsatadi Sanab otilgan barcha faoliyatlarda gʾazna oʾz ishini bank lzimi bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiradi. Ispaniyada gʾaznachilik funksiyalari Moliya kotibining o rinbosari Konselyariyasi (MK) va G'aznachilik bosh direktorati (G'BD) ohtasida taqsimlangan. Ikkala mussasa ham lkkilamchi darajadagi tuzilmaviy strukturalar bolib, Moliva vazirligi tasarrufidadir. Mamlakat Markaziy bankida gʾazna- chihkmng yagona hisobi mavjud. Yagona hisob boVicha tushumlar va toʻlovlar ustidan nazoratni Gʻaznachiljk bosh di- rektorati amalga oshiradi. Yagona hisobga tushumlar boʻyicha nazorat uning zimmasida boʾllshiga qaramay ba'zi bir soliqsiz daromadlardan tashqari soliqlar yigʾilishida qatnashmaydi Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi sohq boshqarmasi bank lzimi orqali soliqlarni yigʾadi. Budjetning xarajatlari boʻyicha g'aznachilik oʻzida - ayrim xarajatlar boʾyicha toʾlovlarni kechiktinsh huquqim saqlagan holda, oylik va choraklik ° l°vlarm amalga oshirishi boʾyicha majburiy jadvalni tuzadi.

Budjet birliklari tomonidan majburiyatlar olish, tekshirish va to lash boʻyicha qabul qilingan qarorlar gʾaznachilik tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Toʾlov topshmqnomalan Gʾaznachilik bosh direktorati tomonidan yoziladi va haqiqiy mablag* ajratilishi ustidan nazorat olib bonladi. Nazorat soha departamentlari tomonidan budjet ajratmalarim hamda naqd toʾlovlar jadvali hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlari hajmi muddati va shartlan G'aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Qimmatli qogʾozlar Markaziy bankning agent sifatidagi ishtirokida amalga oshiriladi, lekin tashqi yoki boshqa qarz olishlar bevosita Gʾaznachilik bosh direktorati tomonidan bajanladi. Gʻaznachilik qimmatli qogʾozlar ikki- lamchi bozorini tartibga solishda keng vakolatlarga ega. Ispaniyada davlat axborot tizimi faoliyat koʾrsatadi va unga Mohya vazirligi Konselyariyasi mas'uldir. Mazkur axborot tiznm orqali istisnolarsiz barcha davlat operatsiyalari o tkazishga majburdir. Ushbu tizim budjet ijrosini olti bosqichda bajaradi: budjet ajratmalari, majburiyat olish, tekshi- rish, toʻlov talabi, toʻlov topshirigʻi va haqiqiy mablagʻ ajra- tish. Budjetni tayyorlash ham tizim orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha turdagi rasmiy ma'lumotlar shakllantiriladi va barcha turdagi statistik ma'lumotlar tayyorlanadi. Mazkur tizim suhbatli rejimda, aniq vaqt koʻlamida ishlaydi va har qanday ma'lumot tezkor taqdim etiladi. Soha departamentlari va keyingi budjet oluvchilar bilan ham aloqalar mavjud.

Gʻznachilik boʻyicha olib borilayotgan islohotlami rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida koʻrib chi- qadigan bolsak, hozirgi kunda respublikamizda gʻaznachilikda olib borilayotgan chora-tadbirlarga qoʻshimcha ijobiy yoʻnalishlami aniqlab olishimiz mumkin.

### 10.2. AQSh Gʻaznachilik departamenti faoliyatiniug oʻziga xos

**xususiyatlari**

AQShda G‘aznachilik to‘g‘ridan to‘g‘ri Prezidentga bo‘ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiya- lami bajaradi. Budjet jarayonida budjetni tayyorlashga javob beradigan Ma’muriy-budjet boshqarmasi auditga va nazoratga, hisob-kitob ishlariga javob beradigan Bosh budjet-nazorat boshqarmasi kabi muassasalar qatnashadi, Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi G‘aznachiliknig bir qismi hisoblanadi.

G‘aznachilik barcha tushumlami va to‘lovlarni Nyu- Yorkdagi Federal rezerv bankida o‘zining bosh hisob raqami orqali nazorat qiladi. G‘aznachilik barcha soliqlarni va boj to‘lovlarini yig‘adi. markazlashgan holda barcha yighmlarni yig'ilishini va ba’zi muassasalarga xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlaydi. Tushumlami yig‘ishda bank lizimidan foydalani- ladi.Tarmoq departamentlari mablaglarni to‘g‘ri va samarali ishlatilishi bo̓yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida budjetdan mablag‘ oluvchilaming so‘rovi asosida G‘aznachilik tomonidan to‘lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o‘tkazish vositalaridan foydalaniladi. Budjetdan ajratilgan mablag̓lar tarkibi ham G aznachilik tomonidan, ham Ma’muriy-budjet boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Shuningdek, AQShda G’aznachilik boshqa mamlakatlardagi kabi davlatning qimmatli qog‘ozlarini chiqarishni va hisobini nazorat qiladi hamda to̓lov muddatlarini belgilaydi va auksionlarda joylash- tirishni nazorat qiladi. Shu bilan birga, G̓aznachilik davlat qimmatli qog‘ozlari ikkilamchi bozorining qoidalarini belgilaydi, G’aznachilik qisqa muddatli kassa talablarini qoplash uchun doimiy haftalik qimmatli qog‘ozlami chiqaradi.

G̓aznachilik buxgalteriya hisob-kitobiga javob beradi, oylik va yillik moliya hisobotlarini tayyorlash uchun ma’lumotlar yig̓adi va muassasalar uchun me’yoriy hujjatlar tayyor- laydi. Ichki nazorat va audit funksiyalarini tarmoq departamentlaridagi bosh inspektorlar hajaradi. Federal hukumat federal mablag̓lari hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy dasturlar bo̓yicha tekshiruvni amalga oshiradi. AQShda G̓aznachilik va Budjet Departamentlari faoliyati aniq muvofiqlashtirilgan. G̓aznachilik budjet tushumlari to̓g̓risida hujjatlarni tayyorlaydi va makroiqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda qatnashadi. Ma’muriy-budjet boshqarmasi Prezident Kongressiga taqdim qilinadigan xarajatlar smetasini tayyorlaydi, shuningdek, turli darajadagi budjetlami umumlashtiradi.

G̓aznachilik pul oqimlari boshqaruvini va qarz majburiyatlari hisob-kitobini amalga oshiradi. G̓aznachilik va tarmoq departamentlari o̓rtasida dialog tartibida axborotlar almashuvi amalga oshiriladi. G̓aznachilik tizimida yagona federal tizimdagi hisobotlarni tayyorlash uchun ba’zi bir funksiyalar

birlashtiriladi. Tarmoq departamentlari oʾzlarining xususiy axborot tizimiga ega, shuningdek, Gʾaznachilikka dialog tartibida axborotlar beradi va qabul qiladi. Hisobotlarni turlariga qarab ularni tayyorlash vaqti turlichadir. Naqd pul oqimlari toʾgʾrisidagi umumiy axborot har kuni tayyorlanadi.

AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofjqlashtirish ~ Federal xarid siyosati boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur organ dastlab, Budjetni boshqarish boshqarmasida maslahatchi organ sifatida 1974-yilda tashkil etilgan, 1988-yildan hukumatning doimiy faoliyat vuriluvchi organi sifatida ish koʻradi. Federal xarid agentliklari lomonidan amalga oshiriladigan barcha xaridlar 1984-yilda islilab chiqilgan «Davlat xaridini tartibga soluvchi qoidalar yig'indisi» **(Federal Acquisition Regulation)** bilan tartibga solinadi. Qoidalarda xaridni tashkil etishning barcha bosqich- lari - xaridni rejalashtirish, davlat xaridini amalga oshirishni boshqarish va uni tugallashgacha bo’lgan barcha bosqichlar o'z aksini topgan. **FAR** dan ko'zlangan asosiy maqsad - davlat ehtiyoji uchun xaridni amalga oshiruvchi barcha federal agentliklar tomonidan yagona xarid siyosatini amalga oshirish va yagona xarid qoidalaridan foydalanishni ta’minlashdan i bo rat. **FAR** ning missiyasi esa xaridni amalga oshirishga bo'lgan vaqt cheklanganligini inobatga olgan va davlat Iniyurtmachilarini eng optimal narx va sifat munosabatini la'minlagan holda tovar va xizmatlar bilan ta’minlashdan iborat. **FAR** ga asosan AQShda davlat xaridiga buyurtmani loylashtirishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- ikki bosqichli savdolar;
- ochiq savdolar; muzokaralar olib borish;

TEDning ma lumotlar bazasini intemetdan olish mumkin va u kompankt-disklarda ham mavjud. U har kuni 500-750 tagacha yangi e lonlar bilan toʻldirib, yangilanib boradi va o zida imzolangan shartnomalar haqida ma’lumotlami ham saqlaydi. Shartnomalar va mol yetkazib beruvchilar haqida yanada to liqroq ma’lumotlar mamlakatlarning axborot tizimida mavjud, bundan tashqari davlat xaridi ishtirok- chilariga axborot va xizmatlami koTsatuvchi 200 dan ortiq markazlari ham faoliyat koʻrsatdi.

- AQShda xarid faoliyatini tashkil etishning ikkita modeli ustunlik qiladi: markazlashgan va markazlashmagan.

- **Markazlashgan model** - bunda xarid uchun buyurt- malami joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroi hukumatning yagona tarkibiy boʻlinmasi- xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bolimlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori boʻlsa, barcha turdagi xaridga javobgar bolgan maxsus idora shakllantiriladi.

- **Markazlashmagan (taqsimlangan) model** - bunda dav- latning buyurtmachisi o‘z ixtisosligi bo‘yicha xaridga buyurt- mani alohida amalga oshiradi. Taqsimlangan modelda kompaniyaning har bir bo‘limi (vazirlik, idora) o‘z ehtiyojlari uchun xaridni mustaqil tarzda amalga oshiradi.
- Ikkala modelning yutuq va kamchiliklari mavjud: taqsimlangan model ancha egiluvchan, ammo ko'p xarajat talab qiladi.
- °‘z navbatida, markazlashgan model yirik hajmdagi ul- gurji xarid tufayli past narxlarni ta’minlaydi, ammo egiluvchan emas va har doim ham tovarlar hamda xizmatlaming arizada ko rsatilgan xususiyatlarni o‘zida aks ettirmasligi mumkin.
- Qisman markashlashgan modelda esa xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Ikkala usul ham barcha rivojlangan mamlakatlarda qollanilib kelinadi.
- Masalan, Buyuk Britaniyada bu vazifalar davlat G ‘ aznachiligining **(NM Treasure)** zimmasiga yuklatilgan.
- Yevropa Ittifoqida ikkala modelning bir vaqtda qollanilishi ko‘proq samarali ekanligini kuzatish mumkin.
- Masalan xaridni umumiy boshqarish (me’yoriy-huquqiy ssoslarni shakllantirish, rejalashtirish, nazorat va muvofiq- ^shtirish) faoliyati Moliya va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan t^shkil etiladi.

### 10.3.Avstraliya g‘aznachilik departamenti va Yaponiya g‘aznachilik boiimi faoliyati

Avstraliyada vazirlik maqomiga ega bo‘lgan va to‘g‘ridan to’g‘ri hukumatga bo‘ysinadigan G‘aznachilik departamenti mavjud. Uning asosiy vazifalaridan biri tushumlarni yig‘ishdan iborat. G‘aznachilik departamenti tarkibida Soliq boshqarmasi Joylashgan bo‘lib, G'aznachilik departamenti shu boshqarma °rqali soliq to‘lovchilar bilan muomalada bo‘ladi va tashqi ttJshumlardan tashqari barcha soliq tolovlami yig‘ib oladi, tashqi tushumlarni yig‘ish bilan esa bojxona xizmati shug‘ullanadi. Budjetning xarajatlar qismi ijrosi budjetdan tttablag[4] oluvchilarning so‘rovi asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatda budjetdan mablag“ oluvchilarni budjet nîajburiyatlarining aniq huquqiy-me’yoriy hujjatlari qabul hilingan, shuningdek, budjet mab-laglarini maqsadli va [Sf]ünarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo‘lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda g‘aznachilik departamenti faol g‘aznachilik rolini o‘ynaydi. Avstraliyada davlat qarzlarini boshqarish g‘aznachilikka ytiklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ulaming hajmini, tarkibini va to‘lov nauddatini nazorat qiladi.

Avstraliyada g‘aznachilik vazifasini G‘aznachilik Departamentidan tashqari Moliyaviy departament bajaradi. Mamlakatda davlatga qarashli mablag‘lar g'aznachilikning y^gona liisob raqamida to‘planadi. Moliyaviy departament bctnkda yagona hisob raqamni amal qilish mexanizmi uchun shart-sharoit va usullarni belgilaydi.

Avstraliyada davlatnig moliya-axborot tizimi faoliyat ko rsatadi. Bunda budjetni tayyorlash, uni ijro etish va yig ligan tushumlarning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Mazkui axborot tizimi orqali G'aznachilik va Moliyaviv departamentlar bolimlari bilan mustahkam aloqa ohnatilgan bundan tashqari, tarmoq departamentlari bilan aloqa bog‘langan. Mamlakatda bunday tizimning mavjudligi har doim davlatmng moliyaviy resurslari to‘g‘risidagi tezkor umumiy axborotlarm olish imkonini beradi.

Yaponiyada g‘aznachilikni bajaradigan funksiyalaming tashkiliy sxemasi o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu mamlakatda g aznachilikmng bajaradigan funksiyalari G‘aznachilik bo'limiga, qarzlarni boshqarish bo‘limiga, Moliya bodimiga, Budiet bo limiga, Huquqiy bo‘limga va Budjetni ijro etish bo hmiga yuklatilgan. Bu bo‘limlar Budjet va Moliya byurosi arkibiga kiradi, bu byurolar Moliya vazirligining bo‘linmalari hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashgan bo‘limlarga yuklatilgan

Yaponiyada G‘aznachilik bo‘limi kunlarga bo‘hngan moliya rejasim tayyorlaydi, shuningdek, Budjetni ijro etish bo hmi bilan davlatnmg Yaponiya bankidagi hisob raqamdan to lanadigan to‘lovlari va tushumlarini nazorat qiladi. Barcha tushumlarni yig‘ilishiga Moliya vazirligi tarkibidagi Milliy boJiq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to g ridan to‘g‘ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijoiat banklariga, Milliy Soliq xizmati va Bojxona departa- mentmmg mahalliy bodimlanda pochta tizimi asosida to’lanishi mumkin. Qarzlami boshqarish bo‘limi Yaponiya bankming agenti sifatida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish ularmng tarkibi, hajmi va muddatigataalluqli masalalarni hal etadi. Budjetni ijro etish bo‘limi budjet vazirliklarining mablag’lari doirasida ularmng xarajatlarining to‘lash graligim tasdiqlaydi, aynm xarajatlarning moddalarini to‘lash maihu- nyatlarini olishda Moliya vazirligining ruxsati talab etiladi. Yaponiya banki budjet vazirliklarining mablag‘larini ishlati- hshim va ularning mavjud limitlarini nazorat qiladi. Hukumatmng barcha davlat mablag‘lari Yaponiya bankining yig‘ma hisob raqamida to‘planadi. Mamlakatda ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Bunda budjetni tayyorlash, uni ijro etish, budjet hujjatlarini nashr qilish va buxgalteriya hisobi amalga oshiriladi. Umumiy axborotni tayyorlash muddati hisobotning murakkabligiga bogliq. Kassa operatsiyalari bo‘yicha umumiy axborot har kuni tayyorlanadi,

tarmoq vazirliklaridan kengaytirilgan axborot olish mumkin.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi lartib asosida tuzilgan. G‘aznachilik qarzlarni boshqarishni amalga oshiradi, G‘aznachilikni bosh idorasi hisob raqamlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi va hisob-kitob yuritadi. Budjetga lushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqdan tashqari yigMmlar esa departamentlar orqali yig‘iladi.

G‘aznachilik asosiy funksiyasi g‘aznachilikning yagona hisob raqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fonddagi barcha tushumlami nazorat qilishdir. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fonddan toMangan barcha toMovlar ham lining nazoratida bo‘ladi. G‘aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida har oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu rejadan qisqa muddatli moliyalash- lirishdagi talablami aniqlashda foydalaniladi. Yuqorida aytib oMganimizdek, davlat qarzlarini boshqarish g‘aznachilik I'unksiyasiga kiradi. Shuning uchun u davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni, ulaming hajmini, tarkibini va to‘lov muddatini aniqlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, Angliya bankining agenti sifatida namoyon bo‘ladi. G‘aznachilikni bosh idorasi tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida (Jepartamentlarning to‘lov qog‘ozlari asosida pul mab lag Mari ajratadi, u toMovlar hisob-kitobini olib boradi. Ichki nazorat va auditni vazirlik o̓zining kuchlari bilan o‘tkazadi. G‘az- nachilik davlat korxonalarini tashqaridan moliyalashtirishni limitlar orqali nazorat qiladi, xususiylashtirilgan tarmoqlardagi ma’lum departamentlarga qarashli «oltin» aksiyalardan tash- qari moliyaviy aktivlami boshqaruvchisi hisoblanadi. Davlat moliya axborot tizimi G‘aznachilik rahbarligida faoliyat koMsatadi. Mazkur tizim orqali budjet tayyorlanadi va tasdiqlangan budjet mablagMari darajasida xarajatlar ro‘yxatga olinadi, tushumlarning ro‘yxatga olinishi alohida amalga oshi- riladi. Vazirliklar davlat moliya axborot tizimiga boglangan. bundan tashqari o‘zlaririing xususiy axborot tizimlariga ega.

### 10.4.Fransiya Davlat G‘aznasi faoliyatming xususiyatlari

Fransiyada budjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Budjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budjet direktorati o‘z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag‘- lami xarajat qilish sur’atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Fransiyadagi G‘aznachilik Avstraliya- dagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va ‘tashqi qarzlarini boshqaradi, yuqorida aytib o'tganimizdek, muomalaga qimmatli qog‘ozlarni chiqarishni nazorat qiladi. ularni hajmiga, to‘lov muddatiga va tarkibiga bogliq masalalami yechadi. Fransiyada ham davlat moliya axborot tizimi samarali faoliyat ko‘rsatadi.

Mazkur tizimda budjetni tayyorlash, budjet hujjatlarini nashr qilish va budjet ijrosi amalga oshiriladi. Shuningdek, Budjet direktorati va tarmoq vazirliklarini

bog‘lay digan boshqa tizimlar ham mavjud. Buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) asosida yagona hisob raqamdagi mablaglar to‘g‘risida to‘Hq axborot olish uchun bir kun ketadi, har hafta to‘liq kengaytirilgan ma’lumotlar olish mumkin.

Hozirgi kunda Fransiyada davlat budjetini t'ashkil qilish va ijrosini amalga oshiradigan tashkilot «Iqtisodiyot, moliya va sanoat vazirligidir». Uning tarkibiga kiradigan quyidagi tashkilotlar mavjud:

- Budjet boshqarmasi (budjetni tayyorlash, tasdiqlash va ijro metodologiyasiga javobgar organ);
- Davlat moliyasini hisobga olish Bosh boshqarmasi (Fransiya Davlat G‘aznachiligi);
- G‘aznachilik Direksiyasi
- «Frans-trezor» agentligi (FTA).

Davlat G‘aznachilik idoralarining fiinksiyalari:

- tushumlarni nazorat qilish;
- davlat xarajatlarini amalga oshirish va nazorat qilish;
- budjet va hisobot axborotini tayyorlash;
- konsalting;
- jamg'armalar va umumiy mablag'lami boshqarish.

Davlat g‘aznachilik idoralarining vazifalari quyidagilardan iborat:

-Fransiya G‘aznachiligining faoliyatini koordinatsiya qilish;
- Davlat hisobi amaliyoti qoidalarini modernizatsiya qilish;
- Davlat hisobi tizimini isloh qilish;
-Mahalliy hokimiyat organlariga islohotlarda yordam kohsatish;
- Fransiya G҆aznachiligi kadrlarini boshqarish.

Iqtisod, moliya va sanoat vazirligi eng yosh va tez rivojlayotgan idoralaridan biri bo‘lib 2001-yilda tashkil topgan va 30 kishili shtatga ega. FTAni tashkil topishidan samara shundaki, 2001-yilning o‘zida Fransiya budjetiga 500 mln.€. ga yaqin pul mablag‘lari(asosan botsh budjet mablaglami joylashtirishdan tushgan daromadlar ko‘rinishida) tushdi. YaG҆H mablaglarini boshqarishida FTA xodimlari quyidagi talablami bajarishlari kerak:

- Markaziy YaG'Hni doimiy kredit saldosini ta’minlash;
- eng kam budjet xarajatlami sarf qilib kassa operatsiyalarini ohkazish uchun bo‘lgan ehtiyojlarni moliyalashtirish;
- ortiqcha pul mablag'larni foydali joylashtirish;
-Fransiya davlat qarzini unumli boshqarish.

G‘aznachilik Yagona Hisobida yig҆iluvchi barcha davlat mablag҆lari harakati nazorati bilan shug҆ullanadi.Bu hisob raqam Fransiyaning Markaziy bankida olib boriladi.Budjetning daromad mablag҆larini shakllantirish

maqsadida G‘aznachilik eng yirik 2000 ta qoʾshimcha qiymat soligʾi (QQS) toʾlovchi- laridan Markaziy bankdagi gʾazna hisob raqamiga toʾlovlarni tushiradi. Boshqa soliq va tushumlarni Davlat hisobi bosh direksiyasi, Tushumlar Direktorati va Fransiya Bojxona xizmati undirishadi.

Davlatning moliya boʾyicha axborot tizimi zamon talablariga muvofiq, samarali harakat qiladi. Bu axborot tizimidagi Gʾaznachilikning Yagona Hisobida amalga oshirilgan barcha buxgalteriya hisobi harakatlari bo‘yicha haftalik yig‘ma hisobot taqdim qilinadi. Haftalik axborot rejasi tarmoq vazirliklar va funksional masalalar uchun xizmat qiladi.Yuqorida qayd etilgan bolimlar vazirlikning fiskal organlari (Soliqlar bo'yicha Bosh boshqarma, Bojxona va egri soliqlar bo‘yicha Bosh boshqarma, Pensiya xizmati) bilan birgalikda maqomi bo‘yicha Iqtisod, moliya va sanoat vazi- rining o'rinbosari hisoblangan budjet ishlari bo'yicha Davlat kotibiga boʾysinadi. Davlat Gʾaznasi Bosh Boshqarmasi G'aznachilik organlarining malakali xodimlari toʾgʾrisida axborotlar- tarqatilishi boʾyicha faol ravishda uch yo'nalishda ish olib boriladi:

=> Davlat Gʾaznasi xizmatiga kelgan xodimlami boshlangʾich kasbga tayyorlash;

=> Davlat G'aznasi xizmatida ishlayotgan xodimlarning kasb mahoratini oshirish;

=> xizmat pog‘onalaridan koʾtarilishni xohlovchi xodim- larni konkurs asosida tanlab, ularni rahbarlikka tayyorlash.

Har bir xodimga va kasbiy «deontoloniya^ga bag’ishlangan axborot byulletenning 1995-yilgi «Davlat G’aznasining yangiliklari» nomli maxsus soni nashr qilindi. Bundan tashqari, tufli me’yoriy -hujjatlarda xodimlarga yuklatilgan vazilalami bajarish jarayonidagi talablar, kasbiy mahorat etikasining qonun-qoidalari berib boriladi.

Shuningdek, deontoloniyaga bag’ishlangan boshlang'ich oʾrganishga moʾljallangan darslar tizimli ravishda olib boriladi. Inspektor-stajyorlar, Davlat gʾaznasi ishlarini bajaruvchilar uchun Gʾaznachilikning Milliy Maktabida shu mavzularda maxsus ma’ruzalar o'qiladi. Gʾaznachilik organlari xodimla- riping kasb mahoratini oshirish maqsadida deontoloniya mavzusida o‘quv dasturlari tuziladi. Mazkur tizimda mablag‘lar harakati va ulardan maqsadli foydalanish ustidan joriy va
keyingi nazoratni kuchaytirishga oid qonunlami, me riy huj- jatlami, yo‘riqnomalami bilmasdan turib g‘aznachilik organ- laridagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligisiz ish tashkil etish mumkin emas. Shu bois respublikamizda ham g‘aznachilik bo'limlarida kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

## 10.5.Rossiya Federatsiyasi G‘aznachiligi faoliyati jarayonlari

Rossiya Federatsiyasi budjet tizimining barcha bosqich- larida budjet ijrosi «yagona kassa» tamoyili asosida amalga oshiriladi. «Yagona kassa» tamoyili Rossiya Federatsiyasi qonuniy hujjatlariga muvofiq, budjet daromadlarining barcha tushumlarini, budjet taqchilligining manbalarmi jalb etish va mohyalashtirishni hamda budjetning yagona hisob raqamidan barcha xarajatlarni amalga oshirishm ko‘zda tutadi.

Federal G’aznachilik budjet ijrosini to‘g‘ri amalga oshiradi, budjet mab lag‘lari ni boshqaradi va hisobini yuritadi, belgilangan limitlar doirasida xarajatlarni, budjet ssudalarini beradi va budjet investitsiyalarini moliyalashtiradi. To‘lovlarni toMiq va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi, budjet ijrosi to‘g‘risida ma’lumotlar tayyorlaydi va hisobotlar tuzadi. Yagona hisob raqam bo‘yicha tushumlar va tolovlarni hisobga oladi hamda nazorat qiladi.

Federal budjetning daromadlar qismi ijrosi haqida gapiradigan bo'lsak, «sobiq organlarining Moliya vazirligi bo‘ysunuvidan chiqqanligi Federal budjet ijrosi jarayonlarini tezkor boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborotlami uzatishnmg bo‘linishiga olib keldi. Davlat soliq xizmati kanallari bo‘yicha barcha soliq to‘lovlarining amalga oshirilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Lekin shunga qaramasdan, Rossiya Moliya vazirligi o‘zining hududiy organlaridan haqiqatda Federal budjetning daromadlar qismiga tushgan daromadlar miqdori to‘g‘risida to‘liq axborot olish imkoniyatidan chetlatilgan, bu esa budjet amaliyotidagi moliyalashtirishning kechikishiga olib keldi. Davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish, himoyalash, nazorat qilish va hisobga olishni ta’minlash katta muammo bo‘lib qoldi. Davlatning moliya tizimi boshqaravi bo‘yicha davlat talablarini amalda bajarilishini ta’minlovchi ijro boshqaruvi organini tuzish zaruriyati yuzaga keldi. Rossiyada 1928-yildan «barcha kirim va chiqimlarni hisoblash» tizimi mavjud boʾlgan, bu vazifalarni Davlatning G‘aznachilik departamenti amalga oshirgan. Rossiyada budjet ijrosining tahlili shuni ko’rsatadiki, 90-yillar boshida Rossiyada davlat g’aznasini to’ldirish bilan bog’liq va uning resurslarini xarajat qilishning nazoratini ta’minlashga zaruriyat tug‘ildi.

Rossiya Federatsiyasi 90-yillarning boshidan yakka tizimli moliya boshqamvidan voz kechdi, bozor iqtisodiyotiga oʾtish sharoitida moliyaviy manfaatni himoya qilishni oʾz oldiga vazifa qilib qoʾydi. Shunday qilib, Federal budjet ijrosini amalga oshira oladigan tezlikda yangi moliya organini tuzish masalasini hal qilish kerak boʾldi. Rossiya Federatsiyasida 1992-yiü davlat miqyosda g‘aznachilik tizimi vujudga keldi.

Federal Gʾaznachilik Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibiga kiradi,

markazlashgan tizim hisoblanadi va u hududiy tamoyillarga asoslanadi. Bunga huquqiy asos bolib Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni, «G̓aznachilik to'g'risida»gi Nizom xizmat qiladi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1992-yil 8-dekabrdagi 1556-sonli farmoni bilan Federal budjet daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish, davlat dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshi- rish, tushumlar ustidan nazoratni kuchaytirish, davlat mablag'larini maqsadli va iqtisod qilib ishlatish maqsadida Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga bo̓ysunuvchi Federal G̓azna- chilik organlarining markazlashtirilgan tizimi shakllantirildi. Rossiya Federatsiyasi hududining kattaligi, telekommunikatsiya tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, Rossiya Federatsiyasinig federal tuzilishga ega ekanligi va federatsiya tarkibiga kiruvchi subyektlar orasida keskin farqlar mavjudligi Rossiya Federatsiyasida g̓aznachilik tizimining yaratilishida katta qiyinchiliklami tug'dirdi.

Keyingi yillarda Rossiya Fédéral G'aznachiligining ma- halliy organlari tizimi tashkil qilindi, ular xo'jalik va tashkiliy- texnika vositalari, shuningdek, hisoblash texnikasi, axbo- rotlarni yetkazuvchi aloqa vositalari bilan ta'minlashni tashkil qilishgan. G'aznachilik organlari ishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tartibga solish ishlari dinamik tarzda rivojlanib bormoqda.

G'aznachilik organlari ishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qisqa vaqtda dinamik tarzda rivojlanib bormoqda. 1994-1995-yillarda chet va uzoq rayonlarda g'aznachilik tarmog'i ishlashi yo'lga qo'yildi. Joylarda g'aznachilik bolimlari o'zaro bcglangan tizim yaratilishi, tizimning hamma bosqichlari yuqoridan quyi zanjirga qadar Fédéral budjet mablaglarini boshqarishni 'ta'minlandi va budjet ijrosi yo'lga qo'ylldi. Budjet ijrosida yaratilgan tizim Fédéral budjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish, budjet mablaglari ijrosining umumiy nazoratini ta'minlash imkoniga qodirligini namoyish etdi. Lekin g'aznachilik tizimi barcha Fédéral subyektlarni hali qamrab olmagan edi, faqatgina 2001-yilda Rossiya Federatsiyasining barcha sub'yektlari Fédéral G'aznachilik organlari bilan munosabatlarini boshladi hamda yagona markazlashgan Fédéral budjet ijrosi joriy qilindi.

Budjet ijrosining asosiy mezonlari Rossiya Federatsiyasining Budjet kodeksiga asoslanadi. Rossiya Federatsiyasi Budjet kodeksining 215-moddasida ta'kidlanishicha, Rossiya Federatsiyasida budjet ijrosi g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Shu moddaga asosan hokimiyat ijroya organlariga budjetning ijrosi va nazoratni tashkil etish, shuningdek, budjet mablaglari oluvchilarning majburiyatlarini va budjet hisob raqamlarini boshqarish yuklatÜadi. Xuddi shu organlarning o'zi barcha taqsimlovchilaming va budjetdan mablag' oluv- chilaming kassirlari hamda budjet tashkilotlari nomidan budjet mablag'lari hisobidan tolovni amalga oshiradi. Fédéral budjet ijrosi Rossiya Federatsiyasi

Markaziy banki yoki uning sho- hobchalarida ochilgan hisob raqamlarda g‘aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi yoki Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tijorat banklari ham amalga oshiradi. Rossiya Federatsiyasi Budjet kodeksining 155-moddasida ta’kidlanishicha, Rossiya Markaziy banki muassasalarida g‘aznachilik organlarining hisob raqami mavjud. Hududlarda Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki muassasalari bo’lmasa, g‘aznachilik hisob raqami vakolat berilgan xususiy tijorat banklarida boladi.

Hududiy G’aznachilik organlari uch bosqichga bo'linadi.

*Birinchi bosqich.* Federal G‘aznachilikning Bosh Bosh- qarmasi Moliya vaziri ohinbosari miqyosidagi boshliq tomonidan boshqariladi. Doimiy ravishda yig‘ma, toiiq va standartlashtirilgan hisob-kitob va g’aznachilik hisobini olib boradi. Mahalliy budjetning kirim-chiqimlari to‘g‘risida yuqori ijro va qonun chiqarish organlariga axborot beradi. G‘aznachilikning quyi organlari ishini nazorat qiladi. Federal budjet tushumi to‘g‘risida ulardan tezkor axborotlar va hisobotlar yig‘adi, budjet ijrosining qonunchilik asosidagi ijrosini ta’minlaydi.

*Ikkinchi bosqich.* Federal G’aznachilikning Boshqarmasi Sankt-Piterburg, Moskva shaharlari, avtonom uyushma, oblast va Rossiya Federatsiyasi ichidagi respublikalardan iborat. Hududlardan G‘aznachilikning organlari tomonidan Federal budjetning kirim-chiqim qismini shakllantirishda barcha qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlaydi.

*Uchinchi bosqich.* Federal G'aznachilik bo'linmalari. Shahar, tuman va shahar tumanlari, tumanga qarashli shahar- lardan tashqari budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan qilinadigan xarajatlarning maqsadli ishlatilishini ta’minlash va hududlarda federal budjetning daromadlar qismini shakllanti- rishni ta’minlaydi. Federal G‘aznachilik bolinmalari hudud- dagi Federal budjetning tushum va xarajatlari ijrosi to‘g‘risida yuqori tashkilotlarga axborot beradi.

Rossiyada davlat moliyaviy resurslarini boshqarishda g’aznachilik funksiyalari maqsadga muvofiq ravishda taqsim- langan. Budjet loyihasini tuzish va hukumatga taqdim etish, davlatning budjetdan tashqari fondlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, hukumat topshirig’iga asosan davlat nomidan Federal mablag’lar hisobidan qaytarib berish sharti bilan qarzlarni olish va kafolatlar berish, Fédéral budjet loyihasini tuzish va ijro etish sohasida uslubiy rahbarlik qilish, Fédéral budjetini tuzish, hukumat topshirig‘iga asosan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshirish, qimmatli qog‘ozlami chiqarishda emmitent sifatida ishtirok etish, davlatning tashqi qarzlarini boshqarish, barcha mulkchilik shaklida faoliyat yurituvchi shaxslarga buxgalteriya hisobi bo‘yicha uslubiy rahbarlik qilish, budjet ijrosining joriy

nazoratini amalga oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Har kuni xizmat ko‘rsatadigan bankdan G‘aznachilik hisob raqamining shaxsiy hisob raqamlaridan ko‘chirmalar hujjatlarning nus- xalari ilova qilingan holda moliya organlariga taqdim etiladi. G‘aznachilik tizimida budjet daromadlari qonunchilikdagi budjet va soliq huijatlariga muvofiq shakllantiriladi. Belgilan-gan tartibga ko‘ra budjet daromadlari bo‘yicha asosiy muommolar quyidagilardan iborat:

▪ budjetning yagona hisob raqamiga barcha daromadlarni o’tkazish;

▪ budjetda tasdiqlangan tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash;

▪ budjetga noto‘g‘ri to‘langan ortiqcha daromadlarni qaytarish;

▪ budjet daromadlarining hisobi va barcha darajadagi budjetlaming daromadlari bo‘yicha hisobotni tayyorlash.

G‘aznachilik tizimida daromadlarni boshqarish usullarini takomillashtirish, ularning hajmini optimal holatini ta’min- lash, budjetga mablag’larni o‘z vaqtida va to‘liq tushirish, budjetlararo munosabatlarni uyg̓unlashtirishga yo‘naltirilgan.

Daromadlarni boshqarish bo‘yicha g’aznachilik organlarining funksiyasi quyidagilardan iborat:

▪ budjetning yagona hisob raqamiga daromadlar tushishini tashkil etish;

▪ budjetga to̓langan noto‘g‘ri summalarni qaytarish;

▪ tasdiqlangan me’yorga muvofiq tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash;

▪ budjet daromadlarining hisobini yuritish va hisobotini tayyorlash.

▪G‘aznachilik organlari tomonidan budjet ijrosi davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun asosida tegishli yilda amalga oshiri- ladi va bunda parallel ravishda amalga oshiiiladigan jarayonni o‘z ichiga oladi: budjet daromadini tushiradi va budjet xarajatini amalga oshiradi.

▪Budjetni tushum qismining har bir bosqichi amaidagi qonunchilik asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomorqdan todanadigan soliq va soliqsiz todovlar shuningdek, ustama haqlar, jarimalar va xayriya tushumlari asosida amalga oshi-riladi.

▪Budjet tushumlarini amalga oshirishga uch guruh ishtirokchilari jalb etiladir soliq todovchilar, banklar, gdtznachilik organlari. Soliq todovchilar ma’lum tartib asosida banklarga todov hujjatlarini rasmiylashtiradilar va topshiradilar. Soliq todovchilaming liisob raqami ochilgan tijorat bankiari, Markaziy bank muassasalari soliq todovchi va soliq oluvchi orasida naqd pulsiz hisob-kitoblami amalga oshiradi.

▪Hududda moliyaviy tushumlarni oluvchi G‘aznachilik organi hisoblanadi. Budjet tasnifiga asosan kodlar bo‘yicha soliq va soliq summasi todov hujjatlari har bir tushum hisobini Gdaznachilik Boshqarmasi ijro etadi, so‘ng budjetga

tushgan tushum haqida har kunlik hisobotni topshiradi.

▪G‘aznachilikka tushgan barcha soliqlar tasdiqlangan me’yorlar asosida taqsimlanishi kerak. Har kungi taqsimlanish xulosasi turii darajadagi budjetga otkazilishi moljallaqgan summa hisoblanadi.

▪G‘aznachilik Boshqarmasi to’lov hisoblarini tayyorbiydi, bu hisoblarda todovchi tomonidan todangan mablag' g'aznachilikka tushishi aniqlanadi.

▪G‘aznachilik organlari o’tkazilgan mablag' yuzasidan to’lov qog‘ozlarini budjet bosqichlari bo‘yicha bir kun mobaynida, keyingisini esa bir kun keyin taqdim etiladigan hisobga olingan kundan tushum qog‘ozlarini taqdim etishlari lozim. Davlat budjet ijrosi mobaynida tushumlar bo‘yicha bar kuni hududiy soliq qo’mitasiga yig‘ma reyestr va to’lov qog‘oz nusxalarini topshirishlari lozim.

▪ Davlat soliq qo‘mitalari har bir soliq tolcvchining soliq turlari bo'yicha to‘g‘riligi va o‘z vaqtida tolanganligini hisoblab boradi. Soliq ortiqcha Lo Mangan bolsa, tolovchi Davlat Soliq qo‘mitasiga yozma murojaat qiladi.

▪ Davlat Soliq qo'mitasi ortiqcha va kam tolangan soliq bo'yicha qaytarish yoki qaytarmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatiga ega.

▪ Qabul qilingan qaror va xulosa ijro uchun g‘aznachilikka taqdim etiladi. G‘aznachilik organlari soliqni qaytarish yoki hisobga olish uchun tolov qog‘ozi yoki chekni ma’lum shakl asosida ijro etishi shart. Soliq ortiqcha tolangan bolsa, qaytarish yoki hisobga olish pul olkazish yoli bilan amalga oshiriladi.

▪ Jismoniy shaxsga soliqni qaytarish pul chekini shaxs hisobiga rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi, u esa chek orqali bankdagi g‘aznacbilik hisobidan naqd pul oladi. Soliqni qaytarish yoki hisobga olishning barcha amallari bank orqali markazlashgan g‘aznachilik hisobida mavjud mablag' asosida amalga oshiriladi va hisobotda yoritiladi.

▪ Rossiyada G‘aznachilik boshqarmasi hisob raqamida hududlardan yigllgan tushumlar G'aznachilik hisobiga tranzit shakhda tushadi va keyinchalik G‘aznachilikning Bosh Boshqarmasi hisob raqamiga ketadi.

▪ Shunday qilib, budjetning tushumlar ijrosi har kuni moliya yili davomida hisob qilib boriladi.

▪ Moliya vazirligi va Markaziy bank buyrug‘i asosida moliya yilining oxirgi kuni belgilanadi, bu ko‘p hollarda 4-5- yanvarga to‘g‘ri keladi. Budjetning barcha tushum hisob raqamlari yakuniy aylanmalari «0» ga aylanadi, barcha tushumlar yiglladi va keyingi moliya yilida ishlatiladi.

## 10.6.Qozog’iston va Latviyada g‘aznachilik faoliyatining tashkil etilisiii

MDHda pul-kredit va budjet-sohq siyosati uchun eng xarakterli bolgan hoi amalda hukumatning hisobga olish va moliyaviy nazorat organi rolini bajarayotgan markaziy banklar vazifalari juda kengaytirilgan. Albatta, bunday

holat har bir mamlakatda bir xil ko‘rinishga ega emas. Shunday bolsada, u davlat xarajatlarini boshqarishda moliya vazirligi va g‘aznachilik tizimining rolini susaytirishga ta’sir etadi. Hamdo‘stlik davlatlari va Boltiqbo‘yi respublikalarida olib borilayotgan islohotlar natijalari biz uchun amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tajribalarni ko‘rib chiqib 0‘zbekistonda g‘aznachilik amali- yotiga joriy qilinsa, ijobiy natijalar berishi muqarrar.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilikning hududiy bolinishi har bir davlatning ma’muriy bolinishidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Masalan, Qozog’iston Respublikasida 1994-yilda Qozog’iston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida g'azpachilik tizimi joriy qilindi. 1995-yilning oxirida esa Qozoglston Respublikasi Moliya vazirligida G‘aznachilik Bosh boshqarmasi G‘aznachilik qo‘mitasi tashkil etildi. 1996-yilda budjet Milliy bankning hisob-kassa mar- kazida respublika va mahalliy budjetlaming hisob-kassasiga xizmat qiluvchi Budjet banki tashkil etildi. Bunda G‘aznachilik idoralariga naqd pul operatsiyalaridan boshqa bank operatsiyalarini olkazish huquqi berildi. Shu bilan birga, daromadlar va xarajatlar uchun G‘aznachilikning yagona hisobi Milliy bankda ochilib, uning hududiy idoralari bilan korrespondensiya hisoblari tartibi joriy qilindi. 1997-yilda Budjet banki bekor qilinib uning íunksiyasi g‘aznachilikning hududiy idoralariga berildi.

1995-yilda g‘aznachilikning hududiy idoralari viloyatlarda, turnan va shaharlarda tashkil etildi. Ayni vaqtda, Qozoglston Respublikasida 16 ta viloyat va 184 ta tumanda mavjud bosqichning barcha bo‘glnlarida g‘aznachilik faoliyat ko‘rsat- moqda. Qozoglston Respublikasi g‘aznachilik tizimining tarkibi quyidagicha tuzilgan: G‘aznachilik qo‘mitasi-Markaziy g‘aznacliilik, G‘aznachililuiing viloyat boshqarmalari, Tuman- lardagi G‘aznachilik bolimlari. Qozoglston Respublikasi G'aznacliilik qo‘mitasi Moliya vazirligining boshqarmasi bo‘- lib, Qozoglston Respublikasi Moliya vazirligi unga bergan vakolat chegarasida o‘ziga yuklatilgan maxsus ijro va nazorat tekshiruv funksiyalarini bajaradi, shuningdek, respublika bud jetining ijro etilishida mintaqalararo muvofiqlashtirish ishini amalga oshiradi. Qozog’iston Respublikasi hukumati 1999-yil 24-mayda 626-son bilan «Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachilik qo‘mitasi masalalari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda Qozog‘iston Respublikasi G‘aznachilik qo‘mi- tasi to‘g‘risidagi Nizom belgilandi va Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachilik qo‘mitasining tarkibiy tu- zilishi aniqlandi. Qozog‘iston Respublikasi G‘aznachilik qo‘- mitasi Moliya vazirligining boshqarmasi bo‘lib, Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirügi unga bergan vakolat chegarasida o‘ziga yuklatilgan maxsus ijro va nazorat tekshiruv funksiyalarini bajaradi, shuningdek, respublika budjetining ijro etilishida mintaqalararo muvofiqlashtirish ishini amalga oshiradi. Davlat budjetiga va

budjet tashkilotlariga hisob-kassa xizmatini ko‘rsatadi hamda davlat budjeti mablaglarini maqsadli ishlatilisliida dastlabki va joriy nazoratni amalga oshiradi. G‘aznachilik qo‘mitasi Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qozog‘iston Respublikasi qonunlariga, Prezident aktlariga, Qozoglston Respublikasi hukumatining huquqiy-me’yoriy hujjatlariga, shuningdek, mazkur Nizom asosida faoliyat ko‘rsatadi.

G‘aznachilik qo‘mitasi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

> respublika budjeti kassali ijrosini tashkil qilish va nazoratni amalga oshirishni yaxshilash;

> davlat budjetining. xususan, davlatning va davlat tash- kilotlarining ko‘rsatadigan pullik xizmatlaridan tushgan tu- shumlarni; depozit summalarini, beg‘araz yordam va homiy- likdan tushgan mablaglarning hisob-kassasiga xizmat qilishni yaxshilash;

> budjet tizimida buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tayyorlashni rivojlantirish va takomillashtirishda qatnashish;

> respublika budjeti mablaglarini samarali va maqsadli ishlatilishining nazoratini ta’minlash;

> G‘aznachilik qo'mitasida davlatning axborot tizimi faoliyatini ta’minlash.

> G‘aznachilik qo'mitasida davlatning axborot tizimi faoliyatini ta’minlash.

G‘aznachilik qo‘mitasiga quyidagi funksiyalar yuklatildi:

> respublika budjeti mahalliy budjetlar ijrosida hisob- kassasiga xizmat qilish hamda o‘zining vakolati doirasida davlat budjeti ijrosini nazorat qilish;

> kelgusi yil budjet limitlari doirasida, g‘aznachilik rux- satnomalarini berish asosida respublika budjeti xarajatlarini moliyalashtirish;

> respublika budjeti naqd pul oqimlarining prognozini qilish;

> davlat tashkilotlari xarajatlarining, shuningdek, davlatning va davlat tashkilotlarining ko‘rsatadigan pullik xizmatlaridan tusligan tushumlami, depozit summalarini, homiylardan tushgan mablaglarning hisob-kassasiga xizmat qilishni yaxshilash.

G‘aznachilik qo‘mitasini milliy va chet el valutasidagi g‘aznachiJikning yagona hisob raqamini ochadi;

- davlat tashkilotlaridan, davlat budjetidan mablag‘ oigan tashkilotlardan, shuningdek, respublika va mahalliy budjetlardan ma’lumotlami va buxgalteriya hisobotlarini oladi, ularni o‘z vaqtida taqdim etilishini talab qiladi;

- Qozog‘iston Respublikasining Milliy banki tomonidan berilgan litsenziyaga asosan, milliy va chet el valutasida bank operatsiyalarini amalga oshiradi;

- Qozog‘iston Respublikasining Milliy banki tomonidan berilgan litsenziyaga asosan, milliy va chet el valutasida bank operatsiyalarini amalga

oshiradi;

- doimiy harakatdagi tarkibi davlat boshqaruv organlari, olimlardan, mutaxassislardan va boshqa tashkilot vakillaridan iborat Uslubiy Kengash hamda vaqtinchalik ishchi guruhini tuzadi;
- G‘aznachilik tizimi xodimlarini qaytatayyorlash ishlarini tashkil qilishda qatnashadi;
- G‘aznachilik organlaridagi budjet tizimiva ichki audit, buxgalteriya hisobi va hisoboti ishlarida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;
- respublika budjeti, mahalliy budjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va mahalliy budjetlami axborotlar bilan ta’minlaydi;
- davlatning moliyaviy prognozlarini shakllantiradi;
- G‘aznachilik organlari faoliyatida va ularning o’z vazifalarini bajarishida me’yoriy-huquqiy bazasini takomillash- tirish bo‘yicha takliflar beradi;
- budjet ijrosidagi noqonuniy holatlarda, budjet mablag’lari maqsadsiz ishlatilgan holatlarda, davlat budjeti uchun mablag‘larini qaytarib tushiradi va budjet mablaglari bilan amalga oshiriladigan bank operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yadi;
- G‘aznachilik organlari o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida huquqiy shaxslar tomonidan moliyaviy intizomga rioya etish, shuningdek, budjet mablag‘larining ishlatilishida javobgarlikni oshirish uchun nazoratni va tekshiruvni amalga oshiradi;
- davlatning moliyaviy mablaglarini maqsadli ishlati- lishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshiradi.

Latviyada budjetning asosiy maqsadi - davlat uchun qancha mablaglar kerakligini aniqlash, boshqa davlat xiz- matlari, moliyaviy institutlar va o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rsatilgan xarajatlarni daromadlar bilan ta’minlanishni to‘g‘ri asoslashdir. Mazkur vazifalar gliznachilik xizmatidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Latviyaning 2005-yil budjet ijrosi bo‘yicha asosiy normativ aktlar:

- moliya va budjetni boshqarish to‘g‘risidagi qonun.
- budjet tashkilotining moliya rejasini tuzish va hisobini yuritish to‘g‘risidagi Nizom.
- hisob raqamlar xizmatining qoidalari.
- budjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi.
- budjet daromadlarining tasnifi.
- buxgalteriya hisobini yuritish va Statistik hisobotlami tuzish to‘g‘risidagi me’yoriy hujjat.

Mamlakat budjeti ikki asosiy bo‘ginga bo‘linadi: davlat budjeti va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjeti. Davlat budjeti, shuningdek, o‘zini-o‘zi

boshqarish organlari budjeti ham asosiy budjet va maxsus budjetdan iborat. Latviyaning budjet jarayonlarini tartibga solishning asosiy normativ aktlari:

1. Har yili tasdiqlanadigan Budjet to‘g‘risidagi qonun.
2. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjeti to‘g‘risidagi qonun.
3. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjetlarini teng- lashtirish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilish to‘g‘risida»gi qonun.
4. Moliyaviy dastaklar to‘g'risidagi qonun.
5. Soliqlar to‘g‘rsidagi qonun.
6. Moliya vazirligining normativ aktlari.
7. G‘aznachilikning normativ aktlari.

Mamlakatda budjetni shakllantirish, tuzish jarayonlari 1997-yildan boshlab maqsadli dasturlashtirish usuliga o‘lkazilgan. Vazirlik va idoralar kelgusi yillarda amalga oshiri- ladigan xarajatlar uchun dasturlar ishlab chiqadi va mazkur dasturlarni Moliya vazirligi ko'rib chiqadi. Budjet jarayonining eng asosiy xususiyati shundaki, dasturlarning samarasi va qan- day natijaga erilishi e’tiborga olinadi. Latviyada 2002-yildan boshlab o‘rta muddatli budjetlarni rejalashtirish jarayoni bosh- langan. O'rta muddatli budjetni rejalashtirishda kelgusi yil uchun kutilayotgan yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishdagi o‘sish sur’ati, ishsizlik, inflyatsiya darajasining o‘sishi va kamayishi asos qilib olinadi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| **O'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ro'yxatga olindi** | **Institut Kengashining № 1 sonli qarori bilan TASDIQLANGAN** |
| **№ 190119** | |
| **2019 yil "30" 08** | **2019 yil "30" 08** |

# G'AZNACHILIKDA MOLIYAVIY NAZORAT

# FAN DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 230000 | - | Iqtisod |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 5232000 | - | Davlat byudjetining g'azna ijrosi |

**Toshkent-2019**

Fan dasturi institut Kengashining 2019 yil "30" avgustdagi 1 sonli Qarori bilan ma'qullangan.

Ushbu "G'aznachilikda moliyaviy nazorat" tanlov fan dasturi Toshkent moliya institutining "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Sagdiyev R.S. | – | Toshkent shahar Mirobod tumani G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i (kadrlar buyurtmachisi ) |
| Kuliboyev A.Sh. | – | TMI, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi (*tayanch OTMdan.*) |

**Taqrizchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Abduvaxidov F.T. | – | TDIU, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, i.f.n. (*turdosh OTMdan*.) |
| Tuychiyev A.J. | – | TMI,"Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor (*tayanch OTMdan.*) |

Fan dasturi Toshkent moliya instituti O'quv-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va tavsiya qilingan (2019 yil "30" avgustdagi 1- sonli majlisi)

**Kengash raisi ______________ i.f.d., professor I.Qo'ziyev**

**таълимдаги ўрни**

